

Y35  
665.6/7  
H50

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI  
ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**Ziyamuhamedova U.A., Eshmuhamedov M.A., Nazarov A.R.,  
Raxmatullayev A.T., Eshmamatov Z.S., Isakov A.U.**




**«NEFTKIMYOSI SINTEZ TEXNOLOGIYASI»**

amaliy mashg'ulotlar uchun  
o'quv-uslubiy qo'llanma

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI  
ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**Ziyamuhamedova U.A., Eshmuhamedov M.A., Nazarov A.R.,  
Raxmatullayev A.T., Eshmamatov Z.S., Isakov A.U.**



**«NEFTKIMYOSI SINTEZ TEXNOLOGIYASI»**

**amaliy mashg'ulotlar uchun  
o'quv-uslubiy qo'llanma**

Neftkimiyosi sintez texnologiyasi: O'quv-uslubiy qo'llanma  
Ziyamuhamedova U.A., Eshmuhamedov M.A., Nazarov A.R.,  
Raximatullayev A.T., Eshmamatov Z.S., Isakov A.U. ToshDTU  
2013. 138 b.

O'quv-uslubiy qo'llanmaga neftkimiyovi sintezi asosiy jihozlar va jarayonlarni hisoblashlarini amalga oshirishning o'ziga xosligi, jihozlar va jarayonlarni hisoblashga umumiyligini yondashuvlar neft va gazlarga xos bo'lgan ayrim fizik-kimiyovi hisoblash usullari, shu bilan birga neft va neft mahsulotlarini chuqur qayta ishlash majmuasi tuzilmasiga kirgan jarayonlar va ayrim texnologik jarayonlar qurilmalari, kurs loyihasini bajarishga uslubiy tavsiyalar kiritilgan. Bundan tashqari, o'quv-uslubiy qo'llanmada adsorbsion texnologiyalar va tabiiy energo tashuvchilar bilan bog'liq bir qancha sohalar bo'yicha materiallari keltirilgan.

5A321302 Neft va neft-gazni qayta ishlash texnologiyasi  
5A321303 Neft va gazni qayta ishlash jarayonlari va apparatlar  
mutaxassisliklariga hamda 5320300- Texnologik mashina va jihozlar  
(Neft va gaz sanoatining mashina va jihozlari) yo`nalishi bo'yicha  
tahsil olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, aspirantlar va  
ushbu sohada ishlovchi mutaxassislarga foydali bo'lishi mumkin.

O'quv-uslubiy qo'llanma ToshDTU ilmiy-uslubiy kengasi  
qaroriga ko'ra chop etildi.

Taqrizchilar:

t.f.n., dots. A.B.Jurayev (TKT),  
t.f.n., dots. Abidov B.O (ToshDTU)

## Kirish

«Neft va gazni qayta ishlash texnologiyasi» fani neftni chuqur qayta ishlash jarayonlarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, uning muhim elementi amaliyat va seminar mashg'ulotlaridir. Talabalarga ushbu fanni o'zlashtirishlari uchun taklif etilayotgan mavzular quyida keltirilgan.

Fan yuzasidan amaliy va seminar mashg'ulotlarining mavzulari:

### **1. Uglevodorodli aralashmalarining kritik parametrlari va molar massalarini hisoblash**

Neftni qayta ishlash jarayonlarini jadaallashtirishda yangi texnologiyalar va ishchi moddalarni qo'llash apparaturalarni hisoblashning va shuningdek, moddalarning issiqlik fizikasi (TFX) tavsiflanishining samarali usulini tatbiq etishni talab qiladi. Ayniqsa, bu suyuq moddalarga juda ham taalluqlidir chunki ularning tuzilishi nisbatan sifatlidir.

Issiqlik fizikasi tavsiflanishini tajriba usullarida aniqlash qimmatli va uzoq vaqt ni talab qiladi. Shuning uchun muxandislik amaliyotida issiqlik fizikasi tavsiflanishini umumlashtiruvchi hisoblashga yaqing usullardan foydalaniladi. Ularning ichida keng tarqalgani bu kritik parametrlardan foydalanishdir. Kritik parametrlarni mos keluvchi holatlar uchun to'g'ridan to'g'ri shaklda va nisbiy o'zgaruvchildar ko'rinishida qo'llash quyidagi fizik tavsiflarga oid hisoblashlarni bajarishni imkonini beradi: hajm, entalpiya, issiqlik o'tkazuvchanlik, bug' hosil bo'lishi issiqligi, sirt tarangligi, hajmiy kengayish koefitsienti va h.k.

Neft mahsulotlari kabi murakkab aralashmalar uchun kritik parametrlar agar qat'iy aytildigan bo'linsa, psevdokritik hisoblaandi. Biroq, neftni qayta ishlash va neft kimyosi adabiyotlarida umumiyligini qilingan terminlardan foydalanilsa ularni kritik deb atash mumkin.

Dastlabki ma'lumotlarning kichik soni bo'yicha neft mahsulotlari uchun kritik harorat ( $T_{kr}$ ) va kritik bosimni ( $R_{kr}$ ) hisoblash usullarini ko'ramiz.

Bunday ma'lumotlar sifatida ilgari sobiq ittifoqda standart tavsiflash usuli bo'lgan suyuq neft mahsulotlarining nisbiy zichligidan ( $\rho_f$ ) va qaynash haroratlardan foydalanamiz.

## 1.1. Kritik haroratni aniqlash

Bir komponentli suyuqliklar (organik suyuqliklarni ham) ning ko'plab guruhlari uchun qator hisoblash formulalari olingan. Ularning ayrimlari quyida keltiriladi.

Normal-parafin uglevodorodlar uchun (metandan normal-pentangacha) Guldberg-Gyui tenglamasidan foydalaniлади:

$$T_{KP} = 1,667 T_{SH}$$

bu yerda,  $T_{SH}$  - normal qaynash harorati,  $^{\circ}\text{K}$ .

Oddiy va quyiroq haroratlarda qaynaydigan moddalar uchun ( $T_{SH} \triangleq 235\text{ K}$ )

Meyssner-Redding formulasidan foydalaniлади:

$$T_{KP} = 1,77 T_{SH} - 2$$

Uglevodorodlar uchun  $T_{SH} = 235 - 600\text{ K}$  dan boshlab quyidagi tenglamadan foydalaniлади:  $T_{KP} = 1,0277 T_{SH} + 159$

Aromatik uglevodorodlar – benzol gomologlari uchun A.M.Mamedov formulasidan foydalaniлади:

$$T_{KP} = \frac{2,0996 - 0,95 * 10^{-12} T_{SH}}{P_{15}}$$

bu yerda,  $P_{15}$  - 15 C, kg/m bo'lgandagi suyuqlik zichligi.

Bundan tashqari A.M.Mamedov tomonidan n-parafin uglevodorodlari uchun quyidagi tenglama taklif etilgan:

$$\frac{T_{KP}}{T_{SH}} = 1,79 - \frac{M - 2}{175,88 - 1,17M}$$

Aromatik uglevodorodlar uchun:

$$\frac{T_{KP}}{T_{SH}} = 2,1 - 0,001 \frac{T_{SH}}{P_{15}^{15}}$$

bu yerda, M - molyar massa;  $P_{15}^{15}$  – suyuqlikning 15<sup>o</sup> C haroratdagи zichligi.

$T_1$  va  $T_2$ , haroratlarga mos kcluvchi  $r_x$  va  $r_2$  – organik suyuqliklarning aniq zichligi qiymatlarida keltirilgan Tkr-kritik qaynash haroratini L.P. Fillipov formulasini bilan topish mumkin:

$$T_{KP} = -1,95 P_{KP} \frac{P_1 - P_2}{T_1 - T_2}$$

bu yerda,

$$P_{KP} = 0,253 \left( P_1 - T_1 \frac{P_1 - P_2}{T_1 - T_2} \right)$$

Qutbli va qutbsiz uglevodorodlar uchun Nokaya formulasidan foydalaniladi:

$$\lg(1,8T_{KP}) = 1,2805 + 0,2985 \lg(P_4 * 10^{-3}) + 0,6216 \lg(1,8T_{SH}),$$

bu yerda,  $P_4$  - harorat  $4^{\circ}\text{C}$  bo'lgan suyuqlik zichligi ( $20^{\circ}\text{C}$  dagi zichlikdan foydalanish ruxsat etiladi),  $\text{kg}/\text{m}^3$ .

Noorganik moddalar, qutbsiz organik birikmalar, asoslangan aromatik birikmalar va efirlar uchun Chen-Xu formulasidan foydalaniladi:

$$T_{KP} = T_{SH} * 10^{1,59/\sqrt{M}}$$

Shu kabi qator tavsiyalar faqat uglevodorodlar uchun ishlab chiqilgan. Masalan,

$T_{SH} > 235K$  bo'lgan suyuqliklar uchun Meyssener-Redding usulidan foydalanish taklif etilan:

$$T_{KP} = 1,725T_{SH} - 5,7$$

$$T_{KP} = 1,12T_{SH} - 131,8$$

Getesa Todos formulasi taklif etilgan:

$$T_{KP} = 1,47_{SH}^{1,03}$$

$T_{kr}$ -uglevodorodlar uchun amal umumlashgani:

$$T_{KP} = A\sqrt{T_{SH} - B},$$

bu yerda,  $A$  va  $V$  – doimiy son bo'lib, suyuqlik tabiatiga bog'liq; parafin va olefin uglevodorodlari uchun  $290 \leq T_{SH} \leq 570K$ . atsetilen uglevodorodlari uchun  $A=40$  va  $V=230$ .

Alifatik uglevodorodlar uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

Stil va Todos tenglamasi:  $T_{KP} = B / (0,564C - 1,452)$

Forman va Todos tenglamasi:  $T_{KP} = 3000,3a / (bR)$

bu yerda,  $V$ ,  $S$  – to'yingan bug' bosimiga bog'liq konstantalar;  $a$ ,  $b$  – Van-der-Vaals tenglamasidagi doimiyliklar;  $R$  – universal gaz doimysi,  $Dj/(kmol*K)$ .

Nomal parafin uglevodorodlar uchun  $T_{kr}$  M-molyar massa orqali ifodalanishi mumkin:

$$T_{kp} = 101,83(\lg M)^2 + 101,34 \lg M - 343 \quad (1)$$

Aromatik va naften birikmalari uchun (oltingugurt va galogen bo'lmagan) quyidagi formula taklif etilgan:

$$T_{kp} = 1,14T_{sh} + 66 - m(0,383T_{sh} - 93)$$

Bu yerda,  $m$  – benzol halqasiga kirmagan uglerod atomlari sonining molekuladagi uning umumiy soniga nisbati.

Shuningdek, atom va strukturani tashkil etuvchilarni summasiga asoslangan usullar ham ishglab chiqilgan. Ular dastlabki ma'lumotlar sifatida normal qaynash haroratini va moddalarning brutto formulalaridan foydalanishni ko'zda tutadi. Ko'pincha, Guldberga, Ridelya va Li-dersen bog'liqliklaridan foydalaniladi.

Tarkibi noaniq bo'lgan aralashmalarning kritik haroratlarini hisoblash murakkablashadi, ular uchun taxminiy bog'liqliklardan foydalaniladi. Berilgan tarkibli aralashmaldan ko'pincha binar tarkiblilarini alohida ko'rsatilib, ular uchun kengaytirilgan formulalr bilan yanada aniqroq natijalar olish mumkin. Komponentlarning aniq bo'lgan kritik haroratlarida aralashmaning qaynashini, kritik haroratini additivlik qoidasiga asoslangan Keya bog'liqligidan hisoblash mumkin:

$$T_{kp} = \sum T_{kp} i y_i \quad (2)$$

bu yerda,  $y_i$  – aralashmadagi  $i$ - komponentning mol ulushi.

Tarkibi noaniq bo'lgan aralashmalar uchun (2) formuladan foydalanib bo'lmaydi. Bunday sharoitlarda  $T$  ni turli empirik bog'liqliklardan topiladi.

Uglevodorodlar va yoqilg'i fraksiyalar uchun (benzin, kerosin, gazoyl va hokazo) Iton va Porter formulasidan foydalanish mumkin:

$$T_{kp} = 355,1 + 0,97a - 0,00049a^2 \quad (3)$$

bu yerda,  $T_{kp}$  – psevdokritik harorat;

$a$  esa  $a = (1,8T_{50,neft} - 359)P_{15}^{15}$  – individual koeffitsient bo'lib, neft mahsulotlarining fizik xossalari xarakterlaydi;

$T_{50,neft}$  – GOST 2177-82, K. bo'yicha neft mahsulotining 50% hajmining qaynash harorati.

Bir komponentli suyuqliklardan aralashmalarga o'tgan sari qaynash haroratlari tushunchasi murakkablashdi.

Aralashmalar uchun yanada uchuvchan komponentlar qaynash haroratining oshishi xarakterlidir. Hisoblashlardagi bog'liqliklarda

uning quyidagi modifikatsiyalaridan foydalaniladi:  $T_{acc}$  -o'rtacha massaviy qaynash harorati; o'rtacha hajmiy qaynash harorati-  $T_v$ , o'rtacha molyar qaynash harorati-  $T_m$ , o'rtacha kub qaynash harorati-  $T_{kub}$ , o'rtachalarining o'rtacha qaynash harorati-  $T_{cp}$ ,  $UT_{50,men}$ .

Fermodinamika nuqtai nazaridan, fizik ma'nosi quyiroqda yoritib beriladigan kattalikni qaynash harorati deb qabul qilish osonroqdir. Motor yoqilg'ilarini uchun quyidagi formula taklif etiladi:

$$t_{KP} = 82 + 0,97Z - 0,00049Z^2 \quad (4)$$

Bu yerda,  $Z = (1,8t_{50,men} - 132)P_{15}^{15}; t_{50,men} - B^0C.$  ga teng.

Muhandislik amaliyotida neft fraksiyalarining kritik qaynash haroratini ( °C larda) hisoblashda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$t_{KP} = 1,05t_{50,men} + 160 \quad (5)$$

Huddi shunday soddalashtirilgan Parker va Makkining formulasi bilan neft fraksiyalarining  $t_{kr}$  qiymati hisoblanadi:

$$t_{KP} = 1,05t_{50,men} + 146 \quad (6)$$

Aralashmalarning kritik haroratlarini hisoblashni tahlil qilib shuni aytish mumkinki, ular uchun qo'llanishning chegarasi ko'rsatilmaydi va hisoblashlardagi minimal va maksimal xatoliklarning qiymatlari keltirilmaydi. Bundan tashqari, bulardan aralashmalarning o'rtacha qaynash haroratlarining qiymatlari bo'limgan vaqtida foydalanish mumkin emas. Qisqartirilgan dasturlar orqali tajribalarda fizik xossalari aniqlanadigan ishchi moddalarning soni ko'payishi natijasida aralashmalarning  $t_{kr}$  qiymatini boshqa argumentlar bilan hisoblash zaruriyati paydo bo'ladi. Ayrim aralashmalar uchun bunday argumentlar issiqlik fizikasining avtomatashtirilgan yagona sistemasiga (AVESTA) tushirilgan. Ularning yordamida har doim ham tarkibi noma'lum bo'lgan aralashmalarning o'rtacha qaynash haroratlarini o'ziga xos to'liq natijalariga ega bo'linmaydi. Aslida normal atmosfera bosimiga ega ( $r=0,101325$  MPa) bo'lgan va suyuqliklar bug' bilan muvozanatda bo'lgan holatlardan uchun  $T_m$  – harorat haqida ma'lumot keltiriladi.

$T_m$  – haroratdan TFX moddalarni hisoblash uchun foydalaniladi. Fizik ma'nosiga ko'ra u bir komponentli tizimlarning normal qaynash harorarti analogi hisoblanadi. Shunday qilib, alohida holatlarda noma'lum tarkibli aralashmalar uchun  $T_{p.m.}$  -ni o'z ichiga olgan dastlabki ma'lumotlarning minimal so'i bo'yicha xossalari ni

keltirilgan baholashi zarur bo‘ladi.

Neft mahsulotlari aralashmalarining nisbiy zinchligi  $\rho_4^{20} = 0,982 - 0,915$  va normal muvozanat harorati  $T_{p.h.} = 555 - 593$ K bo‘lganida qaynashning kritik haroratini molyar massasi bilan aniqlash mumkin. Neft mahsulotlarining keltirilgan o‘rtacha molekulyar massasi-M  $T_{p.h.}$  va  $\rho_4^{20}$  ning tajriba ma’lumotlari asosida hisoblanadi.

Eng kichik kvadratlar usuli asosida matematik hisoblashlardan so‘ng quyidagi bog‘liqlik olingan:

$$T_{kp} = 281,45 + 3,02118M - 4,20655 \cdot 10^{-3} M^2$$

Bu yerda, M-  $T_m$  –harorat bilan (7) tenglama yordamida hisoblanadi.

$$P_{15}^{15} = 0,915 - 0,982uM = 70 - 260 \quad (7)$$

Bu formula neft mahsulotlarining  $T_m$  ko‘rsatkich Trn= 555-593K bo‘lganda amal qiladi.

## 1.2. Molyar massani hisoblash

Aralashmalarning yanada aniqroq holatlarda molyar massalarini aniqlash uchun quyidagi: krioskopik, ebulioskopik va kam hollarda osmometrik analitik usullardan foydalaniлади. Ularni taxminan quyidagi usullar bilan hisoblash mumkin: tarkibi aniq aralashmalari uchun – additivlik qoidasidan foydalanib komponentlarning molyar massasi va mol ulushlari bo‘yicha; neft, neft fraksiyalari va neft mahsulotlari aralashmalari uchun B.M. Vioinov tenglamasidan foydalanilib hisoblash mumkin. B.M. Vioinov tenglamasi quyidagi ko‘rinishga ega: normal-parafin uglevodorodlari va parafin asosida bo‘lgan nefstning tor fraksiyalari uchun:

$$M = 52,63 - 0,246T_u + 0,001T_u^2 : (7).$$

neft fraksiyalari uchun ( A.S. Evgenson tomonidan quyidagi xarakterlovchi faktorni  $K = 1,216T_u^{0,33} / P_{15}^{15}$ ): kiritilib aniqlangan):

$$M = 7K - 21,5 + (0,76 - 0,04K)t_u + (0,0003K - 0,00245)t_u^2 \quad (8)$$

aromatik uglevodorodlar uchun:

$$M = 8,8 + 0,06T_u + 0,00055T_u^2 \quad (9)$$

benzin fraksiyalari uchun quyidagi formula tavsiya etilgan:

$$M = 0,4T_{50,mez} - 45 \quad (10)$$

neft mahsulotlari uchun Krega formulasidan ham foydalanish mumkin:

$$M = 44,29 P_{15}^{15} / (1,03 - P_{15}^{15}) \quad (11).$$

Biroq hisoblashlar ko'rsatadiki, Krega formulasi har doim ham joniqari natijalar beravermaydi. Tkip-Qaynash haroratlari va  $N_4^{20}$ -sindirish ko'rsatkichlari aniq bo'lganida quyidagini topamiz:

$$\lg M = 1,939436 + 0,0019764 T_{kun} + \lg(2,15 - n_D^{20}) \quad (12)$$

Tarkibi noaniq bo'lgan aralashmalar uchun quyidagi tenglama tavsija etiladi:

$$\begin{aligned} M = & -12272,6 + 9,486 p_{15}^{15} + (8,3741 - 5,9912 p_{15}^{15}) T_B + \\ & + [0,55556 - 0,42824 p_{15}^{15} - 0,11433 \\ & (p_{15}^{15})^2 * (1,3437 - \frac{400,43}{T_B}) 10^7 / T_B + 0,1715 - 0,1387 p_{15}^{15} + \\ & + 0,00387 (p_{15}^{15})^2] * (1,8828 - \frac{101,1}{T_B}) 10^{12} / T_B \end{aligned} \quad (13)$$

Bu yerda,  $T_B$  – normal atmosfera bosimida qaynashning o'rtacha harorat diapazoni sifatida olingan normal qaynash harorati. Taxminan M- qiymatini Kistyakovskiy tenglamasi bilan hisoblash mumkin:

$$K = 19,2 + 0,01M \quad (14)$$

$$K = 8,75 + 4,571 \lg T_M \quad (15)$$

bu yerda, K – Truton qoidasiga proporsionallik koeffitsienti. (14) va (15) tenglamalardan quyidagini hosil qilamiz:

$$M = \frac{8,75 + 4,571 \lg T_M - 19,2}{0,01} \quad (16)$$

### 1.3. Kritik bosimni aniqlash.

Kritik bosimni anqlaydigan formulalarning ko'p qismi bir komponentli aralashmalar uchun hosil qilingan. Tarkibi aniq bo'lgan aralashmalar uchun kritik bosimni quyidagi formula bilan aniqlash mumkin:

$$P_{kp} = \sum y_i p_{kpi}$$

Bu yerda,  $y_i, p_{kpi}$  – aralashmadagi i-chi komponentning mol ulushi va uning kritik bosimi.

Umuman olganda  $T_{kr}$ ning qiymatini hisoblashga nisbatan  $R_{kr}$  qiymatini hisoblashning formulasi juda kam bo'lib, dastlabki ma'lumotlarning minimal soniga ega bo'lgan keltirilgan formulalar

juda ham ozdir. Dastlabki ma'lumotlarning minimal soniga ega bo'lgan keltirilgan formulalardan quyidagi larni ajratib ko'rsatish mumkin: neft fraksiyalari uchun Lyuis tenglamasi ishlataladi:

$$P_{kp} = K * 10^5 T_{kp} / M \quad (17)$$

Bu yerda,  $R_{kr}$ - Pa hisobida;

K- fraksiyaning kimyoviy tarkibiga bog'liq ravishda yoki formulalar bilan aniqlanadigan koefitsient.

Uglevodorodlar uchun Gersogning keltirilgan (naften va aromatik uglevodorodlardan tashqari) formulasidan foydalanish mumkin:

$$P_{kp} = 21,75 * 10^2 T_{kp} / V_{kp} \quad (18)$$

Bu yerda,  $V_{kp}$  - kritik nuqtadagi moddaning mol hajmi,  $m^3 / mol$

normal-parafinlar uchun Tilicheev va Tatev tenglamasidan foydalaniladi:

$$P_{kp} = 10^6 (7,022 - 0,008 T_{kp}) \quad (19)$$

Quyidagi normal qaynash haroratlariga  $T_{st} = 236 - 600$  ega bo'lgan uglevodorodlar uchun (naften va aromatik uglevodorodlardan boshqa) Meyssner tenglamasi tavsiya etiladi:

$$P_{kp} = \frac{20,8 * 10^5 T_{kp}}{10^3 V_{kp} - 8} \quad (20)$$

Uglevodorodlar aralashmalari uchun esa quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$P_{kp} = 6895 (710 - 2,07 M) \quad (21)$$

$S_2-S_5$  -uglevodorodlar uchun Frost tenglamasidan qo'llanish maqsadga muvofiqdir:

$$P_{kp} = 10^5 [49,2 - (T_{kp} - 300) 0,95] \quad (22)$$

## 2. BUG'GAZLI UGLEVODORODLARNING ARALASHMALARINI VA GAZLARNING ENTALPIYALARINI HISOBBLASHNING O'ZIGA XOS BELGILARI.

**2.1. Uch xil haroratdagi gazning entalpiya qiymatlari asosida gazlarning turli haroratlardagi entalpiyalarini aniqlash formulalaridagi A, V, S-koeffitsientlarni hisoblash.**

Gazlarning uch xil haroratlardagi entalpiya qiymatlari A.A. Kuznetsov va boshqalarning «Расчеты процессов и аппаратов нефтеперерабатывающей промышленности» -М.: Химия, 1974 yil nashr etilgan kitobining 219, 266, 268 va boshqa betlarida keltirilgan.

**2.1.-jadval.**

**Gazlarning entalpiyaları.**

Gazlarning nomi	Haroratlar, K							
	1063	873	803	743	713	673	573	308
Entalpiya, kDj/kg								
N <sub>2</sub>	-	-	7700	6818	6374	-	-	-
SN <sub>4</sub>	-	-	1618	1383	1274	-	-	-
S <sub>2</sub> N <sub>6</sub>	-	-	1434	1223	1120	-	-	-
S <sub>2</sub> N <sub>4</sub>	2080	1452	-	-	-	-	-	57,4
S <sub>3</sub> N <sub>8</sub>	-	-	1405	1196	1098	-	-	-
S <sub>3</sub> N <sub>6</sub>	2092	1451	-	-	-	-	-	57,0
Butanlar	-	-	1400	1193	1095	-	-	-
Butilenlar	2370	1647	-	-	-	-	-	62
Pentanlar	-	-	1392	1186	1090	-	-	-
Pentenlar	2353	1368	-	-	-	-	-	62
H <sub>2</sub> S	-	1965	-	-	-	1447	1204	-
Suv bug'i (300 kPa)	-	-	-	-	3361	3278	3071	-

Gazlarning entalpiyalarini aniqlash uchun umumiyl formuladan foydalilanildi:

$$q_i = A_i + B_i \cdot T + C_i \cdot T^2$$

Bu yerda,  $q_i$  - i- komponentning entalpiyasi, kDj/kg;

T – entalpiya aniqlanayotgan harorat, grad.K;  $A_i, B_i, C_i$  - koeffitsientlar.

2.1.-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar asosida uchta noma'lum son uchun tenglamalar sistemasi tuziladi:

$$\left\{ \begin{array}{l} q1 = A + B \cdot T1 + C \cdot T1^2 \\ q2 = A + B \cdot T2 + C \cdot T2^2 \\ q3 = A + B \cdot T3 + C \cdot T3^2 \end{array} \right. \quad (1)$$

$$\left\{ \begin{array}{l} q1 = A + B \cdot T1 + C \cdot T1^2 \\ q2 = A + B \cdot T2 + C \cdot T2^2 \\ q3 = A + B \cdot T3 + C \cdot T3^2 \end{array} \right. \quad (2)$$

$$\left\{ \begin{array}{l} q1 = A + B \cdot T1 + C \cdot T1^2 \\ q2 = A + B \cdot T2 + C \cdot T2^2 \\ q3 = A + B \cdot T3 + C \cdot T3^2 \end{array} \right. \quad (3)$$

2- tenglamadan 3- tenglamani ayirib tashlab V-koeffitsientning S-koeffitsientga bog'liqligi topiladi. Ular quyidagiga teng deb olinadi:

$$T1 - T2 = dT1; \quad T1^2 - T2^2 = dT2;$$

$$\text{u holda, } B = \frac{q1 - q2 - C \cdot dT2}{dT1} \quad (4)$$

bu yerda,  $q1$  va  $q2$ - mos ravishda haroratlar  $T1$  va  $T2$  teng bo'lganidagi entalpiyalar,  $\text{kJ/kg}$ .

Keyin esa S koeffitsientni topish uchun (3)-tenglamadan (2)-tenglamani ayirib tashlanadi:

$$\left\{ \begin{array}{l} q2 = A + B \cdot T2 + C \cdot T2^2 \\ q3 = A + B \cdot T3 + C \cdot T3^2 \end{array} \right.$$

$$q2 - q3 = B \cdot T2 + C \cdot T2^2 - B \cdot T3 - C \cdot T3^2$$

Tenglamalardagi  $T2$  quyidagiga teng deb olinadi:  $T2 - T3 = dT3$ ;

$$T2^2 - T3^2 = dT4;$$

$$\text{U holda } q2 - q3 = B \cdot dT3 + C \cdot dT4;$$

bo'lib, bu formuladagi S qiymati quyidagiga teng bo'ladi:

$$C = \frac{q2 - q3 - B \cdot dT3}{dT4},$$

V-koeffitsientning qiymatini hisobga olgan holda 4-tenglama orqali quyidagiga ega bo'lamiz:

$$C = \frac{q2 - q3 - \left( \frac{q1 - q2 - C \cdot dT2}{dT1} \cdot dT3 \right) \cdot dT3}{dT4}$$

Yanada ratsional bo'lganida esa:

$$C \cdot dT4 \cdot dT1 = q2 \cdot dT1 - q3 \cdot dT1 - q1 \cdot dT3 + q2 \cdot dT3 + C \cdot dT2 \cdot dT3.$$

u holda S-koeffitsientga nisbatan quyidagiga ega bo'lamiz:

$$C \cdot (dT4 \cdot dT1 - dT2 \cdot dT3) = q2 \cdot (dT1 + dT3) - q3 \cdot dT1 - q1 \cdot dT3$$

Bu yerda quyidagicha ko'rnishda bo'ladi:

$$dT_4 \cdot dT_1 - dT_2 \cdot dT_3 = K;$$

$$dT_1 \cdot dT_3 = M.$$

umuman yakuniy holatda:

$$C = \frac{q_2 \cdot M - q_1 \cdot dT_3 - q_3 \cdot dT_1}{K}; \quad 4\text{-tenglama bo'yicha}$$

$$B = \frac{q_1 - q_2 - C \cdot dT_2}{dT_1}; \quad 3\text{- tenglama bo'yicha esa:}$$

$$A = q_3 - B \cdot T_3 - C \cdot T_3^2.$$

Neftni qayta ishlash jarayonlarida keng qo'llaniladigan amaliy misol sifatida katalitik riforming qurilmasining reaktorini gaz mahsulotlari aralashmalari komponentlarining entalpiyalarini hisoblashning tenglamalarini keltirib chiqarish keltirilgan.

## 2.2-jadval

**Gazlarning entalpiyalarini**  $q_r = A_r + B_r \cdot T + C_r \cdot T^2$  **tenglama**  
**yordamida aniqlash uchun koefitsientlarning qiymatlari**

Gazning nomi	Koefitsientlar qiymatlari		
	A	D	C
Vodorod	-4767,0	16,4200	-0,001100
Metan	351,2	-0,9504	0,003148
Etan	-837,5	2,0850	0,000926
Etilen	-404,8	1,1590	0,001100
Propan	44,21	-0,2385	0,002400
Propilen	-380,10	1,0490	0,001100
Butanlar	-155,00	0,3000	0,002000
Butilenlar	-446,00	1,2400	0,001300
Pentanlar	181,85	-0,5750	0,002600
Pentenlar	351,25	-2,0860	0,003700
Suv bug'i (300 kPa)	1942,73	1,8830	0,000200
Vodorod sulfid	17,28	1,7650	0,000530

Umumiyl holatlarda berilgan haroratlar uchun komponentlarning entalpiyalarini hisoblash uchun quyidagi tenglamadan foydalilanildi:

$$q_r = A + B \times T + C \times T^2.$$

Bu yerda,  $q_r$  - T-haroratlardagi komponentning entalpiysi,  $\text{kDj/kg}$ ;

T - harorat,  $^\circ\text{K}$ ;

A, V, S - koefitsientlar.

A, V, S-koefitsientlarni hisoblash uchun komponentning uchta turli haroratlardagi entalpiyalarini bilish kerak. Entalpiyaning uchta haroratlardagi:  $T_1 = 803^\circ\text{K}$ ,  $T_2 = 743^\circ\text{K}$  va  $T_3 = 713^\circ\text{K}$

### 2.3-jadval

Katalitik riforming reaktorining gaz mahsulotlari aralashmalari  
komponentlarining entalpiyalari

Komponentlar	Berilgan haroratlardagi entalpiyalar qiymatlari, kj/kg		
	$803^\circ\text{K}$	$743^\circ\text{K}$	$713^\circ\text{K}$
$\text{N}_2$	7700	6818	6374
$\text{SN}_4$	1618	1383	1274
$\text{S}_2\text{N}_6$	1434	1223	1120
$\text{S}_3\text{N}_8$	1405	1196	1098
$\text{S}_4\text{N}_{10}$	1400	1193	1095
$\text{S}_5\text{N}_{12}$	1392	1186	1090
Aromatik a	1713	1504	1408
Naftenlar	1704	1500	1402
Parafinlar	1703	1497	1399

Uchta noma'lum koefitsient bilan tenglamalar sistemasini tuzamiz:

$$q1 = A + B \times T_1 + C \times (T_1)^2 \quad (1)$$

$$q2 = A + B \times T_2 + C \times (T_2)^2 \quad (2)$$

$$q3 = A + B \cdot T_3 + C \times (T_3)^2 \quad (3)$$

2-tenglamadan 1- tenglamani ayirib tashlaymiz va V-koefitsientining S-koefitsienti bilan o'zaro bog'liqligini aniqlaymiz:

$$q1 - q2 = B \times (T_1 - T_2) + C \times [(T_1)^2 - (T_2)^2]$$

$$X = T_1 - T_2 = 803 - 743 = 60,$$

$$Y = (T_1)^2 - (T_2)^2 = 803^2 - 743^2 = 92760. \text{deb qabul qilamiz.}$$

u holda:

$$q1 - q2 = B \times X + C \times Y;$$

$$\text{va } B = \frac{q_1 - q_2 - C \times Y}{X}.$$

3- tenglamadan 2- tenglamani ayiramiz va olingan ayirmasi qiymatini V-koefitsientga qo'yib S-koefitsientning qiymatini hosil

qilamiz:

$$q_2 - q_3 = B \times (T_2 - T_3) + C[(T_2)^2 - (T_3)^2]$$

$$d = 743 - 713 = 30;$$

$$F = (T_2)^2 - (T_3)^2 = 743^2 - 713^2 = 43680 \text{ deb hisoblaymiz.}$$

u holda:  $q_2 - q_3 = B \times d + C \times F;$

$$C = \frac{q_2 - q_3 - \frac{(q_1 - q_2 - C \times Y)d}{X}}{F}$$

$$C = \frac{[q_2(X + d) - X \times q_3 - d \times q_1]}{(F \times X - Y \times d)}$$

V va S-qiyatlarni 3-tenglamaga qo'yib A-koeffitsientning qiymatini topamiz:  $A = q_3 - B \times 713 - C \times 713^2$

Hosil qilingan tenglamalar asosida A, V, S-koeffitsientlarni topish uchun "Enthalpy" dasturida EHM da Paskal tilida dastur tuzilgan (ilovada) bo'lib, buning yordamida katalitik riforming reaktorining gaz mahsulotlari aralashmalarining har bir komponentlarini A, V, S - koeffitsientlarining qiymatlarini hisoblash mumkin ("Enthalpy" dasturiga qarang).

Komponentlarning entalpiyalarini hisoblashning natijalari, kj/kg:

Vodorod uchun  $q_{H_2} = -5349 + 16,4 \times T - 0,00111 \times T^2;$

Metan uchun:  $q_{C_1} = 2001 - T + 0,00315 \times T^2;$

Etan uchun:  $q_{C_2} = -352 + 2,1 \times T + 0,00093 \times T^2;$

Propan uchun:  $q_{C_3} = 1306 - 0,2 \times T + 0,00241 \times T^2;$

Butanlar uchun:  $q_{C_4} = 913 + 0,3 \times T + 0,00204 \times T^2;$

Pantanlar uchun:  $q_{C_5} = 1541 - 0,6 \times T + 0,00259 \times T^2;$

Aromatika uchun:  $q_{AR} = 2444 - 1,4 \times T + 0,00315 \times T^2;$

Naftenlar uchun  $q_N = 634 + 1,1 \times T + 0,00148 \times T^2;$

Parafinlar uchun  $q_p = 1022 + 0,6 \times T + 0,00185 \times T^2;$

**2.2 Gidrokreking qurilmasi reaktorining gaz mahsulotlari aralashmali komponentlarning fizik-kimyoiy xossalari va yuqori bosimlardagi komponentlarning entalpiyalari xatoliklarini to'g'rilash**

Gidrokreking reaktorining gaz mahsulotlari komponentlarning

entalpiyalari past bosimlarda  $N_2$  va  $S_1-S_5$  lar uchun avvalgi katrivorming reaktori komponentlari uchun keltirilgan tenglama bilan aniqlanadi.

Vodorod sulfidi entalpiyasi past bosimlarda quyidagi tenglama bilan aniqlanadi:

$$q_{H_2S} = 3,4 + 0,1 \times T + 0,00021 \times T^2, \text{ кДж/кг},$$

bu yerda,  $T$  - harorat,  $^{\circ}\text{K}$ .

Bu tenglama  $H_2S$  entalpiyasining ma'lumotlari asosida hisoblab chiqarilgan.

Olingan fraksiyalarning va xom ashyoning past bosim sharoitida bug'larning entalpiyalari quyidagi tenglama byicha aniqlanadi:

$$q'' = (129,58 + 0,134 \times T + 0,00059 \times T^2)(4 - p_{15}^{15}) - 309, \text{ кДж/кг}$$

bu yerda,  $T$  — harorat,  $^{\circ}\text{K}$ .

Gidrokreking reaktorining gaz mahsulotlari aralashmasining komponentlari entalpiyalari uchun yuqori bosimlar uchun to'g'rilik kiritish kerak bo'lib, bu to'g'rilik past bosimlarda aniqlangan komponentlarning entalpiyalaridan ayirish natijasida olinadi.

Oshirilgan bosimlar uchun bug'larning entalpiyalariga to'g'rilik kiritish quyidagi tenglama bilan amalga oshiriladi:

$$\Delta q = -\frac{18,44 \times P_{pp} \times T}{T_{pp}^3 \times M}, \text{ кДж/кг}$$

bu yerda  $R_{pr}$  — keltirilgan bosim;

$T$  — bug'larning harorati,  $^{\circ}\text{K}$ ;

$T_{pr}$  — keltirilgan harorat;

$M$  — neft fraksiyasining molyar massasi.

$R_{pr}$  va  $T_{pr}$  - qiymatlari quyidagicha aniqlanadi:

$$P_{pp} = \frac{P}{P_{kp}}; \quad T_{pp} = \frac{T}{T_{kp}};$$

Bu yerda,  $R$  va  $T$  — reaktordagi mos ravishdagi bosim va haroratlar, kPa va  $^{\circ}\text{K}$ ;

$R_{kr}$  — va  $T_{kr}$  - mos ravishda kritik bosim va kritik haroratlar, kPa va  $^{\circ}\text{K}$ .

Uglevodorodlar va vodorod sulfidining kritik parametrlarini keltirilgan tenglamalar bo'yicha aniqlash mumkin,

$$T_{kp} = 355,1 + 0,97 \times A - 0,00049 \times A^2$$

$$^{\circ}K; \quad P_{kp} = 100 \times B \times \frac{T_{kp}}{M} \quad \kappa IIa;$$

$$A = (1,8 \times t_{50\%} + 132) P_{15}^{15};$$

$$B = 5,53 + 0,855 \frac{t_{70\%} - t_{10\%}}{60},$$

Bu yerda,  $M$  – fraksiyaning molyar massasi;  $t_{10\%}, t_{50\%}, t_{70\%}$  – fraksiyalarning hajmlari mos ravishda 10%, 50%, 70% bo‘lgandagi qaynash haroratlari,  $^{\circ}C$ ;  $P_{15}^{15}$  – nisbiy zichlik.

#### 2.4-jadval

Gidrokrekning reaktorining gaz mahsulotlari komponentlari fizik-kimyoviy xossalari va yuqori bosimlardagi entalpiyaning qiymatlari

Komponentlar	Kritik parametrlar		Mole kulyar mas sa, $M_i$	Nisbiy zichlik $P_{15}^{15}$	Fraktion tarkib, $^{\circ}S$			Entalpiyaga to‘g‘rilik kiritilishi, $\frac{kJ}{kg}$ $R=15000 \text{ kPa},$ $T=683^{\circ}\text{K}$
	$T_{kr},$ $^{\circ}\text{K}$	$r_{kr},$ kPa			$t_{10\%}$	$T_{50\%}$	$T_{70\%}$	
Vodorod	33,2	1280	2					-8,5
Uglerod suifid	337,6	9140	34					-98,3
Metan	190,5	4710	16					-54,5
Etan	305,4	4950	30					-116,4
Propan	370	4320	44					-88,3
Izo-butan	408	3700	58					-88,4
Izo-pentan	461	3380	72					-240
Xom ashyo bug‘lari (vakuum gazoyi)	807,4	1352	424	0,894	370	450	480	-550
N.k. $-82^{\circ}\text{S}$	505	3000	98	0,66	-	-	-	-260
$82-150^{\circ}\text{S}$	572	3450	101	0,724	90	116	130	-322
$150-250^{\circ}\text{S}$	660,5	2740	152	0,799	160	200	215	-412
$250-370^{\circ}\text{S}$	747,4	2040	242	0,821	260	310	335	-510
Og‘ir qoldiq, gazoyi	790	1890	314	0,844	270	380	415	-495

Bundan tashqari, kritik parametrlarni ushbu ishlanmaning «Kritik parametrlar va molyar massalarni hisoblash» bobida keltirilgan

tenglamalar bilan hisoblash mumkin.

Yuqorida keltirilgan tenglamalar va 2.4-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar asosida bug'larning yuqori bosimlardagi 15000 kPa va  $410^{\circ}\text{C}$  ( $683^{\circ}\text{K}$ ) haroratlardagi entalpiyalari qiymatlari aniqlangan.

Shuni aytish joizki, entalpiyaga bosim oshirilgan holat uchun to'g'rilik kiritilishidan albatta xom ashyo issiqlik almashtirgichlarini va gidrokreking jarayonida (ayniqsa yuqori bosimlarda) reaktordan avvalgi quvurli pechning issiqlik quvvatini hisoblashda foydalanimli kerakdir.

### **3. OG'IRLASHTIRILGAN XOM ASHYONING PIROLIZLANISH JARAYONINI HISOBBLASHNING O'ZIGA XOS AYRIM BELGILARI**

#### **3.1 Gidrotozalangan vakuum gazoylining (GVGO) pirolizlanish jarayoni reaksiysi issiqligini hisoblash**

Standart sharoitlarda reaksiya issiqligi ( $25^{\circ}\text{C}$ , 101 kPa) quyidagi tenglama bilan (Гуревич Н.Л. Технология переработки нефти и газа. Часть 1. — М.: Химия, 1972.-С.78. kitobiga qaralsin) hisoblanadi:

$$Q_p = \sum (Q_p^B)_{npo} - \sum (Q_p^B)_{nrx} \quad (1)$$

Bu yerda,  $Q_p$  - reaksiya issiqligi, kj/kg;

$(Q_p^B)_{nrx}$  - xom ashyoning dastlabki komponentlarining yuqori yonish issiqliklari, kDj/kg;

$(Q_p^B)_{npo}$  - olingan mahsulotning yuqori yonish issiqliklari, kDj/kg;

Individual uglevodorodlarning yonish issiqliklari ma'lumotnomalarda keltirilgan qiymatlarda keltirilgan.

3.1- jadval

Komponentlar zichliklari.

Komponent	Nisbiy zichlik	
	$20^{\circ}\text{S}$ va $\rho_4^{20}$ sharoitda	$15^{\circ}\text{S}$ va $\rho_5^{15}$ sharoitda
GVGO	0,8906	0,894
Pirobenzin	0,776	0,780
TJT	1,042	1,044

Komponentlarning yuqori yonish issiqliklari quyidagi tenglamalar bilan aniqlanadi:  $Q_p^H = (8100C + 30000H) \cdot 4,19$

$$H = \frac{26 - 15 \cdot P_{15}^{15}}{100}$$

Bu yerda,  $Q_p^H$  - Komponentlarning yuqori yonish issiqliklari, kj/kg; S, N - skomponentlarda mos ravishda uglerod va vodorodlarning miqdorlari, massa ulushida;  $P_{15}^{15}$  - komponentning nisbiy zichligi.

Komponentlar tarkibida oltingugurt, suv va kislorodlarning mavjudligi nol deb olinadi.

Piroлизланыш гароратида реаксиya issiqligi aniq bo'lgan tenglama bilan aniqlanadi:

$$Q_{pao} = H_H + Q_p + H_K \quad (2)$$

bu yerda,  $Q_{pao}$  - ishchi haroratdagи реаксиya issiqligi, kj/kg;

$Q_p$  - standart sharoitlардаги реаксиya issiqligi, kj/kg;

$N_p$ -pirolizlanishda ilonsimon (zmeevik) quvurchalarga kiritilishidagi haroratda GVGO ning entalpiyasi, kDj/kg, kiritish harorati 600°C deb qabul qilingan;

$N_k$ -zmeevikdan chiqishi haroratidagi piroлиз mahsulotlarining entalpiyasi, kDj/kg, zmeevikdan chiqish harorati 820°C deb qabul qilingan.

3.2-jadvali va 1-tenglamalar asosida GVGO ni piroлиз jarayonining issiqlik effekti standart sharoitlarda quyidagiga teng:

$$Q_p = 50706 - 44573 = 6133 \text{ кДж / кг}$$

Berilgan haroratlar uchun GVGO ning piroлизи jarayonini issiqligini aniqlash uchun komponentlarning entalpiyalarini hisobylashlari keltiriladi.

Komponentlarning hisoblab topilgan entalpiyalarini qiymatini 3.3-jadvalga kiritiladi.

Piroлизlashning zmeeviklariga GVGO 600°C haroratda kiritilmoqda deb olinadi.

### 3.2-jadval

GVGO ning va pirolizlanish mahsulotlarining yuqori yonish issiqliklari

( $Q_p^B$ ):

Komponentlar	$Q_p^B$ , kJ/kg	Xom ashyoga nisbatan unum, mass. ulushi, $X_i$	Yonish issiqligi ulushi, $Q_p^B \cdot x_i$ , kJ/kg
GVGO	44573	1,000	44573
Jami	-	-	44573
Vodorod	146022	0,0171	2497,0
Metan	55811	0,1478	8137,0
$\sum S_2(S_2N_4)$	50414	0,2800	14116,0
$\sum S_3(S_3N_6)$	49107	0,0778	3820,0
$\sum S_4(S_4N_{10})$	48487	0,0413	2002,0
Pirobenzin	47062	0,3050	14354,0
TJT	43425	0,1331	5780,0
Jami	-	1,000	50706

### 3.3- jadval

Pirolizlash zmeeviklarining issiqlik balansi.

Kirim	Ishchi harorati, 0 S	Entalpiya, kDj/kg		Jami kDj/kg
		600 0 S	25 0 S	
GVGO	600	1851	45,5	1806,0
Standart sharoitda piroliz jarayonining issiqlik effekti	-	-	-	6133,0
Jami				7939,0

3.3- jadval va 2-tenglama asosida standart sharoitladagi GVGO ning pirolizi jarayonining issiqlik effekti harorat 820°C da quyidagiga teng:

$$X = 7939 - (199 + 403 + 588 + 177 + 98 + 822 + 383)5269 \text{ кДж / кг}$$

Chiqim	Massalar chiqish, ulushi, $X_i$	Entalpiya, kJ/kg		Komponentlar ulushi, kDj/kg		Jami, kJ/kg
		Pri 820°C $q_i^{820}$	Pri 25°C $q_i^{25}$	Pri 820°C $q_i^{820} \cdot x_i$	Pri 25°C $q_i^{25} \cdot x_i$	
Vodorod	0,0171	11980	358,0	205	6,12	199
Metan	0,1458	2820	57,4	411	8,40	403
$\sum C_2(C_2H_4)$						
$\sum C_3(C_3H_8)$	0,2800	2139	41,0	599	11,00	588
$\sum C_4(C_4H_{10})$						
Pirobenzin	0,0778	2313	43,0	180	3,0	177
TJT	0,0413	2436	44	100	2,00	98
Ishchi	0,3050	2688	49	837	15,00	822
sharoitda reaksiya issiqligi	0,1331	2885	10	384	1,00	383
	-	-	-		-	X
Jami	1,0000					7939,0

### 3.2 Gidrotozalangan vakuum gazoylning (GVGO) reaksiyasi zmeevigida bo'lishi vaqtiga yuzaga qizdirilishining hisobi

Dastlabki ma'lumotlar:

Pechning GVGO bo'yicha ishlab chiqaruvchanligi, 12500 kg/ch  
Aralashtirish uchun suv bug'ining sarfi 10000 kg/s xom ashyo bilan

GVGOzichligi:

20°C da	0,8906
15°C da	0,8940

Bug'gazli aralashmaning harorati:

Zmeevikka kiritilishida	600°C
Zmeevikdan chiqishida	820°C

Reaksiyon zmeevikning qizdirilish yuzasi:

$$F = \frac{Q_p}{q_p},$$

Bu yerda,  $F$  - qizdirilayotgan sirt yuzasi,  $m^2$ ;

$Q_p$  - radiant issiqligi miqdori, kWt;

$q_p$  - qizdirilayotgan zmeevikning sirti yuzasining (ekranli quvurlari) o'rtacha issiqli bilan ta'minlanishi,  $\text{kVt}/\text{m}$ .

$q_p = 80\kappa BT / M^2$  teng deb olamiz. KTI (Kinetics Technology International) GKS pechi zmeeviki sirt yuzasi 120 m bo'lganida 9,6 MVt radiatsiya issiqligiga teng bo'ladi.

$$q_p = \frac{9600}{120} = 80\kappa BT / M^2.$$

$$Q_p = Q_R + Q_1,$$

Bu yerda,  $Q_R$  - piroliz reaksiyasiga issiqlikning sarfi,  $\text{kVt}$ ;

$Q_1$  - bug'gazli aralashmani  $t_{II}=600^\circ\text{C}$  dan (GVGO va suv bug'i)  $t_{II}=820^\circ\text{C}$  gacha (pirogaz va suv bug'i) qizirish uchun sarflangan issiqlik miqdori.

Avvalgi bo'limda aniqlangani kabi GVGO reaksiyasining  $q_R$ -issiqligi deb 5269  $\text{kDj}/\text{kg}$  GVGO deb olinadi.

$$Q_R = G \cdot q_R = 12500 \cdot 5269 = 65862500 \text{кДж} / \text{ч} = 18295 \kappa BT,$$

bu yerda,  $G$ —zmeevikka GVGO ning sarfi,  $\text{kg}/\text{ch}$ .

U holda  $Q_1$ - quyidagiga teng:

$$Q_1 = (G + Z) \cdot (q_{820} - q_{600}) = (12500 + 10000) \cdot (3290 - 2653) = \\ = 14220000 \text{кДж} / \text{ч} = 3889 \kappa BT$$

bu yerda,  $Z$ - suv bug'inining sarfi,  $\text{kg}/\text{ch}$ ;

$q_{820}$  — zmeevikdan chiquvchi pirogaz va suv bug'i aralashmasining entalpiyasi,  $\text{kJ}/\text{kg}$ ;

$q_{600}$  — GVGO va suv bug'i aralashmasining zmeevika kiritilishidagi entalpiyasi,  $\text{kJ}/\text{kg}$ ;

$q_{820}$  va  $q_{600}$  — lar 5.4-jadvaldan olingan.

Radiant kamerasiga o'tkazilishi uchun kerakli issiqlik miqdori:

$$Q_p = 18295 + 3889 = 22184 \kappa BT$$

Reaksiyon zmeevikning isitilish yuzasi (ekranli quvurlarini):

$$F = \frac{22184}{80} = 277 M^2$$

Hozirgi vaqtida etilenning unumini oshirish, koks hosil bo'lishini kamaytirish uchun isitish devorlarini va oqim bo'lish vaqtidagi

zmeevikning quvuridagi haroratni pasaytirish uchun ushbu oqim bo'lish vaqtini 0,3–0,4 sekunddan oshirilmaydi. Bunga esa zmeevikdagagi solishtirma sirtni ya'ni quvurning hajm birligi bo'yicha yuzasini oshirish bilan erishilib, bunda kuvurning kichik diametrli o'lchanligini ishlatishtalab qilinadi.

### 3.4 –jadval

Harorat 600°C va 820°C bo'lganida komponentlarning entalpiyaları

Komponent	t=600°C			t=820°C		
	Entalpiya $\frac{\text{кДж}}{\text{кг}}, q_i$	$x_i$ mass. ulushi	$q_i \cdot x_i$ $\frac{\text{кДж}}{\text{кг. смеси}}$	Entalpiya, $\frac{\text{кДж}}{\text{кг}}, q_i^x$	$x_i$ mass. ulushi	$q_i^x \cdot x_i$ $\frac{\text{кДж}}{\text{кг. смеси}}$
GVGO	1851	0,56	1036	-	-	-
Suv bugi	3687	0,44	1622	4156	0,44	1829
$H_2$	-	-	-	11978	0,0095	114
$CH_4$	-	-	-	2820	0,0815	230
$\sum C_2 (C_2H_4)$ (chiqish $C_2H_4$ IBFOga. 25,8%)	-	-	-	2139	0,1567	335
$\sum C_3 (C_3H_8)$ ( $C_3H_8 \leq 0,5\%$ )	-	-	-	2313	0,0435	100
$\sum C_4 (C_4H_{10})$	-	-	-	2436	0,0230	56
Pirobenzin	-	-	-	2688	0,1707	459
TJT	-	-	-	2885	0,0751	216
Jami		1,00	2658		1,00	3290
			$q_{\text{тот}}$			$q_{\text{тот}}$

Bunday sharoitda bug'gazli aralashmani tez va bir xilda qizdirilishiga erishiladi.

$$A = \frac{F_T}{V_T} = \frac{\pi \cdot d_H \cdot L}{\pi \cdot d_{BH}^2 \cdot L} = \frac{4 \cdot d_H}{d_{BH}^2},$$

4

Bu yerda, A — zmeevikning solishtirma sirt yuzasi, m /m ;

$F_T$  - quvurning sirt yuzasi, m<sup>2</sup>;

$V_T$  - quvurning hajmi, m<sup>3</sup>;

$L$  - quvur uzunligi, m.

Masalan,  $d_H = 57 \text{ mm}$  ( $d_{\text{шн}} = 44 \text{ mm}$ ) va

$d_H = 90 \text{ mm}$  ( $d_{\text{шн}} = 76 \text{ mm}$ ) bo'lgan quvur uchun solishtirma sirt yuzasi quyidagiga teng bo'ladi:

$$A_{44} = \frac{4 \cdot 57}{44^2} = 0,11 \frac{\text{m}^2}{\text{m}^3}$$

$$A_{44} = \frac{4 \cdot 90}{76^2} = 0,062 \frac{\text{m}^2}{\text{m}^3}$$

Ayni hisoblashda reaksiyon zmeevik uchun quvurning qizdirilish uzunligi 10,6 metr va o'lchami  $44 \times 6,5$  va  $76 \times 7$  mm bo'lgan quvurlar tanlanadi.

KTI firmasining OAO "Polimir" ning  $44 \times 6,5$  mm o'lchamli quvurli pechlaridagi reaksiyon zmeeviklarining 55% qismi qitzdiriladigan sirt yuzasini tashkil etadi.

Hisobdagi 277 m ga teng qizdiriladigan sirt yuzasini hosil qilish va quvurning 10,6 m uzunligini isitilishini ta'minlash uchun  $44 \times 6,5$  mm o'lchamli quvurlar qabul qilinadi va bulardan ibort zmeevikning qizdirilish sirt yuzasi  $65,5\%$  ni tashkil etadi, ya'ni,  $277 \cdot 0,655 = 182 \text{ m}^2$ .

U holda zmeevikning 4 ta oqimidagi  $44 \times 6,5$  mm li o'lchamli quvurlarining 32 tasidan kiritilishida qizdiriladigan quvurlarning soni quyidagiga tengdir:

$$n_1 = \frac{F_1}{3,14 \cdot d_H \cdot L_{\text{шн}} \cdot m} = \frac{182}{3,14 \cdot 0,057 \cdot 10,6 \cdot 32} = 3,$$

bu yerda,  $F_1$  -  $d_{\text{шн}}$  =  $0,057 \text{ mm}^2$  quvurning qizdirilayotgan sirt yuzasi,  $\text{m}^2$ ;

$d_{\text{шн}}$  - quvurning tashqi diametri, m;

$L_{\text{шн}}$  - quvurning qizdirilayotgan uzunligi, m;

$m$  - zmeevikning 4 ta oqimiga bug'gazli aralashmaning kiritilish soni.

$44 \times 6,5$  mm o'lchamli ikkita quvur Zmeevika bitta  $76 \times 7$  mm o'lchamli quvur bilan birlashtiriladi va oxirida bug'gazli aralashmaning 16 ta oqimini hosil qiladi. Bunday sharoitda 156 ta oqimning har biri uzunligi 10,6 m va o'lchami  $76 \times 7$  mm bo'lgan qizdiriluvchan quvurlardan quyidagi tenglama bilan topiladigan miqdorda ( $n_2$ ) tashkil

topgan bo'lishi kerak:

$$n_2 = \frac{F - F_1}{3,14 \cdot d_H \cdot L_{ob} \cdot m} = \frac{277 - 182}{3,14 \cdot 0,090 \cdot 10,6 \cdot 16} = 2,$$

Bu yerda:  $F$ - reaksiyon zmeevikning qizdiriladigan sirt yuzasi,  $m^2$ ;  
 $F_1$ -  $44 \times 6,5$  mm li quvurli reaksiyon zmeevikning qizdirilish sitrti yuzasi,  $m^2$ ;

$d_H$ - quvurning sirt diametri, m;

$L_{ob}$ -quvurning qizdiriladigan uzunligi, m;

$m$ - oqim soni.

Bug'gazli aralashmasining 4 ta oqimi uchun oraliq'ida uchtaлик quvurli zmeeviklarni ikki qatorlisi qabul qilinadi U holda, zmeevikning qizdirish uchun kerakli quvurning uzunligi 12,5 metrni va uning umumiyligi esa 13 metrni tashkil etadi. Quvurlarning qatorlari aro masofa esa 3 ta quvurning diametridek qilib olinadi. KTI firmasi ma'lumotlarga ko'ra isitiladigan kenglik o'lchami 2,6 metr deb olinadi. Reaksiyon zmeevika keluvchi bug'gazli aralashmaning kiritilish vaqtiga quyidagi tenglama bilan aniqlanadi:

$$h = \frac{L_p}{W_{cp}} * (3)$$

Bu yerda,  $h$ - reaksiyon zonada bo'lishi vaqt, sekund;

$L_p$ - bir oqimdagagi quvurning umumiyligi uzunligi, m;

$W_{cp}$ - reaksiyon zmeevikdagi aralashmaning o'rtacha tezligi, m/s;

$$L_p = 1,03 \cdot L_{ob} \cdot (n_1 + n_2) = 1,03 \cdot 10,6 \cdot (3 + 2) = 54,6 \text{ m}$$

Bu yerda,  $L_{ob}$ - quvurning isitilayotgan uzunligi, m;

$n_1$ - oqimdagagi ( $d_{VN}=0,44$  m) quvurlarning soni;

$n_2$ - oqimdagagi ( $d_{VN}=0,076$  m) quvurlarning soni;

bu yerda 1,03 - zmeevikni yuqori qismiga o'rnatilishi uchun va aralashmani ZIA ga chiqarish uchun uning uzunligining uzayishini hisobga oladigan koeffitsient.

Aralashmaning o'rtacha tezligi:

$$W_{cp} = \frac{W_H + W_K}{2},$$

Bu yerda,  $W_H$  - zmeevikka kiruvchi bug'gazli aralashmaning tezligi, m/s;

$W_K$  - zmeevikdan chiquvchi bug'gazli aralashmaning tezligi, m/s.

$$W_H = \frac{y}{P_H^{600}}, \quad (4)$$

$$W_H = \frac{y}{P_H^{820}}, \quad (5)$$

Bu yerda,  $y$  — zmeevikka berilayotgan bug'gazli aralashmaning massaviy uzatilish tezligi, kg/(m · s):

$\rho_H$  - zmeevikka kirayotgan bug'gazli aralashmaning zichligi, kg/m<sup>3</sup>.

$$y = \frac{4(G + z)}{3600 \cdot \pi \cdot d_{BH}^2 \cdot m} = \frac{4(12500 + 10000)}{3600 \cdot 3,14 \cdot 0,044^2 \cdot 32} = 135 \text{ кг/м}^3 \cdot \text{с}$$

Bu yerda,  $G$  - GVGO ning zmeevik orqali sarflanishi, kg/s:

$Z$  - zmeevik orqali suv bug'ining sarfi, kg/soat;

$d_{BH}$  - quvurning ichki diametri, m;

$m$  - quvurlar soni.

KTI - firmasining dalillariga ko'ra, benzinda massaviy tezlik ~100 kg/(m · s) ni tashkil etadi.

Og'ir xom ashyo uchun massaviy tezlik ko'pincha benzinnikidan 20-35% ga yuqoridir, ya'ni, hisoblangan kattaligi 135 kg/(m<sup>2</sup> · sek) bo'lib, tasiya etiladi.

Ma'lumotlarga asosan zmeevikka kiritilish bosimi 400 kPa va zmeevikdan chiqish bosimi 250 kPa deb qabul qilinadi.

Zmeevikka kiritishdagi bug'gazli aralashmasining zichligi:

$$P_H = \frac{M_{cv} \cdot 273 \cdot P}{22,4 \cdot (t_H + 273) \cdot 98,1} = \frac{38,5 \cdot 273 \cdot 400}{22,4 \cdot (600 + 273) \cdot 98,1} = 2,193 \text{ кг/м}^3, \text{ bo'lib},$$

bu yerda,  $M_{cv}$  - bug'gazli aralashmasining molyar massasi, kg/kmol;

$R$  - zmeevikka kiruvchi aralashmaning bosimi, kPa;

$t_H$  - zmeevikka kiruvchi aralashmaning harorati, °C.

GVGO molyar massasi MNPZ ma'lumotiga bo'yicha qabul qilingan (Krega formulasi quyi molyar massani beradi).

Aralashmaning molyar massasi 3.5-jadval ma'lumotlari va quyidagi

tenglama bilan aniqlanadi:

$$M_{\text{cu}} = \sum M_i \cdot X_i = 384 \cdot 0,056 + 18 \cdot 0,944 = 385 \frac{\text{kg}}{\text{kmol}},$$

Bu yerda,  $M_i$ —aralashmadagi i- komponentning molyar massasi kg/kmol;  $X_i$  -i- komponentning molyar ulushi.

### 3.5 —jadval

Bug'gazli aralashma komponentlarining molyar ulushi

Komponent lar	Sarfi, kg/soat	Molyar og'irligi kg/kmol, Mi	Soni kmol/soat	Molyar ulushi Xi
GVGO	12500	384	32,6	0,056
Suv bug'i	10000	18	555,6	0,944
Jami	22500	-	588,2	1,000

Zmeevikdan chiqishdagi bug'gazli aralashmasining zichligi:

$$P_K = \frac{M_{\text{cu}} \cdot 273 \cdot P_K}{22,4 \cdot (t_K + 273) \cdot 98,1} = \frac{19 \cdot 273 \cdot 250}{22,4 \cdot (820 + 273) \cdot 98,1} = 0,544 \frac{\text{kg}}{\text{M}^3},$$

Bu yerda,  $M_{\text{KSM}}$ —zmeevikdan chiquvchi bug'gazli aralashmasining molyar massasi, kg/kmol;

$P_K$  - zmeevikdan chiqish bosimi, kPa;

$t_K$  - bug'gazli aralashmaning zmeevikdan chiqish harorati, °C.

Bug'gazli aralashmasining molyar massasi 5.4-jadval ma'lumotlari asosida va quyidagi tenglama bilan aniqlanadi:

$$M_{\text{KSM}} = \frac{1}{\sum \frac{X_i}{M_i}} = \frac{1}{\frac{0,44}{18} + \frac{0,095}{2} + \frac{0,0815}{16} + \frac{0,1567}{28} + \frac{0,0435}{42} + \frac{0,023}{56} + \frac{0,1707}{95} + \frac{0,0751}{400}} = 19 \frac{\text{kg}}{\text{kmol}},$$

Bu yerda,  $X_i$ - Bug'gazli aralashmadagi i- komponentning massa ulushi;

$M_i$  - i- komponentning molyar massasi, kg/kmol.

Gazsimon mahsulotlar uchun molchr massalarni to'yinmagan uglevodorodlar bo'yicha qabul qilinadi.

Pirobenzinning molyar massasi ( $M_{\text{pi}}$ ) quyidagi tenglamadan aniqlanadi:

$$M_{HE} = -8,8 + 0,06 \cdot T + 0,00055 \cdot T^2 = -8,8 + 0,06(110 + 273) + 0,00055(110 + 273)^2 = 95,$$

Bu yerda,  $T$  – pirobenzinning o‘rtacha qaynash harorati,  $^{\circ}\text{K}$ .

Umumlashtirilgan adabiyotlardagi ma’lumotlar asosida pirolizlanishning smolasi molyar massasi 400 kg/kmol deb qabul qilingan.

(4) tenglamaga asosan bug‘gazli aralashmaning zmeevikka kiritilish tezligi quyidagiga teng:

$$W_H = \frac{135}{2,193} 61,5 \text{ M}/\text{c}$$

(5) tenglama bo‘yicha bug‘gazli aralashmaning zmeevikdan chiqishi tezligi quyidagiga teng:

$$W_K = \frac{135}{0,544} = 248 \text{ M}/\text{c}$$

O‘rtacha tezlik:

$$W_C = \frac{W_H + W_K}{2} = \frac{61,5 + 248}{2} = 155 \text{ M}/\text{c}$$

U holda, (3) tenglamaga muvofiq, reaksiyon zmeevikda bug‘gazli aralashmaning bo‘lishi vaqtini quyidagiga teng:

$$h = \frac{54,6 \text{ M}}{155 \text{ M}/\text{c}} = 0,35 \text{ soniyalar}$$

Olingen kattalik zamonaviy piroliz pechlari uchun qabul qilingan qiymatlardan oshmaydi.

#### **4. Millisekund (MSCC – UOP firmasi) katalitik krekinglash qurilmasining reaktori hisobi**

##### **4.1. Dastlabki ma’lumotlarni tayyorlash**

MSCC – qurilmasining loyihasi asosida MNQIZ uchun reaktorning quyidagi ishlab chiqaruvchanligi qabul qilinadi:

Xom ashyo bo‘yicha (GVGO ning mazut bilan aralashmasi) – 250000 kg/soat;

15  $^{\circ}\text{C}$  da xom ashyo zichligi –  $915 \text{ kg/m}^3$ .

Xom ashyoning molyar massasi –  $429 \text{ kg/mol}$ ;


Xom ashydagi oltингugurt miqdori – 0,2% mass.; harorat: –

Katalizator hududiga kirib keluvchi xom ashyo, –  $190^{\circ}\text{C}$ ;

Xom ashyoni sochib berish uchun suv bug'ning harorati  $190^{\circ}\text{C}$ ;  
 Kislotali suvni berishdan avval katalizator hududi,  $670^{\circ}\text{C}$ ;  
 Reaktor hududiga kirishdagi kislotali suv harorati,  $40^{\circ}\text{C}$ ;  
 Reaktor joylashgan hudud bosimi,  $300\text{ kPA}$ .

MSCC- qurilmasidagi reaktorning prinsipial sxemasi

#### 4.1. rasmda keltirilgan.



**4.1. Rasm. Reaktorda katalizatorni, xom ashyoni va reaksiyon hududining joylashish sxemasi.**

#### 4.2. Davriy-aylanma harakatlanuvchi katalizatorlar soni hisob-kitobi

Katalitik kreking qurilmasida katalizator quyidagi vazifani bajaradi:

- uglevodorodlarning kreking reaksiyasini tezlashtiradi;

- bug'lantirish uchun va mahsulotning bug'larini kerakli reaksiya haroratigacha kutarib berish uchun kerakli miqdorda issiqlikni reaktorga olib kiradi;

- kreking reaksiyasi borishi uchun kerakli issiqlikni hosil qiladi;

- reaktorni yuqorisida hosil bo'lgan koksni regeneratorga olib chiqadi.

Issiqlik manbai sifatida avval biz davriy aylanma harakatlanuvchi katalizator sonini hisoblab olamiz.

Reaktordagi borayotgan jarayonning o'rnini yanada chuqurroq tushunish uchun 1- rasmda ko'rsatilganidek uning ish prinsipial sxemasini tuzib olamiz.

### Katalizator stoyakining issiqlik balansi.

### 4.1- jadval

Oqimlar	Miqdor kg/soat	Issiqlik sig'imi, kJ/(kg·°C)	Harora t, °C	Bugla- nish harorati, kJ/kg	Entalp -iya, kJ/kg	Issiqlik miqdori, kVt
Issiqliknинг katalizator bilan kiritilishi	X	1,68	670	-	-	$(1,68 \times 6700) \cdot X - 0,3127$ 3600
Kislotali suv bilan kiritilishi	12500	4,19	40	-	-	$(12500 \times 4,19 \times 40) - 582$ 3600
Suyuq xom ashyo bilan kiruvchi	250000	-	190	-	-400	$(250000 \cdot 400) - 27778$ 3600
Xom ashyonи sochib beruvchi suv bug'i bilan kiruvchi issiqlik	2500	2,1	190	-	-	$(2500 \cdot 2,1 \cdot 190) - 277$ 3600
<b>JAMI</b>						<b>0,3127 · X + 28637</b>
Suv bug'inining bir qismi katalizator g'ovaklarida adsorbsiyalanadi va ular bilan biga regeneratorga chiqariladi. Katalizatorda adsorbsiyalangan suv bug'inining miqdorini katalizatorning massasiga nisbatan 0,25% deb olamiz, ya'ni  $1469000 \text{ kg/soat} \cdot 0,0025 = 3673 \text{ kg/soat}$ .

### **5.RIFORMING REAKTORINI IIISOBLASHNING BESHTA ASOSIY ELEMENTLARI**

Benzinni katalitik riforminglash qurilmasi reaktorlarini hisoblash uchun dastlabki ma'lumotlarni tayyorlash.

Benzin fraksiyalarini Pt-katalizatorlarida katalitik riforminglashni birinchi sanoat qurilmasini 60 yil avval ishga tushirilgan (1948 yil, AQSH. UOP-firmasining platforming qurilmasi).

Bu qurilmalar neftni qayta ishlash sanoatida katta ahamiyatga ega

bo'ldi, chunki uning yordamida nfetdan yuqori sifatli benzin, dizel va reaktiv yoqilg'ilarini kam sarflar bilan olish imkoniy paydo bo'lgan edi.

Katalitik riforming qurilmasi AT qurilmasi va yoqilg'ilarni tozalash qurilmasi bilan birga nestni qayta ishlash zavodlarining ajralmsas arkibiy qismlari bo'lib qoldi.

Shuni aytib o'tish joizki, katalitik riforming qurilmalari katalitik kreking va gidrokrekking jarayonlari rvojlanishini sekinlashtirgan edi. Bunday neftni qayta ishlash zavodlari (AT+gidrotozalash+kaatlitik riforming) neftni qayta ishlash chuqurligi kichik edi, lekin bu o'sha vaqtlar uchun iqtisodiy qulay edi, chunki butun mamlakatlarda neftni qazib olish surati oshishi va elektroenergiyaishlab chiqarishi oshgani uchun toshko'mirga ehtiyoj kamayib o'choqlar yoqilg'isi ulushi oshgan edi.

Masalan sobiq ittifoqda 50-60 yillar oxirida neftni qazib olish 100 mlndan 640 mln (t/yil) ga oshdi. Muhandislar amaliyotida yangi reaktorlarni hisoblashni bilsiz va uni ishlab chiqarishdagi muammolarni hal qilishni va ayniqsa agar siz rahbar bo'lsangiz – juda ham zarurdir.

Hisoblab olingen natijalar orqali reaktor ishini tahlil qilish va xulosalar qilish mumkin bo'lib, reaktorning ishini yaxshilash metodlarini topishga imkon yaratiladi.

### 5.1. Asosiy reaksiyalar

Katalitik riforming jarayonida platina-reniy katalizatorlar ishtirokida deyarli 100 xil turli reaksiyalar ketadi. Hisoblash uchun reaksiyaning to'rt turidan foydalilanildi:


- Naftenlarni aromatik uglevodorodlarga aylanishi;
- parafin uglevodorodlarini naftenlarga aylanishi;
- naftenlar gidrokrekini;
- parafinlar igdrokrekingi.

Boshqa ketuvchi reaksiyalar katalizatorning faolligiga kam ta'sir etgani uchun ularni hisobga olinmaydi. SHuni aytish kerakki, asosiy ketuvchi reaksiyalar ayni haroratlarda katalizator va vodorod ishtirokida ketib, bu (ikala komponentlar) reaksiyon muxitga vodorodni berilishi katalizator faolligini saqlash maqsadida amalga oshiriladi.

Xom ashyo – vodorod aralashmasining molyar nisbati ( $N/SN$ ) ( $\mu_{CH}$ ) bu reaksiyalar uchun 4 (4-7) bo'lib, reaksiyon aralashmada vodorodni parsial bosimi to'yinmagan uglevodorodlarni hosil

bo'lishini oldini olish maqsadida 50% dan oshmaydi.

Bunga esa VSG ni sirkulyatsiyasi bilan erishiladi. CHunki uning natijasida har bir uglevodorod molekulasi 4 va undan ortiq N<sub>2</sub> – molekulasi bilan qurshalgan bo'ladi.



Bizning hisobimiz uchun  $\frac{H}{CH}$  nisbat = 5,5 ga teng.  $\frac{H}{CH} = 5,5$

Xom ashoning nisbiy zichligi  $P_4^{20} = 0,736$  (MNPZ) da deb olinadi, uning mol massasi, M= 112 kg/kmol. 1 kmol xom ashysiga 100% N<sub>2</sub> sarfi:  $5,5 \cdot 22,4 = 123_{HM^3} H_2$

1 kmol xom ashyo hajmi:  $\frac{M_C}{P_4^{20}} = \frac{112kg}{736 \frac{kg}{m^3}} = 0,152 m^3$ , ga teng.

Bu yerda,  $M_C$  - xom ashoning molyar massasi.

$1 m^3$  xom ashyo uchun 100% N<sub>2</sub> sarfi:

$$\frac{123_{HM^3} H_2}{0,152 m^3 \text{xom.ash}} = 810,5_{m^3 \text{xom.ash}} H_2 \text{ ga teng.}$$

Hajmiy ulushi 80% ga teng  $H_2$  tarkibli VSG deb, sirkulyatsion VSG sarfi topiladi:  $\frac{810,5}{0,8} = 1013_{m^3 \text{xom.ash}} H_2$

Reaktor hisobi uchun VSG sarfini quyidagicha deb olamiz:

$$n = 1000 \frac{VSG}{m^3 \text{xom.ash}}$$

## 5.2. Asosiy reaksiyalarning tezlik konstantalari

Arrenius tenglamasi yordamida grafiklarni algebraik tenglamaga aylantiramiz:  $K = K_0 \cdot \exp\left(-\frac{E}{RT}\right)$  (1)

Bu yerda, E – aktivlanish energiyasi, kDj/kmol;

R — universal gaz doimiysi, R = 8,31 kDj / kmol · K;

T - harorat, grad. K;

K – reaksiyaning tezlik konstantasi.

Qo'llanilayotgan jadvalga qarab:

$$K = \frac{kmol}{soat \cdot Pa \cdot kg \cdot katalizator} \quad yoki \quad K = \frac{kmol}{soat \cdot kPa^2 \cdot kg \cdot katalizator}$$

$K_0$  — reaksiya tezlik konstantasi o'chamini bildiruvchi koefitsient, (K).

(1) tenglamada ikkita noma'lum  $K_0$  va E o'zgaruvchi bor. Ularni topish uchun ikkita tenglama tuziladi va ularga harakat va reaksiya tezlik konstantalarini grafik asosida topib, qiymatlari qo'yiladi.

Tenglamalar amaliy mashg'ulotlarda tuziladi, ularni uyda ehib kelinadi.

### 5.3. Naftenlarni degidrirlash – naften uglevodorodlarini aromatik uglevodorodlarga aylantirishning reaksiya tezligi konstantasini aniqlashning tenglamasini tuzish.

Quyidagilarni topib olamiz:

Harorat,K	$Konstanta.tezligi \frac{kmol}{s \cdot kPa \cdot kg \cdot katalizator}$
803(530°C)	$314,5 \cdot 10^{-6}$
793 (520°C)	$290,5 \cdot 10^{-6}$

U holda;

$$\begin{cases} 314,5 \cdot 10^{-6} = K_0 \cdot \exp\left(-\frac{E}{8,31 \cdot 803}\right) \\ 290,5 \cdot 10^{-6} = K_0 \cdot \exp\left(-\frac{E}{8,31 \cdot 793}\right) \end{cases}$$

yoki,

$$\begin{cases} 314,5 \cdot 10^{-6} = K_0 \cdot \exp\left(-\frac{E}{6673}\right) \\ 290,5 \cdot 10^{-6} = K_0 \cdot \exp\left(-\frac{E}{6590}\right) \end{cases}$$

Bundan  $K_0$  qiymati quyidagicha topiladi:

$$K_0 = \frac{314,5 \cdot 10^{-6}}{\exp\left(-\frac{E}{6673}\right)}$$

Ikkinci tenglamaga  $K_0$  qiymati qo'yiladi:

$$290,5 \cdot 10^{-6} = \frac{314,5 \cdot 10^{-6} \cdot \exp\left(-\frac{E}{6590}\right)}{\exp\left(-\frac{E}{6673}\right)}$$

Tenglamani logarifmlaymiz:

$$\ln 290,5 - \ln 314,5 = \frac{E}{6673} - \frac{E}{6590}$$

$$6673 \cdot 6590 \cdot (5,75) = 6590 \cdot E - 6673 \cdot E = -83E$$

$$3,517915 = 83E$$

$$E = 42384 \frac{kDj}{kmol}$$

$$va E/R = \frac{42384}{8,31} = 5100$$

$K_0$ - qiymatini topish uchun E qiymatini birinchi tenglamaga qo'yamiz:  $314,5 \cdot 10^{-6} = K_0 \cdot \exp\left(-\frac{42384,5}{6673}\right) = K_0 \cdot \exp(-6,35)$

$$K_0 = \frac{314,5 \cdot 10^{-6}}{\exp(-6,35)} = \frac{314,5 \cdot 10^{-6}}{0,001747} = 180048 \cdot 10^{-6} = 180 \cdot 10^{-3}$$

Shunday qilib, naftenlarni aromatik birikmalargacha o'zgartirishning reaksiyasi tezlik konstantasini aniqlaymiz:

$$KI = 180048 \cdot 10^{-6} \cdot \exp\left(-\frac{5100}{T}\right) \text{ kmol} / \text{s} \cdot \text{kPa} \cdot \text{kg} \cdot \text{kat}$$

Tenglamani tekshiramiz: KI-ga teng bo'lganida harorat 793 K ga teng bo'lsin

$$KI = 180 \cdot 10^{-3} \cdot \exp\left(-\frac{5100}{793}\right) = 180 \cdot 10^{-3} \cdot \exp(-6,43) = 180 \cdot 10 \cdot 10^{-3} \cdot 0,001612 =$$

$$= 0,2902 \cdot 10^{-3} = 290 \cdot 10^{-6}$$

Ekanligini hisoblab topildi.

3.13-ramdag'i grafikdan  $KI = 290,5 \cdot 10^{-6}$ , ga teng qiymatli ekanligi ma'lum bo'lgani uchun tenglamani KI qiymatini hisoblab topish uchun qo'llasa bo'ladi.

#### 5.4. Parafin uglevodorodlarini naftenlarga (o'zgartirish) aylantirishni reaksiya tezligi konstantasini aniqlash tenglamasini keltirib chiqarish

Kuznetsova A.A. kitobidan (254-betdag'i 3.14-rasm hamda 260-bet):

Harorat,K	Konstanta...reaksiya.tezligi...P --> N kmol / s · kPa <sup>2</sup> · kg · katalizator
803(530°C)	$2,398 \cdot 10^{-9}$
793(520°C)	$2,2 \cdot 10^{-9}$

Tenglamalar sitemasi tuziladi:

$$\begin{cases} 2,2 \cdot 10^{-9} = K_0 \cdot \exp\left(-\frac{E}{8,31 \cdot 793}\right) = K_0 \cdot \exp\left(-\frac{E}{6590}\right) \\ 2,398 \cdot 10^{-9} = K_0 \cdot \exp\left(-\frac{E}{8,31 \cdot 803}\right) = K_0 \cdot \left(-\frac{E}{6673}\right) \end{cases}$$

Bundan  $K_0$  qiymati:

$$K_0 = \frac{2,2 \cdot 10^{-9}}{\exp\left(-\frac{E}{6590}\right)}$$

$K_0$ -qiymatini ikkinchi tenglamaga qo'yamiz:

$$2,398 \cdot 10^{-9} = \frac{2,2 \cdot 10^{-9}}{\exp\left(-\frac{E}{6590}\right)} \cdot \exp\left(-\frac{E}{6673}\right)$$

Logarifmlaymiz:  $\ln 2,398 = \ln 2,2 + \frac{E}{6590} - \frac{E}{6673}$

Shundan so'ng, ularning yig'indisini topamiz:

$$6590 \cdot 6673 \cdot (\ln 2,398 - \ln 2,2) = 6673E - 6590E$$

$$43973936 \cdot (0,8746 - 0,7884) = 83E$$

$$E = \frac{4790553}{83} = 45669 \text{ kDj/kmol}$$

Shuningdek,  $\frac{E}{R} = \frac{45669}{8,31} = 5496$

U holda:  $K_0 = \frac{2,2 \cdot 10^{-9}}{\exp\left(-\frac{45669}{6590}\right)} = \frac{2,2 \cdot 10^{-9}}{\exp(-6,93)} = \frac{2,2 \cdot 10^{-9}}{0,000978} = 2,25 \cdot 10^{-6}$

Parafin uglevodorodlarini naften uglevodoodlariga o'zgarish reaksiyalarining tezlik konstantasini hisobla uchun oxirgi tenglamani hosil qilib,  $K_2$  topiladi:

$$\begin{aligned} K_2 &= 2,25 \cdot 10^{-6} \cdot \exp\left(-\frac{45669}{RT}\right) = \\ &= 2,25 \cdot 10^{-6} \cdot \exp\left(-\frac{5496}{T}\right) \text{ kmol} / s \cdot kPa^2 \cdot kg \cdot kat \end{aligned}$$

$K_2$  qiymatini  $T = 803^{\circ}$  K harorat uchun tekshiramiz:

$$\begin{aligned} K_2 &= 2,25 \cdot 10^{-6} \cdot \exp\left(-\frac{5496}{803}\right) = 2,25 \cdot 10^{-6} \cdot \exp(-6,844) = \\ &= 2,25 \cdot 10^{-6} \cdot 0,001065 = 2,398 \cdot 10^{-9} \text{ kmol} / s \cdot kPa^2 \cdot kg \cdot kat \end{aligned}$$

$K_2 = 2,398 \cdot 10^{-9}$ , qiymatining hosil bo'lishi tenglamaning to'g'ri ekanligini ko'rsatadi.

Ikki xil harorat uchun Kuznetsov A.A va boshq.(«Raschet protsessov i apparatov neftepererabatyayushchey promishlennosti» 1974 y. kitobining 257 bet 3.15-rasm, 261 va 276 betlar) kitobidan konstantalarni topamiz va ikki noaniqlik uchun tenglamalar sistemasini

tuzamiz:

Harorat,K	Gidrokreking.reaksiya tezligi.kons tan kmol/ $s \cdot kg \cdot katalizator$
793(520°C)	0,0714
803(530°C)	0,1000

Tenglamalar sistemasini tuzamiz:

$$\begin{aligned} 0,0714 &= K_0 \cdot \exp\left(-\frac{E}{RT}\right) = K_0 \cdot \exp\left(-\frac{E}{8,31 \cdot 793}\right) = K_0 \cdot \exp\left(-\frac{E}{6590}\right) \\ 0,1 &= K_0 \cdot \exp\left(-\frac{E}{RT}\right) = K_0 \cdot \exp\left(-\frac{E}{8,31 \cdot 803}\right) = K_0 \cdot \exp\left(-\frac{E}{6673}\right) \end{aligned}$$

Bu yerdan  $K_0$  qiymatini topamiz:  $K_0 = \frac{0,1}{\exp\left(-\frac{E}{6673}\right)}$

$K_0$  – qiymatini ikkinchi tenglamaga qo‘yamiz:

$$0,0714 = \frac{0,1 \cdot \exp\left(-\frac{E}{6590}\right)}{\exp\left(-\frac{E}{6673}\right)}$$

Logarifmlaymiz:

$$\ln 0,0714 = \ln 0,1 + \frac{E}{6673} - \frac{E}{6590}$$

Shundan so‘ng:

$$6673 \cdot 6590 \cdot (\ln 0,0714 - \ln 0,1) = 6590E - 6673E$$

$$43973936 \cdot (-2,639 + 2,302) = -83E$$

$$E = 178544 \frac{kDj}{kmol}$$

$$E/R = \frac{178544}{8,3} = 21485$$

U holda

$$K_0 = \frac{0,1}{\exp\left(-\frac{178544}{6673}\right)} = \frac{0,1}{\exp(-26,75)} = \frac{0,1}{2,41 \cdot 10^{-12}} 4,17 \cdot 10^{10} \text{ kmol/s} \cdot \text{kg} \cdot \text{katal}$$

naftenlar va parafinlarni gidrokrekinglash reaksiyasining tezlik konstantasini hisoblash tenglamasi quyidagicha bo'ladi:

$$K_3 = 4,17 \cdot 10^{10} \cdot \exp\left(-\frac{21485}{T}\right) \text{ kmol/s} \cdot \text{kg} \cdot \text{katalizator}$$

$T = 803$  K haroratda KZ tekshiriladi:

$$K_3 = 4,17 \cdot 10^{10} \cdot \exp\left(-\frac{21485}{803}\right) = 4,17 \cdot 10^{10} \cdot \exp(-26,75) = \\ = 4,17 \cdot 10^{10} \cdot 2,14 \cdot 10^{-12} = 0,1$$

Buni 3.15-rasmdan ham aniqlangan edi.

### 5.5. Katriforming qurilmasi uchun xom ashyo

Xom ashyoning fizik-kimyoviy xossasi Muborak neftni qayta ishlash zavodi ma'lumotlari asosida olamiz (5.2-jadvalga qarang):

Xom ashyo zichligi -  $P_4^{20} = 0,736$

Uglevodorodlar miqdoriy tarkibi, % mass.

Aromatik uglevodorodlar - 8,7

naften uglevodorodlar - 31,0

parafin uglevodorodlar - 60,3

5.1-jadval

Xom ashyoning fraksiyaviy tarkibi.

Xaydalish harorati, K ( $^{\circ}$ S)

И.К	10%	50%	90%	К.К
357(84)	372(96)	392(119)	428(155)	450(177)

Ushbu metodikaga asosan xom ashyo uch xil uglevodorod bilan shartli keltiriladi (P,N,A). bu uglevodorodlarni o'rtacha uglerod sonini hisobga olgan holda uglevodorodlarning kimyoviy tuzilishi va xom ashyoning kimyoviy tarkibi bilan molyar massasi asosida aniqlanadi. Uglevodorodning kimyoviy formulasi aniqlanishga asos bo'lgan uglerod sonini hisoblashda kubsimon tenglamalar hosil bo'ladi. Biz uglerod sonini hisoblashni EXM dasturining Paskal tilini taklif etamiz.

## 5.2- jadval

MNQIZ ning katriforming qurilmasining xom ashyo va mahsulotlarining sifati ko'rsatkichlari.

Ko'rsatkichlar	Oddiy usulda xaydalgan benzin, 62-180 °C	Qarorli gidrogenizat	Qarorli katalizat
Zichlik, $\rho_4^{20}$ .	0,736 – 0,742	0,739 – 0,744	0,775 – 0,789
Fraksiyaviy tarkiblarning boshlang'ich qaynash harorati, °S: 10% 50% 90%	79-86 93- 100 115 – 122 152 – 162	80 – 89 96 – 101 113 – 124 131 – 160	40- 47 62 – 74 113 – 121 165 – 169
Oxirgi qaynash harorati: Unum, % hajmiy:	173 – 180 98	174 – 180 98	200 – 210 98
Kimyoiyi tarkibi, % mass. Aromatik uglevodorolar: Naftenlar: Parfinlar: To'yinmagan uglevodorodlar:	7,4 – 9,2 33,6 – 38,2 51,3 – 58,7 0,2 – 0,25	7,8 – 10,1 25,4 – 37,0 55 – 66,5 0,06 – 0,1	60,4 – 66,0 2,9 – 6,0 25,4 – 33,5 1,6 – 2,6
Oltingugurt miqdori, rrm- Suv mikdori, rmm- Xlorning miqdori, rmm. Umumiy – Noorganik biirkmali- Organik birikmali	220 – 380 11 - 65 40 – 90 28 – 79 12 - 30	0,1 – 0,33 9,3 - 22 3,2 – 5,3 0,4 – 0,9 2,9 – 4,6	- - 6,3 – 7,2 0,5 – 1,6 5,4 – 6,3
Oktan soni MOCH IOCH	- -	-	85,5 – 88,4 95,4 – 98,7

Ma'lumki, katalitik riforming qurilmasi xom ashyosida uglerod soni  $S_6 – S_{11}$  bo'lgan uglevodorodlar ishtirok etishi mumkin. Bu esa siklik jarayonni Until shartida tamomlashni qo'llash bilan Repeat qaytar operatoridan foydalanish bilan tashkil etishga imkon beradi. Siklni

tamomlash sharti shunda aniq bo'ladiki, bunda aniq uglerod sonida, masalan, 0,01 bo'lganida hisoblanayotgan molyar massa qymati xom ashyo molyar massasi qiyomatiga teng yoki katta bo'ladi:

[Mm hisoblangan  $\geq$  Mm xom ashyo] Bu dastur Paskal tilida (Cnombr) ilovasida keltirilgan dasturga yuqoridagi qiyamatlar kiritilib, quyidagi hisoblash natijalari olinadi:

Xom ashyoning molyar massasi:  $MS = 111,8 \text{ kg/kmol}$ ;

Xom ashydagi aromatikaning molyar massasi:  $MA = 105,4 \text{ kg/kmol}$ ;

Xom ashydagi naftenlarning molyar massasi:  $MN = 111,4 \text{ kg/kmol}$ ;

Xom ashydagi parafinlarning molyar massasi:  $MR = 113,4 \text{ kg/kmol}$ ;

Xom ashyoning uglerod soni:  $S = 7,96$ .

Xom ashyo komponentlarining molyar ulushini hisoblaymiz.

### 5.3 —jadval

#### Xom ashyo komponentlarining molyar ulushi

Komponentlar	Molyar massa, Mi	Xom ashyo tarkibi Massaviy ulush $Y_i$	Mol ulushi $y_M = Y_i \frac{MC}{M}$	Komponent miqdori, kmol/soat, Ni
Aromatik uglevodorolar:	105,4	0,087	0,092	NA= 98,7
Naftenlar:	111,4	0,310	0,311	NN=333,3
Parfinlar:	113,4	0,603	0,597	NP= 640,6
jami	-	1,000	1,000	1073

Qurilmaning ishlab chiqaruvchanligini – 120 t/sota (GC) yoki

$$\frac{120000}{736} = 165 \frac{\text{m}^3}{\text{s}} \left( \frac{\text{VC}}{\text{s}} \right), \text{ deb olamiz.}$$

Bu degani, 7 mln. tonna neftni/yiliga qayta ishlaganda  $\approx 1 \text{ mln. tonna/yil}$  mahsulot hosil bo'ladi deganidir.

Bu  $\sim 1 \text{ mln. t/yil}$  'QAYTA ishlanganda 7 mln. t neft/yil. Xom ashyoning miqdori, kmol/soat (3.2-jadvalga qarang):

$$NC = \frac{120000 \frac{\text{kg}}{\text{s}}}{111,8 \frac{\text{kg}}{\text{kmol}}} = 1073 \frac{\text{kmol}}{\text{s}}$$

VSG – sarfi:

$$VH = \frac{G_C \cdot n}{P_C} = \frac{120000 \text{ kg/s} \cdot 1000 \text{ hm}^3 / \text{m}^3 \text{ xom..ashyo}}{736 \text{ kg/m}^3} = 163000 \text{ hm}^3 / \text{s}$$

$$MG = \frac{163000 \text{ hm}^3 / \text{s}}{22,4 \text{ hm}^3 / \text{kmol}} = 7276 \text{ kmol/s}$$

Yoki:

$G_C, n, \rho_S$  – avval keltirilgan.

Sirkulyatsion VSG tarkibi MNQIZ ma'lumotlari bo'yicha qabul qilinadi.

VSG komponentlari miqdorining hisobi 5.4-jadvalda keltirilgan:

5.4-jadval

VSG komponentlari tarkibi va miqdori.

Komponentlar	Molyar massa, $M_i$	VSG tarkibidagi komponent miqdori, mol ulushida, $y_i$	$M_i, y_i$	Komponent miqdori, $NK_i = MG \cdot y_i$
$H_2$	2	0,800	1,6	$NH = 5820,9$
$CH_4$	16	0,070	1,12	$Cl = 509,4$
$C_2H_6$	30	0,060	1,80	$C2 = 436,8$
$C_3H_8$	44	0,045	1,98	$C3 = 327,5$
$C_4H_{10}$	58	0,019	1,102	$C4 = 137,6$
$C_5H_{12}$	72	0,006	0,432	$C5 = 43,8$
Сумма	-	1,000	$7,03 MB \approx 7 \text{ kg/kmol}$	$7276 \text{ kmol/s}$

Sirkulyatsion gazdagagi parafin uglevodorodlari tarkibi va miqdori:

$$NPC = 7276 - 5820,9(H_2) = 1456 \text{ kmol/s}$$

Aromatik uglevodorodlar unumi xom ashyo aralashmasini komponentlarning parsial bosimlariga bog'liq. MNQIZ ma'lumotlariga ko'ra, gaz xom ashyosi aralashmasining umumiy chiqish bosimi q'yidagicha deb olamiz:

Birinchi reaktorga – 1800 kPa; ( $\pi$ )

Ikkinci reaktordan – 1700 kPa;

Uchinchi reaktorga – 1600 kPa.

Birinchi reaktorga gaz xom ashyo aralashmasining (GSS) komponentlarini parsial bosimini hisoblari 5.5 –jadvalda keltirilgan.

### 5.5- jadval

Birinchi reaktorga kiruvchi gaz-xom ashyo aralashmasi (GSS) komponentlarining parsial bosimi:

Komponent	Modda miqdori, kmol/soat,	Komponent tarkibi,	Parsial bosim, kPa,
Aromatik uglevodorodlar: (NA)	98,7	0,0118	21,24
Naften uglevodorodlari: (NN)	333,7	0,0400	72,00
Xom ashyo parafinlari: (NP)	640,6	0,0767	138,06
N <sub>2</sub> (RN <sub>2</sub> )	5820,9	0,6971	1254,78
VSG parafinlari (NPC)	1456,0	0,1744	(69,7%) 313,92
Jami	8350	1,000	1800 kPa

Xom ashyodagi vodorod/uglevodorod (N/SN) molar nisbati quyidagiga

$$5,42 = \frac{5820,9 \text{ kmol/s}}{1073 \text{ kmol/s}}$$

teng:

bo'lib, jarayon uchun yetarli hisoblash mumkin.

Shu nisbatda katriforming qurilmasi katalizatorni regeneratsiyalamasdan deyarli 2 yildan ko'p ishlaydi. Avval esa N/SN nisbat = 5,5 hisoblangan bo'lib, bu mantiqqa to'g'ri kelgan edi.

Reaktorlardagi xom ashyoni uzatishning o'rtacha tezligini  $W = 1,112^{-1}$  deb qabul qilamiz (MNQIZ ga asosan).

U holda uchchala reaktordagi katalizator hajmi quyidagiga teng:

$$WK = \frac{VC}{W} = \frac{165 \text{ m}^3}{1,112^{-1}} = 146 \text{ m}^3$$

bu yerda  $\text{VC}$  – xom ashyning hajmiy sarfi, avval aniqlangan,  $\text{m}^3/\text{q}$ .

Uchta reaktorlardagi katalizatorning massasi:

$$\text{MK} = 146 \text{ m}^3 \cdot 660 \text{ kg/m}^3 = 96360 \text{ kg.}$$

Bu yerda,  $660 \text{ kg/m}^3$  – katalizatorning sochiluvchan zichligi.

MNQIZ ma'lumotiga asosan reaktorlararo katalizatorning taqsimlanib berilishini nisbatini  $1:2,9:7,3$  deb olamiz.

U holda har bir reaktordagi katalizator miqdori 5.6-jadvalda keltirilgan qiymatlarga ega bo'ladi.

#### 5.6- jadval

Reaktorlar bo'yicha katalizatorlarning taqsimlanishi

Reaktor raqami	Katalizator miqdori	
	Uning hajmi, $\text{m}^3$ , VKi.	Massasi, kg, GKi
1	1300 (VK1)	8610 (GK1)
2	38,00 (VK2)	24950 (GK2)
3	95 (VK3)	62800 (GK3)
Jami	146	96360

#### 5.6. Jadval ma'lumotlariga asosan uglevodorodlar entalpiyalarini hisoblash uchun tenglamalarni tuzish

Issiqlik balansni hisoblash uchun gaz xom ashyo aralashamasini va gaz- mahsulot komponentlarining entalpiyalarini bilish kerak.

Komponentlar entalpiyalarining turli haroratlardagi qiymatlarini jadval shaklida keltirilgan bo'lib, uni EHM dasturlari tuzit hisoblashlarda foydalanishda qiylnashtiradi.

Gazlar entalpiyalari harorat va bosimga bog'liq bo'lib, umumiy holda quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:

$$q = A + B \cdot T + C \cdot T^2 \text{kDj/kg} \quad (2),$$

Bu yerda, A, V, S - koefitsientlar;

$q$  – entalpiya,  $\text{kDj/kg}$ ; T — harorat,  $^{\circ}\text{K}$ .

Bosimga to'g'rilik kiritishni hisobga olmasa ham bo'ladi, chunki, bu o'zgarish xech qanday amaliy ahamiyatga ega emas, negaki, uni qo'llanilsa issiqlik farqi reaktorga kirish va chiqish vaqtidagi yo'qotilgan issiqlikdan bir muncha kichikdir.

(2) tenglamadagi A.V.S.-koefitsientlarni ma'lum uglevodorodlar va vodorod uchun agar ayni komponentning uch xil haroratdagি

entalpiyasi ma'lum bo'lsagina aniqlash mumkin.

Entalpiyaning bu qiyamtlarini Kuznetsov A.A. kitobidan olish mumkin.

Misol uchun, etanning entalpiyasini aniqlash tenglamasini tuzamiz. Boshqa kompoentlar uchun tenglama tuzish uy vazifasi qilib beriladi.

Jadvallar asosida etanning uch xil harorat uchun entalpiyasi aniqlanadi:  $q_{C_2}^{530} = 1434 \frac{kDj}{kg}$  ( $530^{\circ}C, 803K$ )

$$q_{C_2}^{470} = 1223 \frac{kDj}{kg}$$
 ( $470^{\circ}C, 743K$ )

$$q_{C_2}^{440} = 1120 \frac{kDj}{kg}$$
 ( $440^{\circ}C, 713K$ )

Uchta noma'lum o'zgaruvchi bilan tenglamalar sistemasini tuziladi:

$$\left\{ \begin{array}{l} 1120 = A + B \cdot 713 + C \cdot 713^2 \\ 1223 = A + B \cdot 743 + C \cdot 743^2 \\ 1434 = A + B \cdot 803 + C \cdot 803^2 \end{array} \right.$$

$$\left\{ \begin{array}{l} 1120 = A + 713 \cdot B + 508369 \cdot C \\ 1223 = A + 743 \cdot B + 552049 \cdot C \\ 1434 = A + 803 \cdot B + 644809 \cdot C \end{array} \right.$$

(3)

$$\left\{ \begin{array}{l} 1223 = A + 743 \cdot B + 552049 \cdot C \\ 1120 = A + 713 \cdot B + 508369 \cdot C \end{array} \right.$$

$$103 = 30 \cdot B + 436803 \cdot C$$

$$B = \frac{-43680 \cdot C + 103}{30}$$

$$\left\{ \begin{array}{l} 1434 = A + 803 \cdot B + 644809 \cdot C \\ 1223 = A + 743 \cdot B + 552049 \cdot C \end{array} \right.$$

$$211 = 60 \cdot B + 92760 \cdot C$$

$$B = \frac{-43680 \cdot C + 103}{30}$$

$$-\begin{cases} 1434 = A + 803 \cdot B + 644809 \cdot C \\ 1223 = A + 743 \cdot B + 552049 \cdot C \end{cases}$$

$$211 = 60 \cdot B + 92760 \cdot C$$

$$B = \frac{211 - 92760 \cdot C}{60} \quad (4)$$

U holda:

$$B = \frac{211 - 92760 \cdot C}{60}$$

$$B = \frac{-43680 \cdot C + 103}{30}$$

$$0 = \frac{211 - 92760 \cdot C}{60} - \frac{-43680 \cdot C + 103}{30} = 3,52 - 1546 \cdot C = 3,43 + 1456 \cdot C = 0,09 - 90 \cdot C$$

$$C = \frac{0,09}{90} = 0,001$$

Keyin tenglamadan V koeffitsient aniqlanadi.

$$B = \frac{-43680 \cdot 0,001 + 103}{30} = \frac{103 - 43,68}{30} = 1,98$$

Uchta noma'lum o'zgaruvchili tenglama sistemasidagi uchinchi tenglamadan A-koeffitsient aniqlanadi:

$$1434 = A + 803 \cdot 1,98 + 664809 \cdot 0,001$$

bu yerda:

$$A = 1434 - 1588 - 664,81 = -799$$

Shunday qilib, haroratning  $713-803^0$  K oralig'ida etan entalpiyasi quyidagi tenglama bilan aniqlanadi:

$$q_{C_2} = -799 + 1,98 \cdot T + 0,001 \cdot T^2 \frac{kDj}{kg}$$

Bosqichning  $743^0$ K ( $440^{\circ}\text{C}$ ) dagi entalpiyasini quyidagi tenglamadan foydalanib tekshiriladi: s primeneniem uravneniya:

$$q_{C2}^{713} = -799 + 1,98 \cdot 713 + 0,001 \cdot 713^2 =$$

$$= -799 + 1411 + 508,4 = 1120 \frac{kDj}{kg}$$

Jadval bo'yicha:  $q_{C2}^{713} = 1120 \frac{kDj}{kg}$  bo'lib, u tenglamaga mos keladi.

### Katalitik riforming qurilmasining birinchi reaktorini material va issiqlik balanchsini hisoblash

Birinchi reaktor balansini hisoblash avvalgi darslarda o'tilgan ma'lumotlarga asoslanadi.

#### 5.7. Aromatik birikmalarga aylangan naftenlar miqdorini hisoblash

Aromatlanishga uchragan naftenlar ulushi:

$$NN = \left( K1 \times PPN - \frac{K1}{KPI} PPA \times PPH^3 \right) \frac{GK1}{NC}$$

Bu yerda,  $K1$  - naftenlarning aromatlanish reaksiyasi tezlik konstantasi,  $\frac{kmol}{s \cdot kPa \cdot kg \cdot kat}$ .

$PPN, PPA, PPH$  - aromtiklarni, naftenlarni va vodorodning parsial bosimlari,  $kPa$  (5.4. - jadvalga qarang);;

$$PPN = 72kPa; PPA = 21,24kPa; PPH = 1254,8kPa$$

$GK1$ -birinchi reaktordagi katalizator miqdori,  $kg$ ;

$GK1 = 8610 \text{ kg}$  (3.5.-jadvalga qarang);

$NC$ - reaktorga kiritilayotgan xom ashyo miqdori,  $kmol/soat$ ;

$NC = 1073 \text{ kmol/soat}$  (avval topilgan);

$KR1$  - kimyoviy muvozanat konstantasi:

$$K1 = 180 \cdot 10^3 \cdot \exp\left(-\frac{5100}{769}\right) = 237,6 \cdot 10^{-6} \frac{kmol}{s \cdot kPa \cdot kg \cdot kat}$$

$K1$  uchun tenglamaga qarang.

$$KPI = 9,83^3 \cdot 10^{12} \cdot \exp\left(46,15 - \frac{21600}{769}\right) = 3,63 \cdot 10^{11} kPa^3$$

U holda:

$$NN = \left( 237,6 \cdot 10^{-6} \cdot 72 - \frac{237,6 \cdot 10^{-6} \cdot 21,24 \cdot 1254,5^3}{3,63 \cdot 10^{11}} \right) \frac{8610}{1073} = 0,136$$

Reaksiyadan so'ng qolgan naftenlar miqdori:

$$NN1 = (yMN - NN1) \cdot NC = (0,311 - 0,136) \cdot 1073 = 187 \text{ kmol/s}$$

Bu yerda,  $yMN$  — xom ashayodagi naftenlarning molyar ulushi (52-jadvalga qarang). Mo

### Aromatikaga aylanigan naftenlar miqdori.

$$NCA = 333,3 - 187 = 146,3 \text{ kmol/s} \quad (\text{tabl. 5.2})$$

Bu yerda, 333,3 — xom ashayodagi naftenlar miqdori, kmol/soat.

### 5.8. Parafinlarni o'zgarishga uchratib naftenlar miqdorini oshirish

$$NP = \left( K2 \times PPN \times PPH - \frac{K2 \times PPP}{KP2} \right) \frac{GK1}{NC},$$

Bu yerda,  $K2$  — parafinlarni naftenlarga aylanish reaksiyasi tezlik konstantasi,  $\text{kmol}/\text{ch} \cdot \text{kPa}^2 \cdot \text{kg kat.}^2$ .

$KR2$  — muvozanat konstantasi,  $\text{kPa}^{-1}$ ;  $PPN, PPH, PPP$  — naftenlar, vodorod va parafinlarning parsial bosimlari,  $\text{kPa}$  (5.6.-jadvalgda avval aniqlangan).

$GK1$  — birinchi reaktordagi katalizator massasi (5.5-jadvalga qarang);  
 $NC$  — xom ashyo sarfi,  $\text{kmol}/\text{soat}$  (avval aniqlangan, 5.2-jadvalga qarang);  
 $NP$  — o'zgarishga uchragan parafinlarning mol ulushi.

$$K2 = 2,25 \cdot 10^{-6} \cdot \exp\left(-\frac{5496}{769}\right) = 1,77 \cdot 10^{-9} \text{ kmol/s} \cdot \text{kPa} \cdot \text{kg} \cdot \text{kat}^2$$

bu yerda, 796 — reaktorga kiritilish harorati,  $^{\circ}\text{K}$  ( $K2$  tenglamasi uchun ma'lumotlarni tayyorlashga qarang);

$$KP2 = \frac{1}{98,1} \cdot \exp\left(\frac{4450}{769} - 7,12\right) = 2,67 \cdot 10^{-3} \frac{1}{\text{kPa}},$$

bu yerda, 796 — reaktorgi kiritish harorati,  $^{\circ}\text{K}$ .

$$NP = \left( 1,77 \cdot 10^{-9} \cdot 72 \cdot 1254,78 - \frac{1,77 \cdot 10^{-9} \cdot 138,06}{2,67 \cdot 10^{-3}} \right) \frac{8610}{1073} = 0,00547,$$

Birinchi va ikkinchi reaksiyalardan so'ng qolgan naftenlar miqdori:  
 $N12 = (yMN - NN1 + NP)NC = (0,311 - 0,136 + 0,00547)1073 = 192 \text{ kmol/s}$ ,

bu yerda:

yMN – xom ashydagi naftenlarning mol ulushi;  
 NN1 - aromatlanishga uchragan naftenlar ulushi (yuqoriroqqarang);  
 NC- xom ashyo miqdori, kmol/soat.  
*yMN* -naftenlarni xom-ashydagi molyar ulushi  
*NN1* -aromatlashga yunaltirilgan naftenlar ulushi  
*NC* - xom-ashyo miqdori kmol/s

Naftenlarga aylangan parafinlar miqdori:

$$DCN = N12 - NN1 = 192 - 187 = 5 \text{ kmol/s}$$

Naftenlar ulushi gidrokrekinglashga uchratiladi.

$$NN13 = K3 \frac{PPN}{P1} \cdot \frac{GK1}{NC} = 0,0309 \times 72 \times \frac{8610}{1073} = 0,00991$$

Bu yerda,  $K3$  –gidrokrekinglash reaksiyasining tezlik konstantasi;

$PPN$  – naftenlarning parsial bosimi, kPa;

$P1$ - birinchi reaktor bosimi, kPa;

$GK1$ - birinchi reaktordagi katalizator massasi, kg;

$NC$ - xom ashyo sarfi, kmol/soat.

$$K3 = 4,17 \cdot 10^{10} \times \exp\left(\frac{21485}{769}\right) = 0,0309 \text{ kmol/s} \cdot \text{kg} \cdot \text{kat}$$

(avval qilingan hisoblashlarga qarang).

Uchta reaksiyadan so'ng qolgan naftenlar qoldig'i:

$$NN13 = (yMN - NN1 + NP - NN13)NC =$$

$$= (0,311 - 0,136 + 0,00547 - 0,00991)1073 = 182 \text{ kmol/s}$$

(ularning qiymatlari yuqorida keltirilgan edi).

Gidrokrekinglashga uchratilgan naftenlar miqdori:

$$NHC = N12 - N13 = 192 - 182 = 10 \text{ kmol/s}$$

(avval keltirilgan hisoblashlardan ularning qiymatlarini izlang).

Gidrokrekinglashga uchratilgan parfinlar ulushi:

$$NN14 = K3 \frac{PPN}{P1} \cdot \frac{GK1}{NC} = 0,0309 \times \frac{138}{1800} \times \frac{8610}{1073} = 0,019$$

$K3, PPN, P1, GK1, NC$  —qiymatlari avvalgi hisoblashlarda keltirilgan.

Xom ashyonini gidrokrekinglashdan so'ng qolgan parafinlar miqdori:

$$OP14 = (yMO - NP14)NC = (0,547 - 0,019)1073 = 620 \text{ kmol/s}$$

Bu yerda,  $yMO$  — xom ashymdagagi parafinlarning molyar ulushi (avval keltirilgan molyar tarkibiga qarang).

Gidrokrekkingga uchratilgan parafinlarni va ularning gazga aylangan miqdori:  $NPHI = NP - OPI4 = 640,6 - 620 = 20,6 \frac{kmol}{s}$

Bu yerda, 640,6 — dastlabki xom ashyo tarkibidagi parafinlar miqdori, kmol/ch (5.2. jadvalga qarang).

Gidrokrekkingga uchratilgan uglevodorodlar miqdori dastlab aniqlangan:

naftenlar - 10 kmol/ ch (NHC);

parafinlar - 20,6 kmol/ch (NPHI);

Reaksiya har bir S<sub>1</sub>-S<sub>5</sub> komponentlarning hosil bo'lishi extimolligi bilan sodir bo'ladi, ya'ni:  $C_8 \rightarrow CH_4 + C_2H_6 + C_3H_8 + C_4H_{10} + C_5H_{12}$

Ushbu ehtimollikni e'tiborga olinganida gazsimon uglevodorodlarning unumi quyidagiga teng:

$$(10 + 20,6) \frac{8}{15} (C_1 + C_2 + C_3 + C_4 + C_5) = 16,32 \frac{kmol}{s}$$

Bu yerda, 15 - S<sub>1</sub>-S<sub>5</sub> aralashmasidagi uglerod atomlarining summasi;

Keltirilgan kimyoviy reaksiya va gazsimon xom ashyo aralashmasi tarkibiga asosan birinchi reaktor uchun material balans tuziladi.

Debalans 2% dan kam bo'lib, qoniqarli deyish mumkin, chunki hisoblash uchun foydalanilayotgan tenglamada xom ashyo tarkibi 2% atrofida xatolik bilan aniqlanadi.

Brinchi reaktordan chiquvchi aromatiklarni, naftenlarni va parafinlarning molyar massasi quyida keltirilgan hisoblashlar asosida aniqlangan.

Reaktordan chiquvchi VSG ning molyar massasini hisoblash 5.7. jadvaldagagi ma'lumotlarni hisobga olingan holda 5.8.-jadvalda keltirilgan.

## Birinchi reaktorning material balansi.

Komponent	Kiritilish			Sarflanish		
	Mi	Kmol/s	Kg/s	Mi	Kmol/s	Kg/s
Aromatika	105,4	98,7	10403	102	$98,7+146,7=245,4$	25030
Naftenlar	11,4	333,7	37174	108	$333,7-146,7=182$	19656
Parafinlar	113,4	640,6	72644	110	$640,6-5=635,6$	67716
Summa		1073	12022 1		1043	112402
Sirkulyatsjon VSG						
H <sub>2</sub>	2	5820	11640	2	$5820+146,7 \cdot 3 + 5 - 20 \frac{8-3}{3} = 6205$	12410
CH <sub>4</sub>	16	509,4	8150	16	$509,4+16,32=525,7$	8411
C <sub>2</sub> H <sub>6</sub>	30	436,8	1310 4	30	$436,8+16,32=453$	13590
C <sub>3</sub> H <sub>8</sub>	44	327,5	1441 0	44	$327,5+16,32=344$	15136
C <sub>4</sub> H <sub>10</sub>	58	137,6	7980	58	$137,6+16,32=154$	8932
C <sub>5</sub> H <sub>12</sub>	72	43,8	3154	72	$43,8+16,32=60$	4320
Summa	-	7276	5843 8	-	7742	62799
Jami	-	8350	1786 59	-	8785	17520 1

## Reaktordan chiquvchi boyitilgan VSG ig molar massasi.

Komponentlar	Molar massa, $M_i$	Miqdor, kmol/soat, $N_i$ .	Mol ulush, $y_i = \frac{N_i}{\sum N_i}$	$M_i \times y_i$
$H_2$	2	6205	0,8014	1,603
$CH_4$	16	525,72	0,0679	1,086
$C_2H_6$	30	453,0	0,0585	1,755
$C_3H_8$	44	344,0	0,0444	1,953
$C_4H_{10}$	58	154,0	0,0198	1,148
$C_5H_{12}$	72	60	0,0077	0,554
Jami	-	7742	1,000	$\approx 8,10$ Kmol/kg

Birinchi reaktordan boyitilgan VSG miqdori:  
 $GHC = 7742 \cdot 8,1 = 62710 \text{ kg/s}$

Uglevodorodlarning ( $C_s$ ) birinchi reaktordan chiqayotgan miqdori:

$$GCE = 175 \cdot 201 - 62710 = 112481 \text{ kg/s}$$

Ushbu uglevodorodlaning uglerod soni (S) quyidagi tenglama bilan aniqlanadi:

$$112491 = 245,4(14 \cdot C - 6) + 182 \cdot 14 \cdot C + 615,6(14 \cdot C + 2).$$

Bu yerda, 245,4; 182; 615,6 – birinchi reaktordan chiqishdagı aromatiklarni, naftenlarni va parafinlarning miqdori, kmol/kg (5.7-jadvalga qarang). Ushbu tenglamani S ga nisbatan hisoblaymiz, u holda  $S = 7,68$ .

Birinchi reaktordan chiquvchi uglevodorodlarning molar massasini hisoblash uchun  $S=7,7$  deb olamiz.

Uglerodning bu qiymati xom ashyo uchun aniqlangan uglerod quymatidan ( $S=8$ ) amalda farq qilmaydi.

U holda birinchi reaktordan chiquvchi uglevodorodlar aralashmasining molar massasi quyidagini tashkil etadi:

$$\text{Aromatiklar MA} = 14 \cdot S - 6 = 14 \cdot 7,7 - 6 = 102;$$

$$\text{Naftenlar MN} = 14 \cdot S = 14 \cdot 7,7 = 108;$$

$$\text{Parafinlar MR} = 14 \cdot S + 2 = 14 \cdot 7,7 + 2 = 110;$$

Ushbu uglevodorodlarning molyar massalari qiyatlari 5.7-jadvaida keltirilgan.

Bundan ko'rinib turibdiki, birinchi reaktordan aromatiklar quyidagicha olingan:

$$25030 - 10403 = 14627 \text{ kg/soat va } 100\% \text{ vodorod}, 12410 - 11640 = 770 \text{ kg/soat yoki xom ashyoga nisbatan: } \frac{770 \times 100}{120221} = 0,64\% \text{ mass.}$$

$$\text{Yoki xomashyodan } (6205 - 5820) \frac{\text{kmol}}{\text{s}} \times \frac{22,4 \frac{\text{HM}^3}{\text{kmol}}}{165 \frac{\text{M}^3}{\text{s}}} = 52 \frac{\text{HM}^3}{\text{M}^3}$$

bo'lgani uchun birinchi reaktordan so'ng, aromatikaning qoniqarli unumda va 100% vodorod chiqadi deyish mumkin.

Katalizatorning harakatlanuvchan qavati bo'lgan va pasaytirilgan bosimda ishlaydigan uchchala reaktorda katalizatorning to'xtovsiz regeneratsiyasi bilan ishlaydigan katriforming qurilmasida xom ashyodan  $200 \text{ nm}^3/\text{m}^3$  bo'lganida vodorod 100% da hosil bo'lishiga erishiladi.

Shundan keyin birinchi reaktor uchun reaktordan chiquvchi gazsimon mahsulotning haroratini (GPS) bilish hamda ikkinchi reaktorga GPS ni kiritishda pechning issiqlik quvvatini hisoblash uchun issiqlik balans tuziladi.

Biirnchi reaktorning issiqlik balansi :

$$ES = ER + DS + TD \text{ kVt.}$$

Bu yerda, ES- biirnchi reaktorga xom ashyo bilan keluvchi issiqlik, kVt;

ER- reaksiya uchun issiqlik sarfi, kVt;

ED- atrof muhitga sarflanayotgan yo'qotilayotgan issiqlik, kVt.

### 5.9. Reaksiya uschun issiqlik sarfi

Naftenlarni aromatizatsiyalashning issiqlik effekti:  $DN = -214347 \text{ kDj/kmol}$ . Parafinlarning naftenlarga aylanishning issiqlik effekti:

$$DP = -41870 \text{ kDj/kmol.}$$

Parfinlar va naftenlarning gidrokrekinglanish reaksiyasining issiqlik effekti:  $HD = +56106 \text{ kDj/kmol}$

U ho'sda birinchi reaktorga sarflanadigan issiqlik sarfi quyidagiga

$$\text{teng: } ES = \frac{[146,7 \times 214348 + 5 \times 41870 - (10 + 20,6)56106]}{3600} = 8316 \text{ kVt}$$

bu yerda, 146,7 — aromatikaag aylangan naftenlar miqdori, kmol/ch;

5 — naftenlarga aylangan parafinlar miqdori, kmol/ch;

10 + 20,6 — gidrokrekingslanishga uchragan parfinlar va naftenlar miqdori, kmol/ch. (3.7-jadvaldagi keltirilgan hisoblanishlarga qarang).

Biirnchi reaktorga kiritilayotgan issiqlikka nisbatan atrof-muhitga chiqib yo'qotilayotgan issiqlikni 1% deb, ya'ni ED=0,01 · ES olinadi.

GSS va GPS komponentlari entalpiyalarini hisoblash uchun avval keltirib chiqarilgan tenglamalardan foydalanilgan.

### 5.9 – jadval

#### Birinchi reaktorning issiqlik balansi.

Oqimlar	Harorat, °C	Miqdor, kg/soat	Entalpiya, kDj/kg	Issiqlik miqdori, kVt
Kiritish: VSG va xom ashyo issiqligi	769	178659	2790	138460
Sarflanish: Reaksiyaga issiqlik GPS chiqishidagi issiqlik	-	-	250	8316
Issiqlik yo'qotilishi	712	175300	2647	128812
Summa	-	175200	-	138513

Kiritilish va sarflanishda issiqlikning yo'qotilishi mumkin bo'lgan holatdir, chunki hisoblanishlar ma'lum haroratlarda 0,3 K aniqligida amalga oshirilgan.

Katalizatorning harakatdagi qavati bo'lgan va uning doimaiy regeneratsiyalanishi dasturlangan katriforming qurilmasida reaktorga kiritilish hraratini 530 °C gacha oshirish mumkin bo'lib, buning natijasida katalizatori reaktorga joylashtirish bosimini kamaytirishi va aromatikaning ko'p hosil bo'lishini imkonini berishi mumkin.

Katalizator qavati balandligi bo'yicha haroratning pasayishini hisobga olgan holda katalitik riforming reaktorida aromatikaga aylangan naftenlarning mol ulushini hisoblash

Platinareniyli katalizatorda naftenlarning aromatikaga aylanishida ko'p miqdorda issiqlikning btilishi sodir bo'lib, buning natijasida katalizator qavatida haroratning pasayishi sodir bo'ladi.

Haroratning pasayishi esa reaksiya tezligini va shuning bilan birga aromatizatsiyalashadigan naftenlarning ulushini kamaytiradi.

Bundan tashqari uning pasayishi vodorodning va aromatikaning parsial bosimi oshishi hisobiga ham kuzatilib, naftenlarni o'zgarishini kamaytirishini quyidagi tenglamadan ko'rish mumkin:

$$-\frac{dN}{dV} = K \cdot PN - \frac{K}{KP} \cdot PA \cdot PH^3 \quad (5)$$

Bu yerda,  $dN$  - aromatizatsiyalanishga uchragan naftenlar miqdori, kmol/ch;  $dV$  - katalizatorlar soni,  $\frac{kg \cdot katalizator}{kmol \cdot s \cdot xom - ashyo}$ ;

K-naftenlarning aromatizatsiyalanishi reaksiyasining tezlik konstantasi, kmol/ch · kPa · kg katalizat.;

$PN, PA, PH$  - mos ravishda naftenlarni, aromatikaning va vodorodning parsial bosimlari, kPa;

$KR$  - muvozanat konstantasi,  $kPa^3$ .

Yuqorida reaktorga GSS ning  $T=496$  °C haroratda kiritilishining material balansining hisoblashlari kimyoviy o'zgarishlar reaksiyasi vaqtida haroratning pasayishi hisobga olinmagan holatda keltirilgan.

Keyinroq esa reaktorga GSS ning kiritilish vaqtida harakat mobaynida haroratning pasayishi hisobga olingen holda naften uglevodorodlarining aromatikaga aylanishidagi ulushini hisoblash namunasi keltirilgan.

- Qurilmaning ishlab chiqaruvchanligi, 120 t/soat yoki 1073 kmol/soat;

- Reaktoordagi katalizator miqdori (*RG - 582* firmasi "Prokataliz" (Fransiya)

8610 kg (sochiluvchan zichligi 666 kg/m<sup>3</sup>);

- Reaktordagi bosimi - 1800 kPa;

- Parsial bosimi:

a) reaktorga kirayotgan vodorod bosimi - 1254 kPa;

b) reaktorga kirayotgan naftenlar bosimi - 72 kPa;

v) reaktorga kirayotgan aromatiklar bosimi - 21,2 kPa;

g) reaktorga kirayotgan parafinlar bosimi - 138 kPa;

xom ashyo tarkibi, mol. ulushlari:

naftenlar – 0B311;  
aromatiklar – 0,092;  
parafinilar – 0,597.

Aromatizatsiyalanishga uchragan naftelarning mol ulushi faqatgina haroratgagina bog'liq bo'lmasdan, balki qurilma ishlab chiqaruvchanligiga, reaktordagi katalizator miqdoriga ham bog'liqligi 5-tenglamadan ko'rinish turibdi.

Xom ashyo naftenlarining aromatizatsiyalanishga uchragan mol ulushini reaktorga GSS kiritilishidagi haroratni pasayishiga bog'liqligini aniqlash uchun biz reaktordagi katalizator qavatini shartli ravishda uchta zonaga bo'lib olamiz. Biz endi shuni bilamizki, naftelarning aromatizatsiyachlanishning mol ulushi kamayadi va reaktordan chiquvchi GS ning harorati hisoblangandan yuqori bo'ladi (713K yoki 440°C).

## 6. AJRATISHNING ADSORBSIYALASH TEKNOLOGIYASI

**Adsorbsiya** deb, g'ovakli qattiq jismdan iborat faza sirtida – adsorbentda moddalarning konsentratsiyalashuvi (to'planishi va h.k.) jarayoniga aytildi. Asosiy sanoat adsorbetlari jumlasiga faol ko'mir, silikagellar, alyuminiyni va seolitlarning faol oksidlari kiritilgan. Ularning xossalari, tuzilishi, ishlatilish sohalar hamda adsorbsiyalanish texnikasi haqidagi ma'lumotlarni qator ishlarda ko'rish mumkin [1–3].

Ma'lumki, **adsorbsiya** – bu qattiq adsorbentning sirti va uning g'ovaklarida gazsimon va suyuq komponentlarning tanlanuvchan yutilishiga asoslangan ajratish usulidir.

Bu usul juda ko'p hollarda samarali bo'libgina qolmay, hattoki, ajratish texnologiyasining boshqa usullari masalan, haydash, adsorbsion yoki membranalı sistemalarni qo'llash bilan ajratish samarasiz bo'lganda ham yuqori samaradorlikka egadir. Ajablanarli emaski, adsorbsiya ko'pgina innovatsion texnologiyalarni yaratishda va atrof-muhitni himoyalash zaruriyati oshib borayotgan vaqtda juda ahamiyatlidir. Bundan tashqari, adsorbsion usullarning o'zini mukammalashtirishning o'zi ularning yangidan-yangi qo'llanilish imkoniyatlarini ochmoqda.

Har bir aniq holatlar uchun adsorbentni to'g'ri tanlashning o'zi adsorbsion qurilmalarning samarali ishlashining garovidir. Shuning

uchun ko'pgina mamlakatlarda yangi adsorbentlar yaratish yo'nalishidagi tadqiqot ishlari doimo olib boriladi. YAngi adsorbentlar yaratish ishlari bo'yicha tadqiqotlar olib borish bilan birga adsorbsiyalanishning mexanizmlarini o'rganish bo'yicha ham tadqiqotlar olib borilmoqda. Olingan natijalar esa aniq adsorbsion jarayonlarni ishlab chiqishni imkonini beradi va o'z navbatida adsorbsion hodisalarni izolirlangan holatda o'rganishni imkonini berishini o'zi tadqiqotchiga bir qancha parametrlarni inobatga olinishini kerakligini kamaytiradi. Tez ishlaydigan kompyuterlarni qo'llash orqali model tenglamalarni echimini topish katta qiyinchiliklarni tug'dirmaydi.

Ko'pincha adsorbsion jarayonlarni adsorbentning qo'zg'almas qavatidan foydalaniłgan holda amalga oshiriladi. Ayni vaqt dagi texnologik sxemada adsorbsion qavatning ikki parallel qavatini hisoblash uchun ularning biri ishlayotgan holatidan, boshqasini esa regeneratsiyalanayotgan holatidan foydalaniładi.

Adsorbentlarning asosiy xarakteristikalari bu ularning adsorbsion sig'imi, selektivligi, regeneratsiyalanishga moyilligi, kinetik parametrlari, ishga yaroqliligi va tannarxidir. Shu bilish zarurki, qaysi turdag'i adsorbent hamma parametrlari bo'yicha optimal hisoblanadi.

Birinchi va eng zarur parametr bu – adsorbsion sig'imir. Bu kattalik ma'lum massa va hajm birligiga ega bo'lgan adsorbentga adsorbsiyalanayotgan modda miqdoi bilan aniqlanadi. Bu qiymatning ko'rsatkichi ahamiyatli bo'lib, ayshi shu kattalik kapital mablag'larning sarflanishining xal qiluvchi bosqichini belgilaydi, chunki uning bilan adsorbentning kerakli miqdri aniqlanadi, Shuningdek, adsorbsion kolonnalarning o'lchamlari ham aniqlanadi.

Xohlagan adsorbent uchun uning adsorbsion sig'imi avvalam bor gaz yoki suyuq fazadagi modda konsentratsiyasiga, uning parsial bosimiga, haroratiga va adsorbentning o'zini dastlabki holatiga bog'liq,

Amaliyotda ko'pincha adsorbsion sig'imi harorat qiymatlarini belgilashlardan hosil bo'lgan izoterma egrisi bilan aniqlanadi. Bunday izoterma (quyiroqda bu tushuncha to'liq ko'rib o'tiladi) berilgan haroratda oqim orqali kirib kelayotgan adsorbsiyalanayotgan moda konsentratsiyasining adsorbsion sig'im bilan bog'liqligini belgilaydi.

Adsorbsion sig'imi ko'rsatib berish uchun boshqa grafik usullar ham bor. Masalan, adsorbsiyaning izosterasi ma'lum adsorbsion sig'im kattaligidagi parsial bosimning kondensatlanish harorati yoki

konsentratsiyaning boshqa biron ko'rsatkichiga bog'liqligini ko'rsatadi. Adsorbsyalanishning izobarasi adsorbsion sig'imning ham belgilangan parsial bosimdag'i harorat funksiyasini yoki berilgan kattalikdagi konsentratsiyaning boshqa parametrini ko'rsatadi.

Bu ikki xil grafiklarning bir biridan farqi shundaki, ma'lum sharoitlarga ular chiziqli bog'liqlikni ko'rsatadi va bu o'z navbatida interpolyatsiyalash va ekstrapolyatsiyalash metodlari bilan hisoblashlarni yengillashtiradi.


Adsorbsion sig'imni turli raqamli parametrlar bilan ham, masalan sirt maydoni, g'ovaklar o'lchamlarining bir xilligi, yod soni va melass soni kabilar bilan baholash mumkin. Oxirgi ikkita indekslar (quyiroqda bu tushuncha to'liq ko'rib o'tiladi) adsorbent sifatida ffaol ko'mir qo'lanilganida ishlatiladi.

Sirt maydoni nisbiy kattalikdir. Ko'pincha u adsorbent sirtini molekulasi o'lchami aniq bo'lgan va zichligi ma'lum bo'lgan moda bilan birqavatli qoplanishi maydoni bilan o'chanadi (masalan, normal sharoitlarda qaynash haroratlariiga yaqin haroratlarda azot bilan qoplanish). Uning kattaligi qoidaga asosan, adsorbsion sigim qiymatlariga mos tushadi va turli adsorbentlar uchun uning qiymati keng diapazonda masalan, 5 dan 3000 m<sup>2</sup>/ gramm diapazonida o'zgarishi mumkin. Qupincha qo'llanilib kelinadigan adsorbentlar uchun sirt maydoni intervalalri o'zgarishi quyidagi jadvalda keltirilgan.

### **6.1. G'ovaklar o'lchamlarining teng taqsimlanganligi**

– zarrachaning ichki qismida mikrog'ovaklar bilan ( $dP < 2,0 \text{ nm}$ ), mezag'ovaklari ( $2,0 \leq dP < 50,0 \text{ nm}$ ) va makrog'ovaklari ( $dP \geq 50,0 \text{ nm}$ ) bilan egallangan bo'ladi. G'ovaklar o'lchamlari kattaliklari adsorbsion sig'im kattaliklari bilan mos tushishi bilan birga ularning kinetik parametrlari ham mos bo'lishi kerak, biroq bu bog'liqliklar yuetarli darajada murakkabdir.

6.1- rasmida ko'pincha ishlatiladigan adsorbentlar uchun g'ovaklar o'lchamlarining taqsimlanishi ko'rsatilgan. G'ovak o'lchamlarining qator molekulalar o'lchamlari bilan nisbatlarini 6.1- jadvalda kuzatish mumkin.



**6.1-rasm. Ishlatiladigan turli adsorbentlar uchun g'ovalarning o'lchami bo'yicha taqsimlanishi**

Yod soni – moddalarning katta bo'lmagan molekulalarni adsorbsiyalashinig mumkin bo'lgan o'lchovi bo'lib, sirtning yuzasi maydoni kattaligiga bog'liq.

Melass soni – avvallarni faqat shakarqamishdan olingan shakarni oqartirishni nazorat qilish uchun ishlatilgan bo'lib, suyuq fazadan yirik molkulalarni adsorbsiyalanishini harakterlash uchun ishlatiladi.

Bir komponentning adsorsion sigimining berilgan haroratda boshqa komponentning adsorbsion sig'imiga nisbati – selektivlikdir.

Konsentratsiyani nolgacha kamaytirishda bu bog'liqlik ayrim doimiy kattalikka yaqinlashadi. Ideal holatda ikki komponentli oqimda asosiy komponent sezilarli darajada adsorbsiyalanmaydi (va u inert hisoblanishi mumkin) va natijada yuqori selektivlikka erishish mumkin.

Matematik hisoblashlarni soddallashtirish uchun ayrim mutaxassislar chegaralangan selektivlikni parametrini ishlatishni maqul ko'radir (bu qiymat 0 dan 1 gacha o'zgaradigan bo'lsa). Shuning uchun adsorbsion jarayonlarni taxlil qilinganida darhol ko'rsatkichni aniqlash kerak, yoki adsorbsiyaning «yuqori» yoki «quyi» degan harakteristikalaridan voz kechib uning o'rniga «yaxshi» yoki «yomon» terminidan foydalanish kerak.

## 6.1- jadval

Molekula va adsorbentlar g'ovaklarining kritik diametrlari.

Moddalar	Molekulalarning kritik diametrlari, nm	Adsorbentlar	Mikrog'ovaklarning diametrlari, nm
Gelyy	0,2	Seolit 3A	0,3
Suv	0,27	Seolit 4A	0,4
Vodorod	0,24	Seolit 5 A	0,5
Azot	0,37	Seolit SaY	0,78
Kislород	0,34	Seolit NaX	0,8
Atsetilen	0,24	Seolit Modernit	0,7
Uglerod dioksidi	0,31	Faol $\text{Al}_2\text{O}_3$	0,8 dan ko'p
Ammiak	0,36	Ko'mirli molekulyar to'r	Chamasi 0,3
metan	0,37	Faol ko'mir	0,6 dan ko'p
Propan	0,49	Silikagel	1,0 dan ko'p
n-Butan	0,49		
n-Geksan	0,49		
Benzol	0,6		
Siklogeksan	0,61		
izo-Butan	0,56		
triperftorbutilamin	1,15		
trifenilmetanol	1,41		

Adsorbsiyani bosim o'zgarishi yoki turli haroratlarda amalga oshirilsa yuqori adsorbsion sigim yaxshigina selektivlikka nisbatan kam ahamiyatli bo'lishi mumkin. Bu shu bilan bog'liqdırki, yuqori adsorbsion sig'imga ega bo'lgan adsorbentlar qoidaga asosan regeneratsiyalanishga kamnamodir.

Xohlagan turdag'i adsorbentlarni ishlatalganida ularning osongina regeneratsiyalanishga uchrashi adsorbentning xohlagan siklida bir xil effektivlikka ega bo'lishi kerak. Bu degani, ham bir komponent kamroq adsorbsiyalanuvchan bo'lishi kerak bo'lib aniqrog'i fizik adsorbsiyalanishga oson kirishuvchan bo'lishi va xemosorbsiyalanuvchan bo'lmasligi kerak.

Regeneratsiyalanish uchun kerakli energiya ulchovi - quyiroqda alohida taxil qilinadigan paramet – adsorbsiya issiqligi bo'lishi kerak.

Bosim yoki haroratni o'zgartirib turib regeneratsiyalashni bajarish

mumkin, yoki kimyoviy usul – ajratib olish, elyuent tanlash orqali yoki yuqori kritik ekstraksiyalash kerak. Ko'pincha ushbu usullar kombinatsiyasidan foydalaniladi. Ajratib olish metodi asosan – avval adsorbsiyalangan moddadan ko'ra kuchliroq adsorsiyalanadigan «regenerator» moddani kiritilib amalga oshiriladi. Elyuent orqali ajratish – bu adsorbentda kuchsiz adsorsiyalanadigan yoki umuman adsorbsiyalanmaydigan erituvchi bilan adsorbsiyalangan moddani eritib olishdan iborat. Barcha holatlarda imyoviy metodlarni qo'llash jarayonda regenerirllovchi moddani chiqarib olish uchun qimmatli operatsiyalardan iborat bo'lishi mumkin bo'lgan qo'shimcha bosqichni kiritishni talab qiladi.

Bundan tashqari regenrirlanuvchan moddalarni purkash uchun maxsus moslam!ardan foydalanish zaruriyati tug'iladi.

Adsorbsiya sodir bo'lishi mumkin bo'lgan oqimli gaz fazasi bilan kontaktda adsorbent regenerirlanishi mumkin.

Ko'pincha bir qancha birnchi sikllarda ishchi adsorbsion sig'Imning qisqa vaqtli pasayishi sodir bo'ladi. Bunday pasayishdan so'ng bir qancha yuzlab sikllardan so'ng, adsorbentning ishlash vaqtiga ta'sir qiluvchi va regeneratsiyalanishga bog'liqligi bo'lmagan adsorbentning eskirishi va zaharlanishi natijasida ushbu parametrning kamayishi doimiy ravishda kuzatiladi.


Bu yerda shunday holatlar ko'rilmoxdaki, ishlatilgan adsorbentni boshqa apparatlarga yuklanmasdan regenerirlanadi. Bunday usul hozirgi zamонавий adsorbsion texnologiyalarda qo'llaniladi. Boshqa apparatlarga qayta yuklash yoki o'rnatish faqat faollashtirilgan ko'mirdan iborat adsorbentni regeneratsiyalash uchun qo'llaniladi.

Massani uzatishning kinetik parametrlari zarracha ichidagi massani kiritishdagi qarshilik bilan bog'langan. Ushbu parametrning qiymati yetarlicha yuqoridir, chunki aynan shu bilan qo'zg'amas adsorbent iqvavatini ishlatilganida adsorbsion texnologiyasining ishchi siklining davomiyligi bilan aniqlanadi.

Adsorbsion jarayonlar tez sodir bo'lganida, kolonnadan chiquvchi adsorbsiyalanuvchan moddalarning konentratsiyasining vaqt birligi ichida o'zgarishi ba'zi doimiy tenglikka mos kelishiga adsorbent to'liq to'yinmagunicha mos keladi, hamda keyin ushbu tenglik tezda yuqoriga ko'tariladi.

Bunday bog'liqlik amaliyatda qisqa sakrashning egrisi deb ataladi'(6.2- rasmning 2-egrisi).

Oxirgi holatda bunday holatni qo'shimcha adsorbent qo'shish bilan yoki siklning davomiyligini oshirish bilan to'g'rilash mumkin. Ikkinchi variant ham adsorbent miqdorini oshirishni talab qiladi. Sekinlik bilan ketuvchi adsorbsiyalanishni kompensatsiyalash uchun bundan tashqari, yanada maydaroq zarrachali adsorbentni ishlatish mumkin, biroq bunday bosim tushib ketishi kuzatiladi.



Adsorbent qavatidan chiqishdag'i moddalar konsentratsiyalarining nisbiy o'zgarishi

Adsorbent qavatining balandligi

**6.2- rasm. Adsorbent qavatida adsorbsiyalanayotgan moddaning hosil bo'lish egrilari: 1-tor sakrash bilan hosil bo'luvchi egri chiziq; 2- keng sakrash bilan hosil bo'ldigan egri chiziq.**

Kinetik parametrlar ko'pincha ajratishning adsorbsion metodi asosida topiladi. Masalan, ayrim sistemalarda bosim o'zgaruvchan bo'lganida havodan azotni ajaratishda ko'mirdan tayyorlangan molekulyar to'rsimon adsorbentlardan foydalanihib, ularda kislороднинг adsorbsiyalanish tezligi azotga nisbatan yuqoriroqdir. Biroq bunday metodning kamchiligi shundaki, adsorbatning (adsorbsiyalanayotgan moddaning) sekinlik bilan diffeziyalanishidir.

U yoki bu turdag'i adsorbentning ishga yaroqligini baholashda adsorbentga kimyoviy va fizik ta'sirlarni natijasini hisobga olish kerakdir, chunki buning natijasida bunday ta'sirlar natijasida

adsorbentning loyihadagi belgilangan ishga yaroqlik muddatini qisqartirishi mumkin. Bunday ta'sirlar misolida adsorbentning yuzasini edirilishini va uning biologik ifloslanishini aytish mumkin. Adsorbentda mavjud bo'lgan biriktiruvchi moddalar yoki uning yuzasidagi molekulasiда faol funksional guruhlar tutgan modifikatorlari xom ashyo va regenratsion oqimga nisbatan inert bo'lishi kerak. Shu bilan birga ular adsorbentning ishlatilish chog'ida masalan, oqim tezligi ta'sirida, harorat, bosim yoki jihozlarning tebranishi ta'sirlarida adsorbentning xossasiga ta'sir etmasligi kerak.

Adsorbentlarning ishga yaroqliliga doimo diqqatni qaratish ukerak, chunki ularni yaroqliligi doimiy bo'lavermaydi. Masalan, oqimlarda ketonlar bo'lganida faol ko'mirdan iborat adsorbsion qavatdan o'tayotganida ko'mirni oksidlanishiga sababchi bo'lishi mumkin. Darhaqiqat, bunday sharoitlarda oksidlanishga bardoshli yangi adsorbentlar ishlab chiqilgandir.

Adsorbsion sig'im, selektivligi, regenerirlanuvchanligi, kinetik parametrlari, yaroqliligi va tannarxi to'g'risida ma'lumotlar olish uchun quuyida keltirilgan xoxlagan to'rtta usullarning biridan foydalanish mumkin:

Birinchi navbatda uni yetkazib beruvchi bilan aloqadan foydalanish mumkin. Agarda etkazib berilgan adsorbent oddiy ishlatilib kelinayotganidan bo'lsa siz albatta uning haqida kerakli ma'lumotni olasiz.

Ikkinchi usuul esa, kerakli adsorbent haqida ma'lumot topishdan iboratdir.

Masalaga uchinchi tomondan yondashishi esa, albatta mos keluvchi jihozlari bo'lganida mutaxassislar o'z firmalaridagi laboratoriylarida tadqiqot olib borishlari mumkin.

To'rtinchi usul esa laboratoriyyada mos keluvchi tadqiqot olib borilganidan so'ng unga bog'liq bo'limgan holda firmanın talabnomaga asosan kerakli ma'lumotlarni olish bilan bog'liq.

## 6.2. Adsorbentlarning asosiy turlari

**Noorganik materiallar.** Minerallarning ko'pchiligi va ko'plab olinadigan sintetik noorganik materiallar adsorbent bo'la olishi mumkin. Ularning ayrimlari sifatsiz va arzon adsorbent bo'lishiga qaramay ushbu maqsadlarda ishlatilib kelinadi. Bundan tashqari ularning ichida adsorbentlik samaradorliligi yetarli bo'lganlari ham

uchraydi.

Adsorbent deb hisoblangan noorganik materiallar faqatgina adsorbent sifatidagina ishlatilmaydilar. Ularning faqatgina sirtlarigagina emas hatto zarrachalari hajmiga ham suyuqliklar singib kiradi. Bunday moddalarga kalsiy xlorid, kalsiy oksidi, magniy oksidi, rux oksidi, kalsiy sulfat, magniy silikati, dolomitli tuproq natriy bikarbonat kabilalar kiradi. Ularni ishlatish sohasi kattadir, quritish jarayonlaridan tortib to polixlorlangan bifenillarni ajratib olishgacha ishlatiladi. Ularning ayrimlaridan tarkib topgan materiallari suvsiz, qolganlari gidratlangan holatlarida ishlatiladi.

Ko'pgina noorganik adsorbentlardan masalan, granullangan tuproqlar, mezog'ovakli adsorbentlar va alyumoforsfatlar shu vaqtgacha bozorda o'z nomlari haqida ma'lumotlarga yetarlicha ega emas. Lekin sanoatlarda yetarlicha sinovlardan o'tgan adsorbetlar ham bo'lib, ular xizmati keraklicha o'rganilgan. Ularni alfavit tartibida keltiramiz:

**FAOL ALYUMINIY OKSIDI** - gidratlangan alyuminiy oksididan  $\text{Al}_2\text{O}_3 \cdot \text{nH}_2\text{O}$  nazorat qilinib turiladigan sharoitda qizdirib tayyorlanib (bu yerda n bir yoki uchga teng), bu usulda formulaga mos keladigan, ya'ni  $n=0,5$  ga to'g'ri keladigan modda hosil bo'ladi. Bu modda oq yoki sarg'ish rangli peshtaxtaga yozadigan oddiy melga o'xshashdir. Turli ishlab chiqaruvchilar tomonidan ushbu adsorbent – alyuminiy oksidini kristallik tuzilishi farq qiladigan turli modifikatsiyalari ishlab chiqiladi. Qarorli kristallik shaklga ega bo'lganlari adsorbentlarga kiritilmaydi, chunki ularning sirt yuzasi maydoni kattaligi kichikdir. Masalan, gamma- yoki beta-alyuminiy oksidining o'tar shakllarida nuqsonli oktaedrik kristallari shakliga ega bo'lib, ularning sirtida kislotali qoldiqlar konsentratsiyasi yuqoridir. Bunday adsorbentlar uchun samarali sirt yuzasi 200-400 m<sup>2</sup>/gramm intervalida aniqlanadi. SHunga o'xshash modifikatsiyalar diametri 1 dan 8 mm gacha bo'lgan sharsimon zarrachalar, granulalar, diametri 2 dan 4 mm gacha bo'lgan ekstruditlar (yirikroq) yoki kukun holida bo'ladi.

Faol alyuminiy oksididan adsorbent sifatida masalan, uglevodorod aralashmlaridan oksidlanish mahsulotlarini va merkaptanlarni ajratib olishda, suvdan frotid ionlarni yo'qotishda, neftni qayta ishlash zavodlarida katalitik riforming jarayonida hosil bo'ladijan vodorodni vodorod xlorididan ajratib olish kabilarda ishlatiladi. Uni gaz fazasida

ajratish uchun ishliti qoidaga asosan adsorbentni  $250^{\circ}\text{C}$  gacha dastlabki qizdirishga uchratishni talab qiladi. Biroq, bu modda ko'pincha adsorbent emas balki katalizator sifatida yoki boshqa katalizator tashuvchisi sifatida hamda qurituvchi sifatida ishlatiladi.

**Silikageli ( $\text{SiO}_2$ )-** adsorbentlar – bir necha shakllarda ishlatilib, ularning tarkibida silikagelning g'ovakli borsilikatli shisha yoki aerogelli (solishtiriilganida yangi materiallar bo'lib, yuqori g'ovakli bo'ladi) turlaridan iborat silikagel bo'ladi.

Bunday gel kristallik bo'limgan qattiq tuzilishga ega bo'lib, kremniy dioksidining sferik shakldagi kolloid mikrozarrachalaridan tuzilgan. Bu adsorbent o'zining g'ovakli tuzilishi va ochiq yacheylekalarini bilan harakterlanadi. Sirt maydonining samarali kattaliklari turlichi bo'lib, zichligiga qarab  $300$  dan  $900 \text{ m}^2/\text{g}$  gacha bo'ladi. Bunday materialarning yanada yuqoriyoq zichlikka ega bo'lganlari g'ovaklari mayda bo'lib, mos ravishda yanada yuqoriyoq sirt maydoniga ega.

Oddiy sharoitda kremniy dioksidining zarrachalari rangsiz yoki kuchsiz rangli, yaltiroq yoki yarim yaltirok bo'ladi. Silikagelning ayrim mrkalari alyuminiy oksidi bilan aralashma holida ishlab chiqiladi va Shuning uchun yaltiroq bo'limgan ko'rinishga ega yoki sarg'ish kukunlar holida bo'ladi.

Silikagel va g'ovakli shisha edirilishga qarorli bo'lib, changsimon zarrachalarni hosil qilmaydi. Ular asosan diametri  $1 - 3 \text{ mm}$  bo'lgan sferik shaklda hamda, diametri  $2 - 4 \text{ mm}$  bo'lgan ekstrudit granulalari ko'rinishida yoki kukun shaklida tayyorlanadi.

Adsorbent sifatida silikageldan uglevodorodlarni ajratishda, tabiiy gazning kondensatsiyalanish haroratini pasaytirishda, suyuq uglevodorodlarni quritishda qo'llaniladi. Gaz fazasidagi komponentlarni adsorbsiyalash uchun ishlatilganida ularni dastlabki ishlov berish uchun ularni taxminan  $20^{\circ}\text{C}$  gacha qizdiriladi.

**Seolitlar** – alyumisilikatlar bo'lib, kremniy dioksidini va alyuminiy oksidining stexiometrik aralashmasidan iborat. Ularning ko'pchiligini rangi oq bo'lib, yaltiroq emas va tashqi ko'rinishiga ko'ra melga o'xshashdir. Ularning tarkibida alyuminiy oksidining miqdori ko'p bo'lsa ular gidrofil xossani namoyon qiladi, agar kremniy dioksidini miqdori ko'p bo'lsa – gidrofoblikni namoyon qiladi.

Seolitlarning ichki tuzilishi kristallik bo'lib, kristallarining ichkki qismida juda ham ko'p mikrog'ovaklar bor va ularning o'lchamlari

amalda bir xilda bo‘ladi. Bu mikrog‘ovaklar kattaligi bilan shunchalik kichik va bir hildirki, ular bilan hattoki o‘lchamlari o‘xhash molekkulalarni ham «farqlash» mumkin (Shuning uchun ular uchun «molekulyar to‘r»-degan umumiy nom mavjud).

Ko‘pincha kristallar tarkibiga gidratlangan suv ham kiradi. Kristallik reshetskasingin nuqsonlari bo‘lgani uchun ularning tuzilishida elektr zaryadlar hosil bo‘lishi mumkin, Shuning uchun ularni balanslash uchun kationlar alyuminiy oksidi bilan assotsilanadi. asosan valentligi n bo‘lgan M kation tutgan seolitning empirik formulasi quyidagicha bo‘ladi:  $M_2/n \text{Al}_2\text{O}_3x\text{SiO}_2y\text{H}_2\text{O}$ , bu yerda, x- kremniy dioksidi/alyuminiy oksidining (asosan 1 dan katta) molekulyar nisbatidir; u-gidratlangan molekulalarning soni.

Sotuvga beriladigan barcha seolitli adsorbentlar asosan kompozitsion materiallar bo‘lib, ular bir biri bilan bog‘lovchi moddalar bilan bog‘langan juda mayda kristallardan iborat. Bog‘lovchi materiallarning o‘zi esa yaxshigina adsorbsion sig‘imga egadir. Mikrog‘ovakli tuzilish bilan bog‘liq bo‘lgan seolitlarning adsorbsion sig‘imi shunchalik kichikki, ularni samarali sirt maydonini ta‘riflashning o‘ziga xojat ham qolmaydi. Ayrim kamchilik seolitlarga yaxshigina qo‘llanishi bo‘yicha qiziqishga ega (masalan, A, X, Y, ZSM-5 kabi belgilarga ega bo‘lganlari va Shuningdek mordenit, silikat kabilar). Ular asosan zarrachalari turli ko‘rinishga va o‘lchamlarga ega bo‘lgan turlicha «ional mashinuvchan» shakkarda (masalan, kalsiyli yoki natriyli) tayyorlanadi. Turli tuman seolitlarning ayrim markadagi vakillari 6.2. jadvalda keltirilgan. Ularning modifikatsiyalari: zarrachalarining diametri 1-6 mm bo‘lgan va diametri 0,5 – 3 mm o‘lchamli shar shakldagi ekstrudatlari, hamda o‘lchami 20x40 dan 6x12 mesh granula shakldagilari, Shuningdek, kukunsimon shakldagilari mavjuddir.

Seolitlar adsorbent sifatida havodagi kislородни, benzin-ligroin fraksiyadan normal tuzilishdagi parafinlarni, ksilol izomerlaridan para-ksilolni ajratish uchun qo‘llaniladi. Seoltilarni gaz fazada ajratishda qo‘llanilayotganida silikagel yoki alyuminiy oksidi ishlatilganiga ko‘ra juda qattiq sharoitlar zazrurdir. Masalan, ularni chuqur vakuumda yoki inert gaz bilan purkash bilan dastlabki  $300^{\circ}\text{C}$  haroratda ushlab turishiq talab qilinadi.

## Ko'p tarqalgan seolitlarning tavsiflari.

Seolit turi	Kation shakli	G'ovaklarining me'yoriy diametri, nm	Si/Al nisbati
3A	K	0,3	1
4A	Na	0,4	1
5A	Ca	0,59	1
10X	Ca	0,78	1,2
13X	Na	0,8	1,2
Y	K	0,8	2,4
mordenit	Na	0,7	5
ZSM-5	Na	0,5-0,56	>300
silikalit	-	0,6	-

## 6.3. Organik adsorbentlar

**Faol ko'mirlar** (aktivirovannaya ugol) – turli shakkarda foydalaniladi. Bu adsorbentlar ko'pgina materiallarning asosi hisoblanadi. Bulardan eng ko'plari quyidagilardir: neft koxsi, yog'och ko'miri (pista ko'mir), torf, koksning ko'mirlangan po'stlog'i, vinil polimerlari va regenerirlangan avtokamerallardan olingan materiallar.

Ko'mirni faollashtirish – ko'mirning tarkibidagi uglevodoroqlarni piroliz metodi bilan yo'qotish bilan amalga oshiriladi. Bunday sharoitlarda ko'mirda juda ham ko'plab mikrog'ovaklar hosil bo'lib, buning natijasida ushbu faol ko'mirning sirtidagi adsorbsion sig'imi kattalashadi. faollashtirishning turli sharoitlaridan foydalanish natijasida ko'mirning ichki sirtida turli tuzilishlarni hosil bo'lishiga olib keladi.

Adsorbsion sig'imga, selektivligiga (tanlanuvchanligiga), regenerirlanuvchanligiga, kinetik parametrlariga, yaroqliligiga va tannarxiga adsorbentlarning o'lchamlari bo'yicha g'ovaklarining taqsimlanganligi va sirt maydoni kattaligi, tashqi sirtining hossalari va kimyoviy tarkibi alohida ta'sir qiladi. Ularning samarali sirt maydoni katta ahamiyatga ega bo'lib, ayni ushbu kattalik bilan (boshqa

parametrlar mos kelgan shartda) adsorbsion sig‘imi aniqlanadi. Oddiy holatda sirt maydoni 300 dan 1500 m<sup>2</sup>/g lar atrofida bo‘lib, ayrim adsorbentlarda masalan neft koksi asosidagi adsorbentlarda bu qiymat 3000 m<sup>2</sup>/g dan oshadi.

Adsorbentlar uchun yana bir o‘ziga xos belgisi bu dastlabki materialning tabiatidan kelib chiqadigan bo‘lsa, ularning zolligidir. Ularning qiymati 2 dan 25% oralig‘ida bo‘lib, o‘rtacha qiymati 7% ga teng. Agarda yuqori zolliligiga zarurat bo‘lmasa, ishqoriy zolni uning sirtidan yoki sirtga yaqin joydan kislotalar bilan yuvish orqali yo‘qotish mumkin.

Adsorbent sifatida faol ko‘mir oddiy holatlarda zarrachasi diametrining o‘lchami 1 dan 3 mm gacha bo‘lgan sharsimon holatida, granula holatida, diametri 2 dan 4 mm gacha bo‘lgan ekstrudat holatida yoki kukun ko‘rinishda ishlatiladi.

#### **Ushbu adsorbentning eng ko‘p ishlatiladigan sohalari:**

-ichimlik yoki oqova suvlarini tozalash makqsadida ularni toksik organik birikkmalarni yo‘qotishda yoki suvgaga yoqimli ta’m va maza beruvchi moddalarni qayta ishlashda;

-gazlarni uchuvchan organik moddalardan tozalashda (alohiida holatlarda, regenerirlanayotgan erituvchilar bug‘laridan tozalashda);

-quduqdan chiqarib olinayotgan sifatsiz tabiiy gazni tozalab metanni sifatini oshirishda;

-oziq-ovqat mahsulotlarini rang beruvchi moddalardan tozalashda, dorivor moddalar va farmatsevtika mahsulotlarini tozalashda va h.k.

Faol ko‘mirlarni turli moddalar bilan to‘yintirish bilan gaz va suv muhitlardagi o‘ziga xos ifloslanishlarni ushlab qoluvchan xususiyatlarga ega bo‘lgan adsorbentlar olish mumkin. To‘yintirish uchun sulfat kislotasidan (ammiak va simobni yo‘qotish uchun), temir oksididan (vodorod sulfidini yoki merkaptanlarni bog‘lab olish uchun), rux oksididan (sianid kislotasini bog‘lab olishi uchun), og‘ir metallar aralashmalaridan (fosgenni, arsinni va asabni palajlantiradigan gazlarni ushlab qolish uchun) foydalaniadi.

Agarda gaz fazasida ajratish uchun foydalaniadigan bo‘linganida ushbu adsorbentlarni dastlabki qayta ishlash quyidagicha amalga oshiriladi: 200 °C gacha qizdiriladi hamda bu ishni ularni ishlab chiqarishning oxirgi bosqichida amalga oshiriladi. Chunki, texnologik qurilmalarga qoidaga asosan faol ko‘mirni juda ko‘p miqdorda yuklanadi va shunday sharoitlarda reaktorning yoki qurilmaning o‘zida

adsorbentni dastlabki ishlov berilishi amalda mumkin emas.

«Ko'mirli molekulyar to'rlar» deb nom olgan moddalar - nisbatan yangi mahsulotlar bo'lib, ular seolitli molekulyar to'rlarning analoglaridir. biroq, agarda seolitlarda kristallari sirtidagi mikrog'ovaklari bo'rtiqlari aylanma shaklga ega bo'lsalar, u holda ular uchun ko'mirning mikrog'ovaklari grafitning qavatlari orasida uchraydigan kesimlar ko'rinishida bo'lishi harakketlidir. Mikrog'ovaklarning bunday shaklda bo'lishi ma'lum texnologik sharoitlarda selektivlikni oshiradi.

Hozirgi vaqtida ularni amalda qo'llaniladigan yagona soha - havodan azotni ajratishning adsorbsion texnologiyasidir. Bunday holatda o'zgaruvchan bosimdagи adsorbsiya texnologiyasidan foydalaniлади, ularning ajratish usuli esa kislorod (0,368 nm) va azotning (0,343 nm) turli o'lchamlari bilan bog'liqidir.

#### **6.4. Polimer adsorbentlar.**

Polimer adsorbentlar turli shakllarda ishlataladi. Bunday polimer adsorbentlarning ichida eng uzoq tarixiy ahamiyatli bo'lgani g'ovaklari hajmi katta bo'lgan, zarrachalari shakli sferik bo'lgan polistirol va divinilbenzollarning inert sopolimerlaridir. Bu materiallar ionalmashinuvchan smolalar tayyorlashda xom ashyo sifatida ishlataladi.

Stirol-diviinbenzol sopolimerlaridan tashqari, polimetakrilat asosidagi, divinilbenzol-etilvinilbenzol sopolimerlari yoki polivinilpiridindan tayyyorlangan adsorbentlar, Shuningdek, ularning sulfolangan va xlormetillangan modifikatsiyalaridan foydalaniлади. Ularning ayrimlari yuqori gidrofillikka ega, hattoki quritigichlar sifatida ishlatalish uchun ham yaroqlidir. Qolganlari esa girofob materiallar jumlasiga kiradi.

Polimer materiallarning ichki tuzilishi «mikrosferik» bo'lib, ko'plab bir-biri bilan tegib turuvchi nuuqtalariga ega va bularning ta'sirida makrog'ovaklar hosil bo'lgan. Bunday «mikrosfera»larda asosan gelsimon tuzilish bo'lib, ular shuningdek g'ovaksimon ham bo'ladilar. Bundan tashqari, ayrim polimer adsorbentlar faol ko'mirni «faollashtirish» jarayoni kabi piroliz metodi bilan faollashtiriladi.

Oddiy sharoitlarda polimer adsorbentlar yaltiroq emas, ularning rangi polimer rangi bilan aniqlanadi. Ularning ko'pchiligi oq yoki sriqsimon, lekin ularning jigarrangli, zarg'aldoq va qora ranglilari ham

bor.

Polimer adsorbentlarning samarali sirt maydonlari kattaligi faoliyoti mirnikiga qaraganda nisbatan kam bo'lib, uning qiymati mos ravishlarda 5 dan 800 m<sup>2</sup>/g ga tengdir. G'ovaklari diametri 2,0 dan 200,0 nm gacha, faollashtirilganidan so'ngra esa 0,3 dan 200,0 nm gacha bo'ladi.

Hozirgi vaqtda polimer adsorbentlarni modifikatsiyalarining chegaralangan miqdori ishlab chiqilmoqda. Ularning ko'rinishi sharsimon zarrachalar bo'lib, ularning o'lchamlari uncha farq qilmaydi va diametri 0,3 dan 1 mm ni tashkil etadi. Bunday materiallarning aniq kamchiliklari bo'lib ular quyidagilardir: ularni siklik jarayonlarda qo'llanilganida hajmi kamayishi mumkin va yoki Shuning aksi ya'ni bo'kishi mumkin. Ularni gaz fazasida ajratish uchun ishlatilgnda ularni dastlabkki konditsionirlashni talab qilishi mumkin, masalan, ketma-ket quritish bilan ajratilayotgan aralashmani suv bilan yoki boshqa erituvchilar bilan yuvish kabi va h.k.

Ko'pgina polimer adsorbentlarning annarxi sotiladigan oddiy adsorbent materiallar narxidan o'nlab marta yuqoridir, Shuning uchun ulardan faqatgina ayrim holatlarda, masalan, odiy adsorbentlar bitan yuqori samaradorlikka umuman erisha olinmaydigan holatlarda foydalaniлади. Hozirgi vaqtda ulardan antibiotiklardan va vitaminlardan qo'shimchalarni ajratish va tozalashda, rangsizlantirishda, dekofeinlashda, qonni tozalashda, suvli muhitlardan quymolekulyar galogen tarkibli organik aralashmalarni ajratishda, Shuningdek, sanoat chiqindilari bo'lgan suvlardan fenol tarkibli moddalarni va chiquvchi gazlardagi uchuvchan organik moddalarni ajratishda foydalaniлади.

Boshqa turlardagi organik materiallar ham adsorbentlar sifatida ishlatilishi mumkin. Masalan, bunday materiallarga selluloza (eng ko'p tarqalgan biopolimer), xitin (tarqalishi bo'yicha ikkinchi o'rinda turadi), kollagen, sherst, kraxmal-poliamidli gellar (xona haroratida suvni o'z molkulyar massalariga nisbatan juda ko'plab miqdorlarda adsorbsiyalaydilar va ozgida qizdirilganida osongina desorbsiyalananadilar), makkajo'xoridan olinadigan polisaharidlar, va turli bilmassalar misol bo'ladi. Ularning ayrimlari aloxida maqsadlar uchun ishlatiladi, lekin bu materiallarning xech birini umumiy maqsadlar uchun ishlatiladigan adsorbent deb bo'lmaydi.

## **6.5. Adsorbsion qurilmalarni loyihalashtirishning asosiy jihatlari**

Adsorbsion sitemalarni loyihalashtirishda va ishlab chiqishda juda ko'p faktorlarni hisobga olish talab etiladi. Adsorbentni to'g'ri tanlashda albatta, adsorbsion muvozanatni, issiqlik effektini va adsorbent qavatining dinamik hossasini hisobga olish zarur.

### **Issiqlik effektlari, muvozanati**

Adsorbsion sig'imning, selektivlikning va regenerirlanuvchanlikning yuqori kattaliklari ko'p hollardamuvozanat sharoitlari bilan aniqlanadi. Adsorbent samaradorligining ushbu uchta kattaligini tajribada aniqlashda ularni to'g'ri tanlash kerak bo'ladi va muvozanatdagi o'zaro ta'sirlashuv holatini tushunish foydalidir.

Yuqorida aytib o'tilganidek, adsorbsion sig'imning ahamiyati konsentratsiya va haroratga juda bog'liqdir, Shuning uchun ko'p holatlarda ularni izoterma holatida keltiriladi. Amalda juda ham ko'plab izotermik tenglamalar bo'lib, ularning kerakligini tanlab olish ma'lum chegaralanishni talab qiladi.

Selektivlik turli almashinuvchilar tutgan matematik formulalar orqali harakterlanadigan ko'p komponentli muvozanat natijalarida aniqlanadi.biroq hisoblashlar uchun quyidagi formulalardan foydalanish qulaydir:

$$a_{ij} = (y_i/y_j)/(x_i/x_j),$$

Bu yerda,  $a_{ij}$  – j-oddaga nisbatan i-moddaning nisbiy selektivligini bildiradi;  $x_i$  va  $x_j$  - ushbu moddalarning mos ravishda suyuq va gaz fazalardagi mol ulushlari;

Birinchi parametri osongina o'lhash mumkin, lekin aniqlash juda qiyindir. Avvalgining ekvivalenti hisoblangan alternativ tenglamasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$a_{ij} = K_i/K_j.$$

Bu yerda,  $K_i$  va  $K_j$  - i va j-komponentlar uchun Genri qonunidagi koeffitsientlar. Bunday tenglik maqsadga muvofiqdir, chunki u berilgan haroratdagi qiymatlarida o'zgarmaydi va undan hisoblashlarda foydalanish qulaydir.

Regenerirlanuvchanlikka kelsak, qanday formula bilan aniq muvozanat holat munosabatlari yoziladi va foydalnilayotgan regenerirlash metodiga bog'liqmi degan savol tug'iladi. Masalan,

o'zgaruvchan haroratlardan iborat adsorbsion sikllar uchun ularning adsorbsiya bosqichlariga mos keluvchi izotermalaridan va regeneratsiyalanish bosqichi izotermalaridan kelib chiqqan parametrlarni olish mumkin. Ushbu ikki izotermalarni solishtirish orqali adsorbsion sig'imning o'zgarishini baholash mumkin. Regeneratsiyachlashning kimyoviy usullaridan (masalan, ajratib chiqarish yoki elyuirlash) yoki o'zgaruvchan bosimli sikllarni hisoblashda ushbu metodlarga taalluqli bo'lgan adsorbsion sig'im ma'lumotlaridan foydalaniladi.

Adiabatik sharoitlarda ketuvchi adsorbsion jarayonlar natijasida haroratning qanday oshishi adsorbsiyalanishning issiqlik kattaligi hisoblanadi degan ko'rsatkich muxim hisoblanadi.

Aynan shu kattalik gaz yoki bug' fazada regeneratsiyalash uchun kerakli bo'lган energiya o'lchovidir. SHuni aytish joizki, ushbu kattalikning kichik qiymatliligi maqsadga muvofiqroqdir.

Adsorbsiyalanishning issiqligini tuurli usullar yordamida izoxlash mumkin. Bizning maqsadimiz bo'yicha adsorbsiyalanishning izosterik issiqligidan foydalanish qulayroqdir, chunki u bir qancha adsorbsion qavatlar orqali kiritish yo'nalishidan gaz oqimini to'xtovsiz o'tkaziladigan (yoki gaz-tashuvchi oqimini) jarayonlarni izohlash uchun yaroqlidir. Berilgan adsorbsion sig'imda ushbu issiqlik quyidagi formula bilan yoziladi:

$$Q_{st} = -R[\partial(np)/\partial(1/T)]_n.$$

Bu yerda, R- gaz doimisi; p va n – toza gazni o'tkazish holatidagi umumi bosim va adsorbsion sig'im (ko'pincha issiqlik effektini aniqlashda foydalaniladi) yoki aralashmalarni tozalashdagi parsial bosim va komponentlarning adsorbsion sig'imi. Bu formula bug'lanish issiqligini aniqlashdagi formulaga mosdir, bundan tashqari bu formula haroratga kuchsiz bog'liqlilikni aks ettiradi.

U holda adsorbent bilan adsorbsiyalanuvchi modda qanday ta'sirlashishi adsorbsiyalanishning izotermik issiqligi bilan adsorbsion sig'imning bog'liqligi bilan namoyon bo'ladi. Hosil bo'lgan egri chiziqning asta og'ishi shuni ko'rsatadiki, adsorbsiyalanish kichik konsentratsiyalarda katta qiymatlidir, balki bu holat sirtning bir xilda emasligi natijasida adsorbsion ta'sirga oson uchraydigan qismlari moddalar bilan to'lib qolib regeneratsiyalanishini qiyinlashtirishi sababchidir. Qiymatlarni astalik bilan oshirish aksincha, regeneratsiyalanishning oson bo'lislarni ko'rsatadi, va ayniqsa bu

adsorbsiyalanishning kichik qiymatlarida namoyon bo‘ladi. Aarda ushbu grafikning egrisi chizilgan ekan, u holda adsorbsiyalanishning issiqligi jarayonga ta’sir etmaydi.

### **Izotermalarni hisoblash**

Adsorbsion qurilmalar uchun kapital sarflar adsorbsion sig‘im qiymati bilan aniqlanar ekan, adsorbsion sig‘imi kiritilayotgan oqimni kimyoviy tarkibi funksiyasi sifatida izoxlash uchun yaxshi izoterma hosil qilishga erishish adsorbsion texnologiyalarni ishlab chiqishda xal qilinishi kerak bo‘lgan muxim vazifalar jumlasiga kiradi. Mavjud bo‘lgan vositalar bilan xalicha adsorbsion sig‘im kattaligini hisoblash imkonи yo‘q, chunki buning uchun doimo tajriba natijalari kerakdir.


### **O‘lchashlarni amalgा oshirish**

Kerakli ma’lumotlarni hajmiy taxlillar yordamida yoki gravimetrik va xromatografik taxlil usullari bilan olish mumkin. Oxirgi ikki metod (gravimetrik va xromatografik) bilan hajmiy taxlil maqsadga muvofiqroqdir: ular yetarli darajada aniqligi, narxi pastligi va oson yondoshuvchanliligi bilan farqlanadi. Bunday talila adsorbent solingan idishdan foydalaniladi va uni ketma-ket suyuq fazasidagi kkonsentratsiyasining o‘zgarishini o‘lchanadi. Hosil qilingan oxirgi konsentratsiya ko‘rsatkichi bilan massalar farqini hisoblanai va keyin esa adsorbsiyalangan modda miqdorini hisoblanadi.

Gravimetrik metoddan asosan gaz fazasidagi adsorbsiyalanishni o‘lchanadi. Gravimetrik o‘lchash usuli juda aniq va oson bo‘lib, deyarli murakkab jihozlarni talab qiladi (masalan, kvars prujinali tarozilar mavjudligi) va kuplab vaqt talab etadi (alohipda hollarda ko‘p martalab germetiklash va adsorbentli kolonkalarni tarozida torish ishlari).

Uchinchi metoda – xromatografiya usulidan foydalanilganida esa adsorbentni maydalanadi va xromatografik kolonnaga joylanadi, keyin injektor orqali gaz-tashuvchi oqimiga tadqiq qilinayotgan moddadan kiritiladi. Bu asosan skrining metodi bo‘lib, ko‘pincha undan gazlarni tadqiq qilishda foydalaniladi.

Olingan grafik ma’lumotlari esa 6.3- rasmda ko‘rsatilgandek shaklga ega bo‘lishi mumkin.



**6.3-rasm. Adsorbsiyalanishning turli ko‘rinishdagi izotermalari  
(matnda belgilanishi bo‘yicha).**

I-egri chiziq shishib chiqqan holda bo‘lib (pastdan yuqoriga qarab egilgan) «ko‘ngildagidek» iotermaga mansubdir. Umuman bunga qarama-qarshi bo‘lgan ko‘rinishdagi egi chiziq II-turida bo‘lib, «ko‘ngildagidek emas» izoterma turiga kiradi. Adsorbsion sitemalar egri chiziqlarining sakrashi bilan tavsiflanib, buni ushbu soha mutaxasislari adsorbsiyalanishdagi o‘z-o‘zidan torayish deb ataydilar. III, IV va V-tuuridagi egri chiziqlar esa ketma-ket keluvchi bukchaygan va og‘ishgan maydonlariga ega bo‘lib, mos ravishda ular ikkla turdagи sistemaning egri chiziqlari hosil bo‘lishiga to‘g‘ri keladi.

Jarayonlarda IV va V-tuuridagi egrilar bilan tavsiflanadigan holatlarda gisterezis kuzatilishi mumkin bo‘lib, u jarayonning kinetik parametrlariga va regenerirlanuvchanlikka ta’sir etishi mumkin. Gisterezisda adsorbsiyalanish izotemasidan farq qiladigan izotermaga mos ravishda desorbsiyalanish sodir bo‘ladi. Bu holat asosan adsorbent ayrim g‘ovaklarining suyuqlik bilan to‘lib qolib u yerdan chiqib keta olmagan holatida namoyon bo‘ladi.

#### **Izoterma tenglamasi:**

O‘lchash natijalari grafikka kiritilgach, ushbu grafikni tavsiflay oladigan matematik tenglamani topish savoli turadi. Buning uchun turli murakkabliklardagi empirik va ke‘proq nazariy usullar mavjuddir.

## Ularning eng asosiyлари 6.3- jadvalda keltirilgan.

Jadvalda keltirilgan tenglamalarning ko‘pchiligidagi S-konsentrasiyaning suyuq fazadagi hoxlangan shakllaridan foydalanish mumkin: masalan, mollar soni kub/metrda, grammlar soni kub/santimetrda, parsial bosimlar kattaligi yoki million ulushlar soni (ppm) larda va h.k. xudi shunday, **n**-adsorbsion sig‘imning xoxlangan o‘lchov birliklari qabul qilinadi, Shuningdek, alohida qavat uchun  $n_M$ -qattalik (A-E tenglama) yoki maksimal adsorbsion sig‘im (F-N tenglama). A, B va D parametrlar bu tenglamalarda empirik hisoblanadi.

### 6.3- jadval

#### Toza komponentlar uchun izotermik tenglamalar

A. Genri qonuni	$n^* = K n_M C$
V. Lengmyur	$n^* = K n_M C / (1 + KC)$
S. Freyndlix	$n^* = AC^B$
D. Braunauer-Emmett-Tellur (BET)	$n^* = K n_M Cr / [1 + (R - 1)C_r]^* [1 - Cr]$
E. VDDT	$n^* = \frac{K n_m Cr [1 + m(g - 1)Cr^{m-1} + gCr^{m-1} - (2g - 1)Cr^m]}{(1 - Cr)^* \{1 + [K - 1]Cr + K[Cr + K(g - 1)Cr^m - Cr^{m+1}]}\}$
F. Ikkilamchi <sup>1</sup>	$n^* = K_1 n_m C / (1 + K_1 C) + K_2 C$
G. Redlix-Peterson	$n^* = K n_m C / (1 + KC^B)$
H. Lengmyur-Freyndlix	$n^* = A n_m C^H / (1 + AC^H)$
I. Sips	$n^* = n_m \sum AC / (1 + AC)^{\frac{1}{n}}$
J. Tot <sup>2</sup>	$n^* = KC / (1 + C^H / A)^{\frac{1}{H}}$
K. YUnilan <sup>3</sup>	$n^* = n_m / 2B * \ln^* \frac{D + C \exp(B)}{D + C \exp(-B)}$
L. Dubinin-Radushkevich <sup>4</sup>	$n^* = n_m \exp^* \{2[(K_0 e / b_0)^2]\}$
M. Dubinin-Astaxov <sup>4</sup>	$n^* = n_m \exp^* \{ [(K_0 e / b_0)^n]\}$
N. Dubinin-	$n^* = n_{m1} \exp^* \{ -[(K_{01} e / b_{01})^2]\} + n_{m2} \exp^* \{ -[(K_{02} e / b_{02})^2]\}$

## Stoyakli<sup>4,5</sup>

Belgilari (matnga han qarang):  $n^*$ - adsorbsion sig'imi;  $n_M$ -monqavat sig'imi (A-E tenglama) yoki maksimal adsorbsion sig'imi (F-N tenglama); K-Genri qonuni koeffitsienti; C-konsentratsiya;  $C_{sat}$ -to'yinganlik koeffitsienti;  $C_r/C_{sat}$  ga teng bo'lgan reduksion konsentratsiya; A,B,D-empirik parametrler; E-adsorbsion potensial;  $k_0$ -shakllar parametrleri;  $v_0$ - affinlik koeffitsienti; n-g'ovak turini tavsiflovchi koeffitsient; M1, M2-g'ovak o'lchamlarining turliha taqsimlanishining chiziq osti indeksi

Ogohlantirishlar.

1. G' tenglamadagi K koeffitsient  $K_1+K_2$  yig'indiga mos keladi;
2. J tenglamadagi  $n_M$ - parametr  $KA^{1/V}$  ga mos keladi;
3. K tenglamadagi K koeffitsient  $n_M \sinh(B)/BD$  ga mos keladi;
4. L, M, N- tenglamalardagi  $n^*$  va  $n_M$ - parametrlari adsorbsiyalangan massa birligi hajmida yoki adsorbent hajmida keltiriladi;
5. N tenglamadagi  $n_M$ -parametr  $n_{M1} + n_{M2}$  summasiga mos keladi.

Oddiy matematik tenglamaga muvozanat belgisini kiritish mumkin, adsorbsiyalanish darajasi esa suyuq fazada konsentratsiyaga proporsionaldir. Bu jadvaldaggi A-tenglamaga mos kelib, Genri qonuniga olib keladi.

V-tenglamadagi Lengmyur izotermasidagi adsorbsiyalanayotgan modda bilan adsorbentning sirtini qoplanashini matematik yozilishi uchun bo'lib, buni ifodalashda adsorbsiya-desorbsiya jarayonida sedir bo'ladigan bog'lanish va ozod bo'lishning nisbiy tezliklarini solishtirish metodidan foydalilanadi. Negaki, adsorbsiyalanish yutilish sirtning erkin bo'lish ulushiga bog'liq bo'lsa, sirtdan ozod bo'lish esa-desorbsiyalanish uning sirdagi egallangan ulushi bilan proporsionaldir. Ushbu jarayonlar tezliklarining muvozanat konstantalari Genri qonunidan kelib chiqadigan **K**-koeffitsienti hisoblanadi. Bu tenglama ayniqsa kimyogar-texnologlar tomonidan ko'p foydalilanadi.

Agarda olingan natijalar chiziqli koordinatalarga to'g'ri kelmasa u holda S – tenglamasidagi (jadvalga qarang) Freyndlix izotermasiga o'tish mantiqqa to'g'ri keladi. Termodinamika nuqtai nazaridan kamchiliklarga qaramasdan ushbu tenglama qolgan holatlar uchun ko'proq mutaxassis-texnologlar tomonidan foydalilanadi.

Adsorbent g'ovaklarining adsorbsiyalangan moddaning oddiy monoqavat bilan emas balki bir necha qavatlar bilan to'lishi kengroq ravishda Brunauer-Emmet-Tellur (BET) va Brunauer, Deming, Deming-Teller (BDDT) izotermalari bilan real ravishda hisobga olinadi, bu jadvaldag'i mos ravishda D va E tenglamalardir. Ularda redutsirlangan konsentratsiyalarga oid parametrlardan foydalanilib ( $C_r$ -parametri), u  $S/S_{sat}$  nisbat bo'lib, g'ovaklar to'lishi natijasida uning qiymati birga yaqin bo'ladi. BDDT-izotermasi o'zining qulayligiga ega (jamlanganligi tufayli) bo'lib, ularda aniq holda m-qavatlar soni va Shuningdek, **g**-adsorbsiyalanish issiqligi parametri e'tiborga olinadi. BET-izotermalari texnologik ishlanmaning borishini emas balki asosan adsorbentning sitr maydonini baholash uchun qo'llaniladi.

F-tenglamadagi ikkilamchi izoterma Lengmyur zotermasi va Genri qonuni kombinatsiyasi hisoblanadi. Tenglamadagi Lengmyurning **G-K** izotermasi esa chiziqlikdan chetlashishlarni ilg'ab qolish mushkul bo'lgan farqlarni hisobga oluvchi parametrlar bilan to'ldirilgan va uning eksponensial matematik shakli ishlatilgan.

6.3- jadvaldag'i oxirgi uchta tenglamalar adsorbsiyalanish va kondensatsiyalanish orasidagi analoglari bo'yicha keltirib chiqarilgan. Ularda i-komponentning adsorbsion potensialini belgilovchi  $E_i$ -parametr qo'llaniladi. Ushbu parametr toza suyuqlikning uchuvchanligi va muvozanat holatdag'i uchuvchanligi orqali ifodalanadi (yoki parsial bosimlar bilan yoinki suyuq fazaga bo'lganida konsentratsiyalar orqali), lekin barcha variantlarda  $E_i$ -parametr qiymati mos keluvchi harorat qiymatlari bilan aniqlanadi. Bug'larda (uchuvchanlikni hisobga olmaganda) adsorbsion potensial adsorbsiyalanuvchan komponentni parsial bosim tengligidan uning bug'lari bosimi tengligigacha siqish uchun kerakli ishga ekvivalentdir.

Agarda bir-biriga o'xshash moddalarning adsorbsion potensiallari teng bo'lsa, bita adsorbent bilan ushu moddalarning teng hajmdagi miqdorigina adsorbsiyalanadi. SHunday qilib, adsorbsiyalanish hajmining adsorbsion potensial kattaligi bilan bog'liqligi grafigi qo'llanilayotgan moddalar guruhi uchun va ayni adsorbent uchun o'ziga xos egi chiziqdan iboratdir.

Adsorbsion potensialni parametrini hisobga oluvchi izotermik tenglamlarda adsorbsion potensial turli darajalarda kiritilib, u yoki bu turdag'i g'ovakli adsorbent *zarrachalaridagi o'ziga xosliligiga empirik mos keladi*.

Masalan, L-tenglamada (Dubinin-Radushkevich izotermasi) 2 daraja ko'rsatkichidan foydalanilib, aniqlanishicha bu qiymat mikrog'ovakli adsorbentlardan foydalanilganida yaroqli hisoblanadi.

M tenglama (Dubinin-Astaxova izotermasi) daraja ko'rsatkichini o'zgartirishga imkon beradi, N – tenglamada (Dubinin-Stoeckli izotermasi) faqatgina oddiy g'ovak o'lchamigina hisobga olinmasdan balki ko'pgina adsorbentlar uchun xos bo'lgan ikki xil o'lchamli g'ovaklar joylashuvini ham

hisobga oladi. Bu tenglamani yanada kengaytirish mumkin va adsorbentdagagi hattoki katta o'lchamlardagi g'ovaklarini xech bo'limganda amalda uni uchta maksimal tarqalishiini hisobga olganda amalda qo'llanilsa hamki hisobga olish mumkin.

L, M va N tenglamalardagi  $K_0$ -parametri grafikdagi  $n^*-E$  bog'liqlikni hisobga oladiyu.  $V_0$  parametr esa «affinost koefitsienti» nomini olgan bo'lib, u «o'ylab topilgan faktor» hisoblanadi, buning yordamida esa ayni izotermada muxandisni qiziqtiruvchi bog'langnalik ayni izotermada yaxshi aksini topadi. N-tenglamadagi  $M_1$  va  $M_2$  indekslar g'ovaklar o'lchamlarining ikki xilda tarqaganligiini belgilaydi.

### Tenglamani tanlash:

6.3- jadvaldagagi keltirilgan izotermik tenglamalardan mutaxasi o'ziga xoxlaganini tanlab olishi mumkin. Lekin, kerakli bo'lgan tenglamani tanlab olishning aniq bir qoidasi mavjud emas.

Tenglamani tanlashda ko'pincha «qanchalik soda bo'lsa shunchalik oson» prinsipiaga amal qilinadi. Ayniqsa bu usulni agarda tenglamada turli ma'lumotlaning katta sonidan foydalanilsa qo'llaniladi. Biroq, unchalik sezilarli bo'limgan izotermalar parametrlarining birligida kirib kelayotgan oqim va adsorbent o'rtaida o'zaro ta'sir unchalik katta emasligit mavjusligidan dalolat beradi, bu esa adsorbsion kolonnalarining ishlashida kuzatilishi mumkin. Shuning uchun, jiddiy qisqartirishlarni qabul qilinganida avvalam bor birinchi navbatda ko'rinadigan parametrlarni qisqartirishdan saqlanish kerak. Ideal sharoitlardan yoki ma'lum holatlar bo'lgan hodisalarini hisobga oluvchi oddiy tenglamalardan foydalanish yaxshi yondoshish hisobladи.

### Aralashmalar bilan ishlash:

Adsorbsion kolonnaga kirib keluvchi oqimlar ko'pincha bittagina adsorbsiyalanadigan komponenti bo'lmay balki bir necha

komponentlardan iborat bo‘ladi. Bunday sistemalar bilan ishlash uchun beshta asosiy prinsip mavjud.

**Birinchi yondoshishda** – adsorbsiyalanuvchan komponentlardagi kerak byuo‘Imagan aralashmalar oddi usulda ajratiladi va buning natijasida ularni adsorbsion ajratishda mutlaqo ishgga yaroqsiz natijalarga olib kelishi mumkin. Bunday usul faqatgina agarda ayni shu aralashmalar asosiy komponentlarga nisbatan juda ham yomon adsorbsiyalanadigan bo‘lganidagina qo‘llanilishi mumkin,

**Ikkinchi yondoshishi** – bunda har bir komponent adsorbsiyalanishi boshqalariga bog‘liq bo‘Imagan holatda kurib chiqiladi, agar adsorbsiyalanmaydigan tashuvchida juda kichik konsentratsiyalarda iflosantiruvchi moddalar bo‘lsagina bu foydali va aniq natijalar beradi. Bunday holatlarda hisoblashlarni faqatgina toza komponentlar izotermalaridan foydalanib amalga oshiriladi.

**Uchinchchi variantda** – «komponentlarni guruhlash» nomi bilan ma’lum bo‘lib, bu qoida Nyu-York Sirakuza universiteti kimyo texnologiyasi fakulteti xodimlari bilan professor CHi Ten tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, bir necha aralashmalardan iborat kirib kelayotgan alarlashmani ikki yoki uchta componentlardan iborat deb qaraladi. Masalaga bunday yondoshish agarda faqatgina qo‘pol natijalar olnadigan bo‘lsa vaqtadan yutishga, mablag‘dan tejashga imkon beradi. Bu metod toza komponentlarning izotermalarini ayrim parametrlarini bilishni talab qiladi.

**To‘rtinchi yondashish** – bunda 6.4.jadvaldagagi bir necha empirik izotermalaring biridan foydalanish ko‘zda tutiladi. Bunda adsorbsiyalanishga uchraydigan komponentlarning «raqobatli» adsorbsiyasini hisobga olinadi. Bu esa toza komponentlar va aralashmalar izotermalaridan foydalanishni talab qiladi. Qanday tenglama tanlab olinganligiga qarab, matematik tenglamani taxlil qilish toza komponentlardagi holatga nisbatan yanada qiyin bo‘lishi mumkin.

**Beshinchi prinsip** – mutaxassis bitta model aralashmaan foydalanib adsorbsiyalanayotgan moddaning o‘zaro ta’sirini hisobga olgan holda bug‘-suyuqlik muvozanatini e’tiborga oladi. Bu yondashish murakkab matematik shakllantirishni talab qilsa hamki, ko‘pincha uning faqat bir o‘zi yetarli darajada aniq bir natija olishni ta’minlashga qodirdir.

Bir necha komponentlar uchun izoterma tenglamalari.

Bir necha komponentlar uchun izoterma tenglamalar	
A. Genri qonuni	$n_i^* = K_i n_M C_i$
B. Markham-Benton	$n_i^* = K_i n_M C_i / (1 + SK_i C_i)$
C. SHey	$n_i^* = (K_i n_M C_i / h_i) / [(1 + S(K_i n_M C_i / h_i))]$
D. YAn-Tyumok	$n_i^* = n_M (KC_i)^b / [1 + (KC_i)^b]$
E. Sips-YU-Neretniks	$n_i^* = n_M KC_i (KC_i)^{b-1} / [1 + (KC_i)^b]$
F. Redlix-Peterson-Sidel	$n_i^* = A_i C_i / [1 + B_i C^{D_i} refC_i^{(D_i-D_i)} (A_i C_i)^{D_i}]$
Belgilar: n*- adsorbsion sig‘im; n <sub>M</sub> - monoqavatli yoki maksimal adsorbsion sig‘im; K- Genri qonuni koefitsienti; C- konsentratsiya; A,B,D- empirik parametrlar; n- o‘zaro ta’sirlashish parametri;	Chiziq osti indekslar: i- qiziqtilayotgan komponentga tegishli qiymat (masalan, kiritilayotganda adsorbsiyalanuvchi komponent uchun); j- kiritilish oqimi tarkibidagi boshqa komponentlar uchun taalluqli; ij- kiritish oqimidagi qiziqtilayotgan va boshqa komponentlarning o‘zaro ta’siriga bog‘liq

### 6.3. Adsorbsiya dinamikasi

Adsorbent tanlashda diqqatni adsorbsion qavatda transport hodisalarini uchchala holatlarini e’tiborga olish kerak: bular, zarrachalarning o‘zini ichidagi diffeziyalanish, fazalardagi massauztish va qalin qavatlarda bosimning tushib ketishidir.

#### Zarracha ichidagi diffuziya:

Adsorbsion jarayonlarda har bir vaqt oraliq‘da zarryacha ichidagi diffuziya tezligi alohida zarrachalar o‘lchamlariga (zarrachalar shakli

sferik yoki silindrik bo'lganida ular l-radiulari kattaligi bilan xarakterlanishi mumkin), ayni sistemada  $D_{eff}$ - diffuziya boshlanishi momentidan boshlab diffuziyalanishning effektiv koefitsientigicha bo'lgan vaqtga bog'liq.  $D_{eff}$ -parametri  $D_{AV}E_R/r$ - ga ekvivalent bo'lib, bu yerda  $D_{AV}$ -ayni suyuqlikda erigan moddaning diffuziyalanish koefitsienti,  $E_R$ - zarracha g'ovaklari ichida bo'shliq ulushi, r-ularning qiyshiqligi.

$D_{eff}/l$  – zarrachaning ichkki qismidagi qancha modda adsorbsion jarayonda qanchalik oson ishtirok etayotganini bildiruvchi ko'rsatkich. Shunday qilib, effektiv (tezlik bilan) adsorbsiyalanish diffuziyalanishning yuqori koefitsienti bilan yoki zarrachaning kichik diametrliliga bog'liq yoki ushbu faktorning ikkisi ham birga yaxshi natija berishiga sababchidir. Biroq, quyida ko'rsatilganidek, bosimning pasayib ketishi bilan bog'liq bo'lgan tushuncha zarrachaning maydaligi bilan bog'liq barcha argumentlarni e'tiborga olishni talab qiladi.

### Qabul qilish fazasidagi massa uzatish

Matematik korrelyatsiya ma'lum bo'lib (shunday shart bo'lsinki, bunda sistemada adsorbentning qo'zg'almas qavati ishlatalmoqda):

$$j_D = 1,17 Re^{-0.415} \quad 10 < Re < 2500,$$

Bu yerda,  $Re$ - ayni sistemaga tegishli Reynolds soni ( $\rho v d_p / \mu$ , bu yerdani to'rtta parametrlar mos ravishda belgilanadi: suyuqlik zichligi, zarracha diametr iva suyuqlik qovushqoqligi),  $j_D$  -  $j$ - Kolburna-Xilton faktorii. Oxirgi son quydagiga teng:  $(k/v)Sc^{0.667}$ , bu yerda  $k$ -suyuqlik – zarracha sistemasi uchun massauzatish koefitsienti,  $Sc$  - SHmidtta soni bo'lib u  $m/pD_{AB}$  ga teng.

Ushbu ko'rinishdagi tenglamada qabul qiluvchi fazaning massauzatishi  $k$ -parametr bilan harakterlanadi. K-kattalik esa asosan suyuqlik hossasi bilan, sirt tezliig bilan, Shuningdek adsorbentning biron parametri masalan – zarracha o'lchami  $d_p$  bilan aniqlaandi.

$k$ -kattaligining  $d_p$ -kattalikka nisbatan teskari holatda 0,415 gacha o'zgaradi. Shuning uchun ayni oqimning tezligida ma'lum suyuqlik uchun zarrachaning o'lchamini o'n kara kamaytirish natijasi massauzatish koefitsientini taxminan uch marta oshishiga sabab bo'lishi mumkin edi. Bunday korrelyatsiyadan shuni ko'rish mumkinki, massa uzatish koefitsientining hattoki to'rt marotalah

ko‘payishi ham tezlikning o‘n kara kko‘payishiga olib kelishi mumkin edi. Lekin, k-qiyomatni oshirishga tezlikni oshirish bilan erishish aqlga sig‘maydi, chunki, adsorbsion qavatning suyuqlik bilan kontakt vaqtin tezlik kattaligiga teskarri proporsional bo‘lib, adsorbent qavatidan suyuqlik tez o‘tishi oshgan sari adsorbsiyalash jarayonida adsorbent ishtiroti kamayishi mumkindir.

## 6.7. Adsorbentning qalin qavatlarda bosimning pasayib ketishi

Ko‘pgina adsorbsion qurilmalar nisbatan uncha katta bo‘limgan bosimning pasayishi bilan ishlaydi. SHunday holatni saqlash maqsadida yirikroq o‘lchamli adsorbent zarrachalirdan foydalanishga harakat qilinadi. bosimning tushib ketishini ta’minlaydigan boshqa faktor suyuqliknin katta bo‘limgan tezligida ishlatish hisoblanadi, o‘z vaqtida bu suyuqlik va adsorbent o‘rtasida muvozanatni tiklashga turki bo‘ladi. Suyuqlikning tezligi kichik bo‘lishini ta’minalash uchun adsorbentni yupqa kavatlisini uzunasiga emas balki katta diametrli qisqa-qisqa qalin qavatlarga taxlanadi.

Bunday texnologik sharoitda quvur tamoqlari, klapanlar va shtutserlar balki adsorbent qavati kabi bosimning tushib ketishi kabi ta’sirga uchraydi. Eng yaxshisi ikki martalab tekshirish yaxshi gatija beradi. Bunday tekshirish uchun adsorbentning qisqa qavatlari orqali past tezlikda o‘tuvchi oqimlar uchun qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan Ergun tenglamasidan foydalaniladi:

$$P/L = \{150[(1-E)/Re] + 1,75\} \left( \rho fv^2, 1-E \right) / (g_c d_p E^3)$$

Formulada keltirilgan Reynolds soni yuqorida yozilgan aniqlikka mos keladi; L-adsorbent qavatlari o‘tayyotganida o‘zaro joylashayotgan oqimning oraliq masofasi; E- qavatning g‘ovakliligi bo‘lib, adsorbsion qavatdagi bo‘sliqning ulushi (zarracha ichidagi bo‘sliq emas).

Adsorbsion sistemalarning hisoblanishlari kko‘p qirralidir va u qo‘yilgan masalaga bog‘liq. Ushbu yo‘nalish bo‘yicha yetarlicha ma’lumotlar [2]-adabiyotlar manbaida mavjuddir. Biz esa adabiyotlarda keltirilmagan va ma’sus bog‘liqliklarni bilish talab qilinadigan oddiy hisoblashlardan foydalanishni ko‘rib chiqamiz.

## **6.8. Adsorbsion qurilmalarni baholovchi hisoblashlar**

Bu hisoblashlar orqali qurilmaning asosiy apparatlari o'lchamlarini aniqlash imkonini, uning tarkibini turli variantlarda moslashtirilishini imkonini beradi va uning iqtisodiy tomndan maqsadga muvofiqligini avvaldan baholashga imkon beradi. Qoidaga asosan, hisoblashlarning aniqligi oxirgi hisoblashlardan atigi  $\pm 10\%$  dan ko'p emas.

Adsorberlash o'lchamlarini aniqlash uchun avvalam bor ularning ichki diametrlarini aniqlash zarurdir. U esa asosan xom ashyoning va yordamchi oqimlarning sarflanish kattaligiga, yuklanayotgan adsorbent miqdoriga va qavatning gidrodinamik qarshiligiga bog'liqdir.

Adsorbentning kerakli miqdorini esa adsorbsiyalanish izotermasi orqali aniqlanadi. Bunda esa qoidaga asosan adsorber kamida bir yil ekspluatatsiyada bo'lishi kerak va bu vaqtda adsorbentning adsorbsion xossasi kamayishi mumkin bo'lib, uning ko'payib ketishi jarayonlarga ta'sir etib texnologik oqimlarni tozalash va quritishni (normal-alkanlarni ajratish, vodorodni konsentralash va h.k.) 30% miqdorda oshirib yuboradi, qisqa siklli jarayonlarda esa deyarli bu holat 2 yoki 3 marta oshadi. Bu holat esa aniq adsorbent uchun adsorbsiyalanish izotermasini bilishni talab etadi.


Arim holatlarda bunday yondoshishni soddallashtirish mumkin, lekin bunday hollarda malum qonuniyatlar va bog'liqliklar aniq bo'lishi kerak. Ular qoidaga asosan ularni sanoat miqyosida ayrboshlovchi va texnologiyalarini ishlab chiquvchi firmalar materiallarida keltirilgan bo'ladi.

6.4-rasmda oqimning tavsiya etilgan oqimning maksimal tezligining (yuqorida pastga qarab yo'nalishda) seolitlar yordamida gaz muxitini quritishda adsorberning ishchi bosimi o'rtasidagi bog'liqlik keltirilgan..

Adsorbyerdagi chiziqli tezlik deb apparat orqali gazning erkin o'tish tezligi qabul qilinadi. YUqori tezliklarda yoki adsorbent buzilishni boshlayodi, yoki adsorbsiya sharoiti tezda yomonlashadi.

Maksimal chiziqli tezlik va minimal diametr (yoki adsorberning ko'ndalang kesimi maydoni bilan) o'rtasida qartarma bog'liqlik bor. Asosan ruxsat etilgan chiziqli maksimal tezlikdan minimal diametrni topish orqali berilgan miqdordagi adsorbent uchun qavat balandligini

topiladi. Paski qismida tayanchli tarelkasi bo'lgan adsorberlar uchun uning diametri 7,6 metrdan oshib ketmasligi kerak [4]. Aks holatlarda ayni turdag'i adsorberlarda oraliq tayanchlar o'matilishi ko'zda tutilishi kerak bo'ladi, lekin bu esa adsorbent ichidagi gidrodinamikasiga, massa- va issiqlik almashinishiga kuchli ta'sir qiladi.




**6.4-rasm. Adsorbenning ishchi bosimi bilan oqimning maksimal chiziqli tezligi orasidagi bog'liqlik grafigi.**

Agarda hisoblashda diametrning minimal o'lchanida ham adsorbent qavatining qalinligi 7,6 metrdan ko'p bo'lsa diametrni shunday tanlanadiki, bunda balandlikda chegaralanish bajarilishi kerakdir. Qavatni qalinligining quyi chegarasi uchun shart shuki, u adsorbenning diametriga teng yoki unan kata bo'lishi kerak va bunda uning o'lchami 1,8 metrdan oshmasligi kerak [4]. Agarda hisoblashda kerakli natija olinmasa u holda adsorbsiyalanish davomiyiliginini ko'paytiriladi. Qavatning quyi chegaralangan balandligi massa almashini hududini shakllantirish bilan bog'liqidir.

Agar qurilma faqtgina gazni quritish uchungina moslashrtirilgan


bo Isa, u holda seolitning kerakli miqdorini 6.5-rasm bilan aniqlanadi:



Quritilayotgan gazdag suvning tarkibi, kg/ming, m<sup>3</sup>..

**6.5-rasm. Adsorbsiyalanish bosqichi davomiyligi 24 soat bo‘lgandagi gaz oqimini (sutkasisiga 28 ming m<sup>3</sup>) adsorbyerde quritish uchun kerakli seolitning (molekulyar to‘r) miqdori**


6.6.-rasmdan gazlardagi suv va uglerod dioksidini birlashtirish mumkin. Bu bog‘liqlik SO<sub>2</sub> ning konsentratsiyasi 0,03 da 1,2% hajmi ulushda bo‘lganida, bosim 4,0–7,0 MPa va adsorbsiyalanish bosqichidagi harorat 20–50 °S orliqlarida bo‘lganda qo‘llaniladi.




Tozalanayotgan gazdagi  $\text{SO}_2$  miqdori, % hajmiy.

### 6.6-rasm. Uglevodorodli gazni bir vaqtning o‘zida suvdan quritish va $\text{SO}_2$ dan tozalash uchun kerakli bo‘lgan seolitning miqdori.

Adsorberlar o‘lchamlarini aniqlanganidan so‘ng, desorbsiyalanish bosqichiga kerakli gaz sarfini hisoblash kerak va texnologik oqimiga kerakli energetik sarflanishlarni aniqlash kerak. Agarda quritish uchun qurilma hisoblanayotgan bo‘lsa yoki gaz oqimididan suvni uglered dioksidi bilan birgalikda yo‘qotish qurilmasi hisoblanayotgan bo‘lsa uholda desorbsiyalanish uchun kerakli gazning sarsini aniqlash uchun 6.7 va 6.8. rasmlarda keltirilgan grafiklardan foydalanish mumkin.



**6.7-rasm.** Regeneratsion gazning bir vaqtning o‘zida uglevodorodli gazni quritish va tozalash uchun kerakli sarfi ko‘rsatkichi (shart-sharoit: adsorbsiyadagi kabi bosimda regeneratsiya bajarilmoqda, qizdirish vaqtiga adsorbsiyalash vaqtining  $5/8$  qismiga teng, regeneratsiyalash gazining harorati  $350^{\circ}\text{S}$  ga teng).



**6.8-rasm.** Uglevodorodli gazni bir vaqtning o‘zida  $\text{SO}_2$  dan tozalash va quritish uchun regeneratsion gazning sarfi (shart-sharoit: adsorbsiyadagi kabi bosimda regeneratsiyalash ham amalgam oshirilmoqda; qizdirish vaqtiga adsorbsiyalash vaqtiga teng, regeneratsion gaz harorati  $350^{\circ}\text{C}$ ; ishchi bosimni hisobga olish uchun  $0,87e R * 0,000536$  formula bilan qayta hisoblashni amalgam oshirish kerak).

Ularning biri desorbentning harorati  $350^{\circ}\text{C}$  bo‘lganiga va adsorbsiyalanish-desorbssiyalanish boskichida bir xil bosim bo‘lganida gazlarni quritish uchun foydalaniлади. Bundan tashqari qavatning qizdirilish (desorbsiyalantirish) va sovutish davri adsorbsiyalash bosqichining davomiyligiga nisbatan mos ravishda  $5/8$  va  $3/8$  larni tashkil etadi. 6.8-Rasm orqali seolitlardan uning harorati  $350^{\circ}\text{C}$ ,

bosimi adsorbsiyalash bosqichi bosimiga va adsorbsiyalash, qizdirish va sovutish bosqichlari davomiyligining teng bo‘lganida gazlardan suv va uglerod dioksidini desorbsiyalanishiga sarflanadigan gazni miqdorini aniqlashga imkon beradi. Qo‘shaloq adsorberli qurilmani hisoblaganda desorbsiyalanish uchun gaz sarfi adsorbsiyalanish davomiyligining qizdirish davomiyligiga nisbatiga teng koeffitsientga ko‘paytirilishi kerak.

Misol tariqasida suyultirishga uzatilayotgan tabiiy gazdan suv va uglerod dioksidini yo‘qotish qurilmasining hisoblanishlarini ko‘rib chiqamiz. Bunga quyidagi talablar qo‘yiladi:

Suvning miqdori-ko‘pi bilan 1 ppm ( $10^{-4}\%$ ),  $\text{SO}_2$ -miqdori-ko‘pi bilan 50 ppm. Adsorberning chamalangan o‘lchamlarini aniqlashdan tashqari qurilmaning sxemasini tanlanadi keyin unga ishlataladigan adsorberlar miqdori (soni) aniqlanadi, hamda oqimlarning isistilishiga enegriyaning ta’milanishi baholanadi.

### **Tabiiy gazni suyultirish qurilmasining hisobi.**

Dastlabki ma’lumotlar:

Gazning molyar massasi – 20,2

Suyultirilgan gaz bo‘yicha ishlab chiqaruvchanlik - $17500 \text{ nm}^3/\text{soat}$ .

Gazning solishtirma issiqlik sig‘imi – 1,467 kDj/kg.grad.

Temperatura –  $30^\circ\text{C}$

Bosim – 5,7 MPa (abs.)

Zararli qo‘sishchalar tarkibi:

Suv – 41 kg/soat (suyultirilayotgan gazga)

Uglerod dioksidi – 0,7% hajmi.

Tabiiy gazni tayyorlashning prinsipial blok-sxemasi 6.9-rasmda ko‘rsatilgan. Seolitlardan suv va uglerod dioksidini yo‘qotish uchun desorbsiyalanish bosqichida tozalangan gazning bir qismidan foydalnanimiz. Shuning uchun adsorbsiyalanish bosqichida tozalanishiga suyultiriladigan gaz-xom ashyosi bilan desorbsiyalanish bosqichida ishlataladigan gaz miqdori uchratiladi.



### 6.9-rasm. Tabiiy gazni tayyorlashning blok-sxemasi.

Seolitdan uglerod dioksidi va suvning desorbsiyalanishi uchun adsorberga berilishi kerak bo‘lgan gaz sarfini aniqlatsmiz. Gazning bunday sarf miqdorini uglerod dioksidining konsentratsiyasi 0,7% teng bo‘lganida va adsorberga berilayotgan gazning umumiy sarfini hisobga olganda 6.8-rasmdagi grafikdan aniqlash mukin. Grafikdan desorbsiyalanish uchun gazning sarfini 28% ga tengligini topamiz, bosimga to‘g‘rilik kiritilishini hisobga olganda esa 37,4% ga teng qiymatni hosil qilamiz. U holda desorbsiyalash uchug gazning sarfi quyidagiga teng:

$$Gg = 0,374(G_{cж} + Gg),$$

Bu yerda, Gg- desorbsiyalanish uchun gaz sarfi; Gcж-suyultirilishga uchratiluvchi gaz sarfi.

Ushbu tenglamani eilgania quyidagiga ega bo‘lamiz:  
 $Gg = 10450 \text{ нм}^3/\text{coam}$

Adsorbyerdan o‘tuvchi gazning summar sarf miqdori quuyidagini tashkil qiladi:  $G_{cc} + Gg = 17500 + 10450 = 27950 \text{ нм}^3/\text{coam}$

6.4-rasm yordamida minimal diametrni topish mumkin.

Ishchi bosim 5,7 MPa bo‘lganida ma’lum zahirasi bilan maksimal chiziqli tezlik 10,3 m/minutni tashkil qiladi.

Shu tezlikka mos keluvchi ko‘ndalang kesim quyidagiga teng:

$$S = \frac{(G_{cc} + Gg)P_o T}{P T_o 60 V_o} = \frac{27950 \cdot 0,1 \cdot 303}{5,7 \cdot 273 \cdot 60 \cdot 10,3} = 0,88 \text{ м}^2.$$

U holda ruxsat etilgan minimal diametr quyidagiga teng bo'ladi:

$$S = (\pi D^2)/4 \text{ yoki } D = 1,06\text{м.}$$

Suvning adsorbsiyalanishi bilan birga yutilayotgan uglerod dioksidining miqdori quyidagiga teng:

$$C_{CO_2} = \frac{(Gcc + Gg)0,7(\%)M_{CO_2}}{100(\%)22,4} = \frac{27950 \cdot 0,7 \cdot 44}{100 \cdot 22,4} = 384,3 \text{ кг/коам}$$

6.6-rasm yordamida bir soat davomida adsorbsiyalanish uchun seolitning kerakli miqdorini topamiz.  $Gy = 5900 \text{ кг}$

Seolitning 730 kg/m ga teng zichligidan kelib chiqib, bir soat davomida adsorbsiyani olib borish uchun kerakli umumiy hajmini topamiz:

$$V_y = Gy / Py = 5900 \text{ кг} / 730 \text{ кг/м}^3 = 8,1 \text{ м}^3$$

Bunday turdag'i adsorberlar uchun maksimal balandlik 7,6 metrdan [4] oshmasligini e'tiborga olib, uning ko'ndalang kesimini ( $S$ ) aniqlab olamiz:

$$S = 8,1 / 7,6 = 1,07.$$

Bunday ko'ndalang kesim maydoni bizni qoniqtiradi, chunki bunda gazning chiziqli tezligi ruxsat etilgan maksimal qiymatidan kam bo'ladi. Bunday maydonga teng bo'lган diametr quyidagiga tengdir:


$$D = \sqrt{4 * S / 3,14} = 1,17 \text{ м.}$$

Standart diametr deb 1,2 m. ni qabul qilamiz.


U holda adsorberning ko'ndalang kesim maydoni  $S = 3,14 \cdot 1,2^2 / 4 = 1,13 \text{ м}^2$  ga teng bo'ladi, seolitning balandligi esa

$$N_S = 8,1 / 1,13 = 7,17 \text{ м. ga teng bo'ladi.}$$

Keyin esa adsorber miqdori va ish jaaryoni siklining tuzilishi tanlanadi. Asosan amaldagi turdag'i adsorber qurilmalarining ish jarayonlarini muntazam bo'lishi uchun ularda 2 yoki 3 ta adsorberlardan iborat bo'lishi kerak. Ularning sxemalari va sikllarining tuzilishi 6.10 va 6.11 rasmlarda keltirilgan.



**6.10-rasm. Ikkita adsorberli qurilmaning tuzilishi va prinsipial sxemasi.**



**6.11-rasm. Uchta adsorberli qurilmaning tuzilishi va prinsipial sxemasi.**

1. uchta adsorberli qurilma uchun (6.11-rasm) adsorbsiyalash bosqichining vaqt davomiyligi seolitning sovitilishi va qizdirilishi

uchun kerakli vaqtdan ikki marta ko'p bo'ladi. Adsorbsiyalashning har bir bosqichi davomiyligi bir soatni tashkil etadi. Bunday holatlarda adsorberlar hisobi yuqoridaqilarga o'xshashdir. Shunday qilib, har birining ichki diasmetri 1,2 metr va seolitning qavati balandligi 7,17 metr bo'lganida  $27950 \text{ nm}^3/\text{soat}$  gazni tozalash uchun uchta adsorbentga yuklash uchun  $5900 \times 3 = 17700 \text{ kg}$  adsorbent kerak bo'ladi,

Bunday holatlarda faqat desorbsiyalash vaqtidagi gazni qizdirishga kerakli bo'lgan issiqlik miqdorini ( $Q$ ) aniqlash kerak. Uni esa quyidagi tenglamadan foydalanib topiladi:  $Q = [GgMCP(Td - Ta)] / Vm$ ,

Bu yerda,  $Gg$  –desorbsiyalash uchun gaz sarfi,  $\text{nm}^3/\text{soat}$ .

$M$  –gazning molekulyar massasi (20,2)

$Vm$  – bir kmol gazning hajmi ( $22,4 \text{ m}^3$ )

$Cp$  –gazning solishtirma issiqlik sig'imi,  $\text{kDj/kg grad}$  (1,467)

$Td$ ,  $Ta$  – mos ravishda desorbsiyalash va adsorbsiyalashning haroratlari,  $^{\circ}\text{C}$  (350 va 30)-Bu yerdagi ( $Q$ ):

$$Q = 10450 * 20,2 * 1,467 * (350 - 30) / 22,4 = \\ = 4423843,3 \text{ kDj} = 1,23 \text{ MBm}$$

2. Ikkincha adsorberli qurilma (6.10-rasm) uchun adsorbsiyalanish davomiyligini ikki soat deb olamiz. Bu shunday shart bilan qilindiki, boshqa adsorbyuyerda bizga shu vaqt ichida adsorbsion qavatni 350° gacha qizdirish va keyin tesa uni sovutish kerak. Bunday ishlarni juda qisqa vaqtarda amalga oshirish juda mushkuldir. Qizdirish (desorbsiyalanish) bosqichining davomiyligini adsorbsiyalanishga nisbatan  $5/8$  deb, adsorbsiyalanishga nisbatan sovutish davomiyligini esa –  $3/8$  deb olamiz. Shunday qilib, jarayondagi butun siki 2 soat adsorbsiyalashdan, 1 soatu 15 minut qizdirishdan va 45 minut sovutishdan iborat bo'ladi.

Qizdirish davomiyligi adsorbsiyalash davomiyligi bilan teng emas ekan, bunday holat uchun desorbsiyalashga kerakli gazning miqdorini aniqlashtirib olish kerak:

$$Gg = 0,374(Gcc + Gg)(2/1,25)$$

Bu tenglamani ishlagach, quyidagini hosil qilamiz:

$$Gg = 26100 \text{ nm}^3 / \text{coam}$$

Shunday qilib, ikkitalik adsorberli qurilmaga gazning sarfi quyidagiga teng:  $17500 + 26100 = 43600 \text{ nm}^3/\text{chas}$ .

Chiziqli tezlik chegaralanishini hisobga olinganida adsorberning

minimal kesim maydoni va diametri quyidagiga teng bo‘ladi:

$$S = (43600 \cdot 0,1 \cdot 303) / (60 \cdot 5,7 \cdot 273 \cdot 10,3) = 1,37 \text{ m}^2$$

$$d = \sqrt{4 * 1,37 / 3,14} = 1,32 \text{ m}.$$

U holda yutilayotgan uglerod dioksidining miqdori

$$G_{CO_2} = (43600 \cdot 0,7 \cdot 44) / (100 \cdot 22,4) = 599,5 \text{ кг / соам} \text{ ga teng bo‘ladi.}$$

6.6-Ram yordamida seolitning kerakli miqdorini topamiz:

Uning qiymati bir soat uchun 9100 kg ga ikki soat uchun 18200 kg ga teng bo‘ladi.

Seolitning hajmi esa:  $V_U = 18200 / 7,6 = 24,93 \text{ м}^3$  ga teng.

Balandlik maksimal 7,6 metr bo‘lganida qavatning ko‘ndalang kesimi quyidagiga teng:  $S = 24,93 / 7,6 = 3,28 \text{ м}^2$

U holda, diametrning aniq qiymati quyidagiga tengdir:

$$d = \sqrt{4 * 3,28 / 3,14} = 2,0 \text{ m}$$

Standart diametr 2,0 metr bo‘lganida qavatning balandligi:  $N_S = 24,93 / 3,28 = 7,6$  ga tengdir.

Desorbsiya bosqichida qizdirish uchun kerakli issiqlik miqdori:

$$Q = 26100 * 20,2 * 1,467 * (350 - 30) = 11049025 \text{ кДж / соам} = 3,07 \text{ МВт}$$

Qurilmadagi ikala variantning texnik ko‘rsatkichlarini solishtiramiz (6.5-jadval)/

Shunday qilib, shunday xulosa qilish mumkinki, uchta adsorberli qurilma ikkita adsorberli qurilmaga nisbatan iqtisodiy jihatidan maqsadga muvofiqroqdir.

### 6.5-jadval

Tabiiy gazni adsorbsion tozalashning ikki va uchta adsorberli qurilmalarini ishlashini solishtirilgan ko‘rsatkichlari.

Ko‘rsatkichlar nomi	2 talik adsorber qurilmasida	Uchthalik adsorber qurilmasida
Suyultirish uchun gazning umumiy sarfi, $17500 \text{ nm}^3/\text{soat}, (\text{nm}^3/\text{s})$	43600	27950
Adsorbyerdagi seolit miqdori, (kg)	18200	5900
Qurilmadagi seolitning miqdori, (kg)	36400	27700
Adsorber diametri, (m)	2,0	1,2
Adsorber qavati balandligi, (m)	7,6	7,17
Desorbsiyalash uchun gaz	26100	10450

<b>sarfi, (nm<sup>3</sup>/soat)</b>		
<b>Desorbsiya gazini qizdirish uchun kerakli issiqlik miqdori, M<sup>2</sup></b>	<b>3.07</b>	<b>1,23</b>
<b>Siklning davomiyligi, Shuningdek (soat):</b>		
-adsorbsiyalash, (soat)	4	3
-qizdirish	2	1
(desorbiyalash), (soat)	1.25	1
-sovutish, (soat)	0.75	1

## **7. NEFT VA GAZ HAMDA TOSHKO'MIRNI QAZIB OLİSH VA QAYTA ISHLASH JARAYONLARIDA YUQORI KRITIK EKSTRAKSIYALASH**

Erituvchilar bilan yuqori kritik holatlarda ekstraksiyalash – yangi texnologik jarayon bo‘lib, kritik sharoitlarda harorat, bosimlarga yaqin sharoitlarda moddalarning yuqori eruvchanligi hodisasi ushou holatning asosini tashkil etadi. Bu texnologiya turli sanoat tarmoqlarida keng qo‘llanila boshlangan.

Ba’zi hollarda bu usul quyidagi afzallikkarga ega:

- qatlamlardan neftni ko‘proq chiqarib olish mumkin;
- atrof-muhitni yuqori zararli moddalardan tozalash muammolarini xal qilishga yordam beradi;

Chiqindisiz yuqori samarali texnologiyalarning ilmiy asoslarini ishlab chiqishda muxim ahamiyatga ega.

Bunga qiziqish uning keng imkoniyatlaridan kelib chiqqani uchun bir qancha sanoat tarmoqlarida katta ahamiyatga egadir. Masalan: Neft kimyo-, ko‘mir-, energetika-, ekologiya sohalariga oid-, separatsiyaga asoslangan jarayonlar, xromatografiya kabi smanoat va ilmiy-tadqiqot ob’ktlarini o‘z ichiga oladi.

Bu jarayonlardan foydalanish ayniqla sun’iy yoqilg‘ilar olishda, mineralarni ajratib olishda, suvni tuzsizlantirishda, polimer materiallar ishlab chiqarishda va hokazolarda muhim ahamiyatga ega.

Yuqori kritik ekstraksiya usuli suyuqlik, gazli ekstraksiyalarga nisbatan energetik samarali bo‘lib, bunda ozgina bosimni va haroratni o‘zgartirib eruvchanlikni boshqarish mumkin.

Erituvchini regeneratsiyalashni uning zichligini ozgina o‘zgartirib

osongina amalga oshirish mumkin va bunda yanada toza moddalarni ajratishga erishiladi. Erituvchining erituvchanlik xossasi deyarli uning zichligiga, temperatura va bosimiga bog'liqdir (7.1 rasmga qarang).

Yuqori kritik ekstraksiyasini fazaviy diagrammasini 7.1.-rasmda keltirilgan moda  $T_k$ - kritik haroratidan pastroq haroratlarda, masalan, keltirilgan  $T_r = T/T_k = 0,95$  bo'lganida erituvchilik xossasini namoyon qilishi mumkin (A, V va S nuqtalar).  $T > T_k$ , haroratda, masalan,  $T_r = 1,06$  bo'lganida bosimni ozginagina o'zgartirishning o'zi erituvchining zichligini xech qanday faza hosil qilmasdan oshishiga sabab bo'ladi.


Kritik nuqtada  $K(\partial p / \partial p)_{R \rightarrow \infty}$  bo'ladi.

Doimmiy bosimda eng yaxshi eruvchanlik xossa  $T_k$ - haroratga qarab yaqin haroratlarga to'g'ri keladi. Amalda haroratni o'zgartirmasdan bosimni o'zgartirib turib erituvchanlikni xossasini boshqarish imkonи katta ahamiyatga ega.

Yuqori kritik hudud – ekstraksion jarayonlar uchun xos bo'lib, (punktir chiziqlar) u keltirilgan bosim bilan aniqlanadi:

$$1 \leq P_r \leq 5 \text{ (буерда } P_r = P/P_k \text{) и } 1,0 < T_r < 1,2$$

Ushbu qiymatlar suyuqlik va gaz o'rtaсидаги erituvchining oraliq holatiga to'g'ri keladi. Erituvchini regeneratsiyalab jarayonga qaytarish uchun bosimni izotermik  $P_r = 0,5$  qiymatigacha pasaytirish kifoyadir, lekin uning erituvchilik xossasi birdan kamayadi.



Modda zichligini uning kritik sharoitlaridagi zichliklariga bog'liqligi grafigi:

## 7.1- rasm. Faza holati diagrammasi (chiziqli belgilangan maydoni yuqori kritik ekstraksiya jaaryonlar uchun xosdir)

Yuqori kritik ekstraksiya texnologiyasini ishlab chiqishda asosiy muammo erituvchini tanlashdir. Jarayon samaradorligi shunga bog'liq. Erituvchi tanlashda fizik-kimyoiy xossalar bilan ekstraksiyalashga ta'sir omillarni hisobga olish ham ahamiyatlidir.

Erituvchi uchun eng muxm ko'rsatkich – skelektivlik (tanlanuvchanlik) bo'lib, aralashmalardan kerakli komponentni tanlab ajratib olishdir.

Selektivlikni tanlangach, - temperatura va bosimni belgilangan me'yorda ushlab ekstraksiya jarayonini boshqarish mumkin. Erituvchi tanlanganida uning regeneratsiyalanuvchanligini hisobga olish kerak. Buning natijasida kam energiya sarflanib, ko'p oxirgi moddani ekstraksiyalash mumkin. Imkonи boricha erituvchining kritik qiymatlari uncha yuqori bo'lmasligi kerak (7.1.-jadval).

**7.1-jadval**

Qator moddalarni kritik parametrlari.

Erituvchi	Kritik parametrlar		
	Harorat, °K	Bosim, MPa	Zichlik, kg/m <sup>3</sup>
Metan	191	4,60	162
Ksenon	281	5,80	1100
Etilen	282	5,03	213
Xlortri-fiformetan	302	3,92	579
Uglerod dioksidi	304	7,38	468
Etan	305	4,88	203
Azot oksidi	310	7,30	450
Oltiforli oltingugurt	319	3,70	740
Propilen	365	4,62	233
Propan	370	4,34	217
Ammiak	406	11,3	235
Oltingugurt dioksidi	431	7,80	524
Dietilli efir	467	3,64	265
N-Pentan	470	3,37	237
Atseton	508	4,70	278
Metanol	513	3,04	278

Benzol	562	4,84	302
Toluol	592	4,11	293
Piridin	620	5,63	312
Suv	647	22,0	322

Ko'pincha, oziq-ovqat sanoatida erituvchi sifatida uglerod dioksidi ishlataladi. Bunga uning quyidagi xosssalari sababchidir:

- Kritik harorati pastligi ( $T_k \approx 304K$ );
- oson uchuvchan bo'lib, osongina regeneratsiyalanadi;
- qovushqoqligi kam va diffuziya koefitsienti yuqori;
- toksik emasligi;
- atrof-muhitga bezararligi;
- yonmasligi;
- arzon va ko'pligidir.

Neft va gazni qazib olish va qayta ishslashda yuqori kritik ekstraksiyani qo'llash.

Qatlamdagi neftni chiqarib olishni oshirish – dolzarb va murakkab jarayondir. Issiqlik va fizik-kimviy jadallashtirish usuli (qaynoq suvni yoki bug'ni so'rib olish, qatlam ichidagi yonish jaaryoni, sirt faol moddalarni qo'llash) doimo kam samarali, qimmat va ekologik xavfli bo'lib kelgan.

Yuqori kritik texnologiyani ishlab chiqish shu kabi muammolarni echimini topishni imkonini beradi, Shuningdek, neftni fraksiyalashni chiqindisiz yuqori samarali texnologiyasini yaratishni muammosini hamda og'ir neft qoldiqlarini deASFALTIZATSIALAB zarur uglevodorodli komponentlar bilan qimmatbaho metallarni olish muammolarini xal qilish mumkin.

Yuqori eruvchanlikyuqori kritik sharoitlarda yuzaga kelishi qatlamlardagi neftni maksimal ajratib olishga imkon beradi.

Ma'lumki, neftni uchlasmchi ajratib olishda neft qatlamlariga engil uglevodorodlar ( $S_1-S_4$ ) yuboriladi. Erituvchi sifatida alternativ sifatida  $SO_2$  ni yuqori kritik holatda qo'llaniladi. Uni qatlamlarga past bosimlarda kiritiladi. Neftning dunyo zaxirasining chegarasi bo'lgani uchun o'zida asfaltenlar va smolalari ko'p bo'lgan og'ir neftlarni qayta ishslashga diqqat e'tibor qaratilgandir.

Ayni jarayun uchun energiya sarfi oddiy ekstraksiyaga nisbatan

kam bo'lib, erituvchi-neft nisbatiga katta talab kerak bo'lmaydi.

Kritik holatni tadqiq etish neftni g'ovakli muhitdan ajratib olish jarayonlarini fizik modellashda muxim ahamiyatga ega. Suyuqliklar holati parametrlari kritik nuqtaga yaqindir, masalan, fazalararo taranglik va mavjud fazalarning zichliklari farqi ayni jarayonga yaxshigina ta'sir etadi. Ushbu parametrlarning zarur qiymatlariga aralaashmaning harorati a konsentratsiyasini o'zgartirib turib erishish mumkin.

Ana shunday hollarda nefli rezervuarlarda kritik sharoitlarga yaqin holatlarni hosil bo'lishida sirt faol moddalar (SFM lar) qo'llash katta ahamiyatga ega. Kritik nuqtaga yaqin bo'lganidagina fazalararo taranglik  $\sigma$ - va  $\Delta p$ -mos ravishdagi fazalarni nisbiy zichliklari quyidagi oddiy darajali bog'liqliklar bilan yoziladi:

$$\sigma = \sigma_0 t^\mu \quad (1)$$

$$\Delta p = B_0 t^\beta \quad (2)$$

Bu yerda,  $\sigma_0$  - dastlabki sharoitlardagi fazalararo taranglik;  $t$  - harorat, °S;

$V_0$  -kritik amplituda;  $\mu = 1,26$  va  $\beta = 0,325$  kritik qiymatlar.

Fazalararo taranglik qatlamning ichki oqimi va nisbiy kirituvchanlik tabiatini bilan aniqlanadi.

Bir oqim turidan ikkinchi oqim turiga o'tish  $\sigma$ -qiymatni katta qiymatidan kichik qiymtiga o'zgarishidan kuzatiladi. Shuning uchun, kritik sharoitlarga yaqin holatlarda neftni ajralib chiqishi uchun oqim jarayoni va  $\sigma$ -ta'sirini boshqarilishini chuqr o'r ganilishi kerak.

Kritik sharoitlarda neftni ajralib chiqish jarayoni fazalar chegarasida Meniskning holati o'zgarishi bilan nazorat qilinadi hamda kritik nuqtada yuz beruvchi o'zgarişlar bilan chambarchas bog'liqidir. Shuning uchun kapillyarli, gravitatsion va qovushqoqlik kuchlariaro nisbatlari katta qiziqishga ega. Oqim tabiatiga xo'llanuvchanlik hodisisi ta'sir etib, bunda ikki o'zaro aralashmaydigan (neft-suv) suyuqlik g'ovakli qattiq bza bilan ta'sirlashadi. Bu holat esa suyuqliknинг kritik aralashishi nuqtasida sodir bo'ladi. Bunday vaqtida kritik fazalardan biri qattiq fazani yaxshigina xo'llaydi. Anna shu hodisa oquvchanlik jarayonini belgilaydi.

Kapillyar va gravitatsion kuchlarni tabiatini solishtirilishi Bondning  $N_B$  – o'lchovsiz soni bilan aniqlanadi:  $N_B$ :

$$N_B = g \Delta p R^2 / \sigma \quad .(3)$$

Bu yerda,  $g$  – og‘irlik kuchi tezlanishi;  $R$  – uzunlik masshtabi.  
 va (2) ifodalar hisobga olinsa (3) tenglama quyidagi ko‘rinishiga ega bo‘ladi:

$$N_B = g \frac{B_0 R^2}{\sigma_0} t^{\beta - \mu}$$

Ko‘rinib turibdiki,  $t \rightarrow 0$  nuqtani kritik nuqtasi yaqinida  $N_B$ -cheksizlikka ( $\beta - \mu < 0$ ) intiladi.

Berilgan bunday sharoitlarda turtki beruvchi kapillyar kuchlar natijasida oqim rejimidan gravitatsion kuchlar ta’siridagi oqim rejimiga o‘tish sodir bo‘lib, bu xossa hamma suyuqliklar uchun xosdir. Kapillyar va qovushqoqlik kuchlari gisbatli  $N_K$  – o‘lchovsiz kapillyar soni bilan aniqlanadi:

$$N_K = \mu v / \sigma$$

Bu yerda,  $\eta$  – chiqib keluvchi fazada qovushqoqligi;

$v$  – Darsi tezligi.

Darajaviy bog‘liqliklar hisobga olinsa;

$$\eta = \eta_0 t^\psi$$

U holda (1) tenglama quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$N_K = - \frac{\eta_0 v}{\sigma_0 t^{\psi - \mu}}$$

Bu yerda,  $\psi$  – kritik ko‘rsatkich.

Kritik nuqtaga yaqin real sistemalar holatining o‘ziga xosligini o‘rganish sifat natijasi tengligida o‘ta yuqori eruvchanligini tekshirishni va olingan natijalarni nest va gazni qazib olish jaranolari jadallashtririshga imkon beradi.

## 8. NAZORAT UCHUN SAVOLLAR.

I.AVT qurilmasi yordamida neftdan quyidagi fraksiyalarni olinadi (%mass.)

Qaynash harorati  $80^0$  C bo‘lgan qism – 5%;

Qaynash harorati  $80-180^0$  C bo‘lgan qism – 10%;

Qaynash harorati  $180-360^0$  C bo‘lgan qism – 26%;

Qaynash harorati  $360-550^0$  C bo‘lgan qism – 39%;

Gudron – 20%

Nestni qayta ishlash zavodida katriforming, katkreking, kokslash

(xom ashyo-gudron) jarayonlaridan foydalanilganida olinadigan amaliy ma'lumotlarning o'rtachi qiymatiga asosan neftdan olinuvchi avtomobil benzinlari konponentlarini (%mass.) hisoblang. Benzinni ishlab chiqarishning oqimli sxemasini tuzing. Olinayotgan mahsulotni tavsiflang.

2.AVT qurilmasi yordamida neftdan quyidagi fraksiyalarni olinadi (%mass.)

Qaynash harorati  $180^{\circ}\text{C}$  bo'lgan qism – 15%;

Qaynash harorati  $180\text{-}360^{\circ}\text{C}$  bo'lgan qism – 25%  
(oltingugurt=1%);

Qaynash harorati  $360\text{-}550^{\circ}\text{C}$  bo'lgan qism – 39%;

Gudron – 21%. Nestni qayta ishslash zavodida gidrotozalash, katkreking, visbreking (xom ashyo-gudron) jarayonlaridan foydalanilganida olinadigan amaliy ma'lumotlarning o'rtachi qiymatiga asosan neftdan olinuvchi dizel yoqilg'ilar konponentlarini (%mass.) hisoblang. Dizel yoqilg'sini ishlab chiqarishning oqimli sxemasini tuzing. Olinayotgan mahsulotni tavsiflang.

3.Vakuum gazoylni ( $360\text{-}540^{\circ}\text{C}$  fraksiysi) katalitik krekinglash qurilmasida quyidagi moddalar olingan (% mass.):

gazlar – 15; benzin – 52;

engil gazoyl ( $180\text{-}360^{\circ}\text{C}$ ) – 15;

og'ir gazoyl ( $360^{\circ}\text{C}$  dan yuqori) – 14;

koks – 4.

Krekinglashning chuqurligini aniqlang. Qanday faktorlar hisobiga uni oshirish mumkin.

4.Butan-butilen fraksiya tarkibi quyidagidan iborat (%mass.):

Propilen – 1,5; propan – 1,1; izobutilen – 5,5; normal-butilen 26,6; izobutan – 40,0; normal-butan – 25,3.

Sulfat kislotasi ishtirokida alkillash natijasida alkillanga mahsulotning unumini aniqlang (xom ashyoga nisbatan %mass.).

5.Propan-propilen fraksiyasi tarkibi quyidagidan iborat (%mass.):

Etilen-1; etan-1; propilen-45; propan-40; butilenlar-7; butanlar-6. polimerbenzinning unumini hisoblang (xom ashyoga nisbatan % mass.).

6. AVT qurilmasi yordamida neftdan quyidagi fraksiyalarni olinadi (%mass.)

Qaynash harorati 180 0 °C bo‘lgan qism – 15%;

Qaynash harorati 180-360 0 °C

bo‘lgan qism – 25% (oltingugurt=1%);

Qaynash harorati 360-550 0 °C bo‘lgan qism – 39%;

Gudron – 21%

Nefni qayta ishlash zavodida gidrotozalash, yuqori bosimli gidrokreking, visbreking (xom ashyo-gudron) jarayonlaridan foydalaniłganida olinadigan amaliy ma'lumotlarning o'rtachi qiymatiga asosan neftdan olinuvchi dizel yoqilg'ilar konponentlarini (%mass.) hisoblang. Dizel yoqilg'sini ishlab chiqarishning oqimli sxemasini tuzing. Olinayotgan mahsulotni tavsiflang.

7. AVT qurilmasi yordamida neftdan quyidagi fraksiyalarni olinadi (%mass.)

Qaynash harorati 180 0 °C bo‘lgan qism – 15%;

Qaynash harorati 180-360 0 °C bo‘lgan qism – 25% (oltingugurt=1%);

Qaynash harorati 360-550 0 °C bo‘lgan qism – 39%;

Gudron – 21%

Nefni qayta ishlash zavodida gidrotozalash, yumshoq sharoitda gidrokrekingslash, kokslash (xom ashyo-gudron) jarayonlaridan foydalaniłganida olinadigan amaliy ma'lumotlarning o'rtacha qiymatiga asosan neftdan olinuvchi dizel yoqilg'ilar konponentlarini (%mass.) hisoblang. Dizel yoqilg'isini ishlab chiqarishning oqimli sxemasini tuzing. Olinayotgan mahsulotni tavsiflang.

8. AVT qurilmasi yordamida neftdan quyidagi fraksiyalar olinadi (%mass.)

Gazlar – 2%

Qaynash harorati 70 0 °C bo‘lgan qism – 5%;

Qaynash harorati 70-180 0 °C bo‘lgan qism – 10%;

Qaynash harorati 180-360 0 °C bo‘lgan qism – 26%;

Qaynash harorati 360-550 0 °C bo‘lgan qism – 37%;

Gudron – 20%

Nefni qayta ishlash zavodida izomerizatsiyalash, katalitik riforming, gidrotozalash, katalitik kreking, visbreking (xom ashyo-gudron) jarayonlaridan foydalaniłganida olinadigan amaliy

ma'lumotlarning o'rtachi qiymatiga asosan neftdan olinuvchi uglevodorodli gazlar konponentlarini (%mass.) hisoblang.

9.Tarkibida 1,0% oltingugurt bo'lgan dizel fraksiyasini gidrotozalash (yiliga 1 million tonna quvvatl) qurilmasida oltingugurtning 0,5% qoldiq tarkibi bilan dizel yoqilg'isini olinmoqda. Vodorod sulfidining unumini hisoblang.

10.Katalitik risfming qurilmasining reaktoriga quyidagi miqdorda katalizator joylangan bo'lsa: 1- reaktorga – 10 m<sup>3</sup>, 2- reaktorga-20 m<sup>3</sup>, 3- reaktorga – 40 m<sup>3</sup>, ushbu qurilmaning xom ashyoga (zichligi 20 °C da 750 kg/ m<sup>3</sup>) nisbatan xom ashayoning jarayonga reaktorga tezligi 2 soat<sup>-1</sup> bo'lgandagi maksimal ishlab chiqaruvchanlikni aniqlang.

11.Agarda neftni qayta ishlash zavodida gudronni kokslash qurilmasi biriktirilgan bo'lsa ma'lumotlarni o'rtachasini olganda neftni qayta ishlash chuqurligi ( bundan avval gudronni kreking-qoldiq bilan aralashmasini issiqqlik qizini yoqilg'isi ishlab chiqarish uchun foydalilanigan) qanday o'zgaradi. Gudron unumi neftga nisbatan 25% ni tashkil etadi.

12.Neftni qayta ishlash zavodini modernizatsiyalashdan avval rangsiz tiniq nest mahsulotlarining unumi 55% ni tashkil etgan edi. Agarda ayni neftni qayta ishlash zavodida olingan o'rtacha ma'lumotlarga ko'ra gudronni kokslash qurilmasini tatbiq etilsa unum qanday o'zgaradi. Nestga nisbatan gudronning unumi 25% ga teng.

13.Butan-butilen fraksiyasing massaviy %- ulushi quyidagidan iborat:

Propilen – 1,5; propan – 1,1; izobutilen – 15,5; normal-butilen – 26,6; izobutan – 30,0%; normal-butan – 25,3%. Ushbu fraksiyadan MTBE ning xom ashyoga nisbatan eng yuqori unumini aniqlang.

14.Katalitik kreking jarayonida (xom ashyoga nisbatan qurilmaning ishlab chiqaruvchanligi hajmi 250 t/soatga teng) o'zgarish chuqurligi 81% ga etgan, anna shunday holatda xom ashyoga nisbatan benzinning va engil gazoylning massaviy ulushi 0,63 ni tashkil etgan. Gazning unumini aniqlang (t/soat).

15. Agarda xom ashyoning hajmiy uzatilish tezligi  $2,5 \text{ soat}^{-1}$  ni qurilmaning xom ashyoga nisbatan ishlab chiqaruvchanligi 1 milloin tonna/yilga teng ekanligi aniq bo'lsa, dizel fraksiyasini (zichligi  $820 \text{ kg/m}^3$ ) gidrotozalash reaktorining o'lchamlarini hisoblang.

16. Yiliga 300 ming tonna/yil ishlab chiqaruvchanlikka ega bo'lgan benzin fraksiyalarini (xom ashyo zichligi  $750 \text{ kg/m}^3$ ) riforminlash qurilmasining uchta reaktoriga mos ravishda 1:2:4 nisbatlarda joylangan. Xom ashyoni uzatishning o'rtacha hajmiy tezligi  $2 \text{ soat}^{-1}$  ni tashkil qiladi. Barcha reaktorlarning o'lchamlarini toping.

17. Agarda Rayzerning diametri 1,0 m, katalizator sarfi 650000 kg/soat, uning xaqiqiy zichligi  $1850 \text{ kg/m}^3$ , reaktoring katalizator harakatlanadigan lift yo'nalishida stoyakda harorat  $650^{\circ}\text{S}$ , bosim esa 200 kPa ga teng bo'lsa katalitik krekinglash qurilmasining lift stoyak qismida katalizator 1,5 m/sekund tezlikda harakatlanadigan bo'lsa shu erga suv bug'ining sarf miqdorini (kg/soat) hisoblang.

18. Agarda katalizatorning sarfi 1500 l/soatni, bosim 250 kPa ni harorat  $710^{\circ}\text{C}$  ni tashkil etsa katalizator stoyakida  $150 \text{ kg/m}^3$  ga teng zichlikdagi oqimni hosil qilish uchun suv bug'i sarfini hisoblang. Katalizatorning haqiqiy zichligi-  $1850 \text{ kg/m}^3$  ga teng.

19...Katalitik riforming qurilmasidan oktan soni 98 (IOCH) ga teng 2000 tonna aralashish faktorii 1,1 bo'lgan katalizat, izomerizatsiyalash qurilmasidan esa oktan soni 89 (IOCH) bo'lgan va aralashish faktorii 0,98 bo'lgan 150 tonna izomerizat olingan. Tadqiqot metodlari bo'yicha (IOCH) aralashmaning oktan sonini hisoblang.

20. Agarda reaktorga  $40 \text{ m}^3$  miqdorida katalizator yuklangan bo'lsa, reaktorga xom ashyoni ruxsat etilgan o'rtacha hajmiy uzzatish tezligi  $1 \text{ soat}^{-1}$  ga teng bo'lganida dizel fraksiyasini katalitik deparafinlash qurilmasining xom ashyoga nisbatan maksimal ishlab chiqaruvchanligini (unumdorlik) aniqlang.

## **Adabiyotlar**

1. СТП НПИ 18.07-85. Дипломный проект. Общие требования к содержанию и оформлению. -- Новополоцк, 1985.
2. Нефти СССР. Справочники. Т.1-4. -- М.: Химия, 1971.
3. Рудин М.Г. Карманный справочник нефтепереработчика. -- Л.: Химия, 1989.
4. Топлива, смазочные материалы, технические жидкости. Ассортимент и применение. Спр. /Н.Г.Анисимов и др.; под ред. В.М.Школьникова./ Изд. 2-е. -- М.: Техинформ, 1999. -- 596 с.
5. Переверзев А.Н. и др. Производство парафинов. -- М.: Химия, 1973.
6. Грудников И.Б. Производство нефтяных битумов. -- М.: Химия, 1983.
7. Конь М.Я. и др. Современные состояния и перспективы развития нефтеперерабатывающей и нефтехимической промышленности США. Тем. обзор. Серия: Переработка нефти. ЦНИИТЭнефтехим. -- М., 1987.
8. Гуревич Н.Л. Технология переработки нефти и газа. Часть 1. -- М.: Химия, 1972.
9. Доклады ФИНа. Симпозиум по гидрокрекингу. -Ленинград, 1989.
10. Смидович Е.В. Технология переработки нефти и газа. Ч.2. -- М.: Химия, 1980.
11. Левинтер М.Е., Ахметов С.А. Глубокая переработка нефти. -- М.: Химия, 1992.
12. Проспект фирмы "Келлог" по процессу АРГ. Перевод №5, ВНИИ НП. -Москва, 1985.
13. Справочник нефтепереработчика. Под ред. Ластовкина Г.А. -- Л.: Химия, 1986.
14. Аспель И.Б. и др. К вопросу о выборе метода гидроочистки вторичных бензинов. Н.Т.С. Нефтепереработка и нефтехимия. №1. -- М.: ЦНИИТЭнефтехим, 1971.
15. Мухина Т.В. и др. Пиролиз углеводородного сырья. -- М.: Химия, 1987.
16. Batsleev A. Mozyr Oil Refinery "Experience with IFP Dualformer" 1st European catalyst technology conference. 2000.
17. Сулимов А.Д. Каталитический рафининг бензинов. -- М.: Химия, 1987.

Химия, 1973.

18. Turpin L.E. Cut benzene out of reformat. Jour. Hydrocarbon Processing. June 1992. P.81-92.

19. Гетцман З., Циммерман Х. Способ гидрирования "Гидроконвертор" фирмы "Линде" – прогрессивный способ переработки тяжелых нефтяных фракций. Перевод 037-1618, ВНИИПИНефть, ЛНТИ. – М., 1985.

20. Альбом технологических схем процессов переработки нефти и газа. – Под ред. Б.Н.Бондаренко. – М.: Химия, 1983.

21. Handbook of petroleum refining processes / Robert A. Meyers, editor in chief. 2nd.ed. 1996. Printed in the USA.

22. Танатаров М.А. и др. Технологические расчеты установок переработки нефти. – М.: Химия, 1987. - 352 с.

23. Сарданашвили А.Г., Львова А.П. Примеры и задачи по технологии переработки нефти и газа. – М.: Химия, 1980. – 256 с.

24. Гуреев А.А. и др. Производство высокооктановых бензинов. – М.: Химия, 1986. – 240 с.

25. Суханов В.П. Каталитические процессы в нефтепереработки. – М.: Химия, 1979. – 343 с.

26. Хорошко С.И., Хорошко А.Н. Сборник задач по химии и технологии нефти и газа. – Минск.: Выш. шк., 1989.

27. Корж А.Ф. Технологический расчет реакторов процесса каталитического риформинга бензиновых фракций. – Мет. указ. по курсу "Технология переработки нефти и газа" для студентов спец. 2504. – Новополоцк, НПИ, 1992.

28. Корж А.Ф. Расчет реактора установки гидрокрекинга с применением ЭВМ. Мет. указ. по курсу "Технология переработки нефти и газа" для студентов спец. 2504. – Новополоцк, НПИ, 1993.

29. Корж А.Ф. Технологический расчет лифт-реактора установки каталитического крекинга с применением ЭВМ. – Мет. указ. для курсового и дипломного проектирования по курсу "Технология переработки нефти и газа" для студентов спец. 2504. – Новополоцк, НГУ, 1994.

30. Скобло А.И. и др. Процессы и аппараты нефтеперерабатывающей и нефтехимической промышленности. – М.: Химия, 1982.

31. Joachimsman G. Теплообменники "Пакинокс" и "Тексас Таэр" на НПЗ фирмы "Шелл Франсез". Переработка нефти и

нефтехимия. Экспрессинформация. – М.: ЦНИИТЭнефтехимия, 1989. – №35. – С.40-44.

32.Кузнецов А.А. и др. Расчеты процессов и аппаратов нефтеперерабатывающей промышленности. – М.: Химия, 1974.

33.Эмирджанов Р.Т., Демберанский Р.А. Основы технологических расчетов в нефтепереработке и нефтехимии. – М.: Химия, 1989.

34.Ткачев С.М. Тенденции развития процесса каталитического крекинга. Учебно-методическое пособие для студентов спец. 2504. – Новополоцк, НПИ, 1992.

35.Александров И.А. Ректификационные и абсорбционные аппараты. – М.: Химия, 1965.

36.Карпатовский И.П. Охрана природы. Спр. для работников нефтепереработки. – М.: Химия, 1980.

# MUNDARIJA

Kirish.....	3
<b>1. Uglevodorodli aralashmalarining kritik parametrlari va molyar massalarini hisoblash.....</b>	<b>3</b>
1.1. Kritik haroratni aniqlash.....	4
1.2. Molyar massani hisoblash.....	8
1.3. Kritik bosimni aniqlash.....	9
<b>2. Bug gazli uglevodorodlarning aralashmalarini va gazlarning entalpiyalarini hisoblashning uziga xos belgilari.....</b>	<b>11</b>
2.1. Uch xil haroratdagи gazning entalpiya qiymatlari asosida gazlarning turli haroratlardagi entalpiyalarini aniqlash formulalaridagi A, V, S-koeffitsientlarni hisoblash.....	11
2.2. Gidrokreking qurilmasi reaktorining gaz mahsulotlari aralashmalari komponentlarining fizik-kimyoviy xossalari va yuqori bosimlardagi komponentlarning entalpiyalari xatoliklarini to'g'rilash.....	15
<b>3. Og'irlashtirilgan xom ashyoning piroлизlanish jarayonini hisoblashning o'ziga xos ayrim belgilari.....</b>	<b>18</b>
3.1. Gidrotozalangan vakuum gazoylining (GVGO) piroлизlanish jarayoni reaksiyasining issiqligini hisoblash.....	18
3.2. Gidrotozalangan vakuum gazoylning (GVGO) reaksiyon zmeevigida bo'lishi va yuza qizdirilishining hisobi....	21
<b>4. Millisekund (MSCC – UOP firmasi) katalitik krekinglash qurilmasining reaktorini hisobi.....</b>	<b>28</b>
4.1. Dastlabki ma'lumotlarni tayyorlash.....	28
4.2. Davriy-aylanma harakatlanuvchi katalizatorlar soni hisob-kitobi.....	29
4.3. Xom ashyoni reaksiya haroratigacha isitishga, bug'latishga va hosil bo'lgan bug'larini qizdirishga sarflanadigan katalizatorning ta'sir vaqtini hisoblash.....	35
4.4. Katalizator zarrachasining o'rtacha radiusi.....	36
4.5. Katalizatorning qo'zg'almas quvurli moslamasining	

diametrini hisoblash.....	37
<b>4.6. Reaktorning birinchi reaksiyon hududi hisobi.....</b>	<b>38</b>
<b>4.7. Katalitik kreking jaryonidagi mahsulotlar chiqishi.....</b>	<b>41</b>
<b>4.8. Birinchi hududdan reaksiyon aralashmasining chiqish harorati.....</b>	<b>44</b>
<b>4.9. Reaktorning birinchi reaksiyon hududidagi diametri.....</b>	<b>45</b>
<b>4.10. Reaktorning birinchi reaksiyon hududining hajmi va balandligi.....</b>	<b>47</b>
<b>4.11. Reaktorning ikkinchi reaksiyon hududini hisoblash.....</b>	<b>49</b>
<b>4.12. Reaktorning ikkinchi hududidan kreking jarayoni mahsulotlarining chiqish harorati.....</b>	<b>49</b>
<b>4.13. Reaktorning uchinchi hududidan krekinglash jarayoni mahsulotlarining chiqish harorati.....</b>	<b>54</b>
<b>4.14. Reaktorning uchinchi reaksiyon hududidagi ta'sirlashish vaqtı.....</b>	<b>55</b>
<b>4.15. Reaktorning reaksiyon hududidan chiqishida separatsion (ajratgich) sitemasining tirqishlari soni va o'Ichami.....</b>	<b>57</b>
<b>4.16. Reaktorning bug'lantiradigan hududining diametri va balandligi.....</b>	<b>57</b>
<b>4.17. Reaktor bug'lantirish hududining diametric.....</b>	<b>59</b>
<b>4.18. Reaktorning summar issiqlik balansi (RSB).....</b>	<b>59</b>
<b>5. Riforming reaktorini hisoblashning beshta asosiy elementlari.....</b>	<b>59</b>
<b>5.1. Asosiy reaksiyalar.....</b>	<b>60</b>
<b>5.2. Asosiy reaksiyalarning tezlik konstantalari.....</b>	<b>61</b>
<b>5.3. Naftenlarni degidrirlash – naften uglevodorodlarini aromatik uglevodorodlarga aylantirishning reaksiya tezligini konstantasini aniqlashning tenglamasini tuzish.....</b>	<b>62</b>
<b>5.4. Parafin uglevodorodlarini naftenlarga (o'zgartirish) aylantirishni reaksiya tezligi konstantasini aniqlash tenglamasini keltirib chiqarish.....</b>	<b>64</b>
<b>5.5. Katriforming qurilmasi uchun xom ashyo.....</b>	<b>67</b>
<b>5.6. Jadval ma'lumotlariga asosan uglevodorodlar entalpiyalarini hisoblash uchun tenglamalarni tuzish.....</b>	<b>72</b>

5.7.	Aromatik birikmalarga aylangan naftenlar miqdorini hisoblash.....	75
5.8.	Parafinlarni o‘zgarishga uchratib naftenlar miqdorini oshirish.....	76
5.9.	Reaksiya uschun issiqlik sarfi.....	81
6.	Ajratishning adsorbsiyalash texnologiyasi.....	84
6.1.	G‘ovaklar o‘ichamlarining teng taqsimlanganligi.....	86
6.2.	Adsorbentlarning asosiy turlari.....	91
6.3.	Organik adsorbentlar.....	95
6.4.	Polimer adsorbentlar.....	97
6.5.	Adsorbsion qurilmalarni loyihalashtirishning asosiy jihatlari.....	99
6.6.	Adsorbsiya dinamikasi.....	108
6.7.	Adsorbentning qalin qavatlarida bosimning pasayib ketishi.	110
6.8.	Adsorbsion qurilmalarni baholovchi hisoblashlar.....	111
7.	<b>Neft va gaz hamda toshko‘mirni qazib olish va qayta ishlash jarayonlarida yuqori kritik ekstraksiyalash.....</b>	122
8.	<b>Nazorat uchun savollar.....</b>	127
9	<b>Adabiyotlar.....</b>	132

**Ziyamuhamedova U.A., Nazarov A.R., Raxmatullayev A.T.,  
Eshmamatov Z.S., Isakov A.U.**

**«NEFTKIMYOSI SINTEZ TEXNOLOGIYASI»**

**amaliy mashg'ulotlar uchun  
o'quv-metodik q'o'llanma**

**Muharrir Sidiqova K.A.  
Muqova dizayni Maksudov M.Z.**

---

Bosishga ruhsat etildi 12.06.2013 y. Bichimi 60x84 1/16.  
Shartli bosma tabog'i 8,2. Nusxasi 50 dona. Buyurtma № 219.

---

TDTU bosmaxonasida chop etildi. Toshkent sh,  
Talabalar ko'chasi 54. tel: 246-63-84.